

83.3
G.17

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

Qo'lyozma huquqida

UDK 821.512.133

G'AIPOVA HULKAR QO'ZIBAYEVNA

**ERKIN A'ZAM ASARLARINING BADIY TIL
XUSUSIYATLARI**

5A220101 – Adabiyotshunoslik

(tillar va tadqiqot yo'nalishlari bo'yicha)

Magistr

**akademik darajasini olish uchun yozilgan
dissertatsiya**

Q-129

Ilmiy rahbar:

f.f.n. B.B.Rahimova



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

Filologiya va san'at

O'zbek adabiyoti

2012-2013 o'quv yili

G'aipova Hulkar Qo'zibayevna

Rahimova Bekposhsha Bahodirovna

5A220101-Adabiyotshunoslik (O'zbek adabiyotshunosligi)

MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI ANNOTATSIYASI

Mavzuning dolzarbligi: E.A'zam hikoya, qissalari tilidagi badiiyat, ravon va jozibalik, xalqona ohangga monandligi xususiyatlarning badiiy matndagi rolini aniqlash, muayyan umumlashma xulosalarga kelish;

Ishning maqsadi va vazifalari: E.A'zam asarlarining tahlili asosida badiiy til xususiyatlarining tasvirdagi o'rnini, adibning poetik mahorati va o'ziga xosligini tadqiq etish;

Tadqiqot ob'ekti va predmeti: E.A'zamning "Chapdast", "Pakananing oshiq ko'ngli", "Suv yoqalab", "Zabarjad", "Otoyining tug'ilgan yili", "Shoirning to'yi" asarlari; badiiy tilning yozuvchi asarlaridagi asosiy xususiyatlarini, janr, mavzu va uslubiy jihatlarini ko'rsatish;

Tadqiqot uslubiyati va uslublari: qiyosiy-tarixiy va matn tahlili;

Tadqiqot natijalarining ilmiy jihatdan yangilik darajasi: E.A'zamning narsa, voqelik va shaxsni anglash, badiiy kashf etish iste'dodi uning ijodiy uslubi, dunyoqarashi bilan bog'liq holda monografik planda o'rganish;

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati va tadbiqu: bugungi o'zbek nasriga oid tadqiqotlar yaratish, badiiy talqinning asardagi xususiyatlari va adib uslubidagi o'rni bo'yicha izlanishlar olib borishda asos bo'lishi, "Istiqlol davri o'zbek nasri", "Badiiy asar tili" kurslari bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazish, uslubiy qo'llanmalar tayyorlash

Bajarilgan ishning asosiy natijalari: Dissertatsiya ishining materiallari va natijalaridan hozirgi davr o'zbek nasri, xususan hikoya va qissachiligiga oid tadqiqotlar yaratish, badiiy talqinning asardagi xususiyatlari va adib uslubidagi o'rni bo'yicha izlanishlar olib borishda asos bo'lishi ishning ilmiy ahamiyatini belgilaydi. "Hozirgi adabiy jarayon" va "Yangi o'zbek adabiyoti" fanlari bo'yicha o'qish va amaliy mashg'ulotlar olib borishda foydalanilmoqda.

Xulosa va takliflarning qisqacha umumlashtirilgan ifodasi: E.A'zam ijodida badiiy til unsurlaridan ustalik bilan foydalanish va ular betakrorlikka erishish vositasi namunasi ekanligi asoslandi. Adibning obraz yaratish, kompozitsiya va sujet kabi komponentlar o'qishliligini oshirishdagi mahorati, muallif, hikoyachi va personajlar nutqlarining asar g'oyaviy-badiiy mazmunni, adib uslubini ifodalashdagi o'rni tadqiq qilindi.

Ilmiy rahbar:

Magistratura talabasi:



f.f.n.B.B.Rahimova

H.Q.G'aipova

Ministry of Higher and Secondary Specialised Education of Uzbekistan

Al-Khorezmi Urgench State University

Philology and Art

Gaipova Hulkar Qoziboyevna

Uzbek literature

Rahimova Bekposhsha Bahodirovna

2011-2013 academic year

5A220101 - Study of Literature

Master's thesis annotation

The actuality of Theme. Realizing and giving general points to the style of stories of Erkin Azam.

Subject of research. Studying the main features and poet ability of the writer analyzing the role of art language using in description.

Purpose of work: The work of Erkin Azam "Chapdast", "Pakananing oshiq ko'ngli", "Suv yokalab", "Zabarjad", "Otoyining tug'ilgan yili", "Shoirning to'yi" were taken into consideration showing main properties of language usage, genre and theme choosing.

Methods of research: comparative-historical method.

The results obtained and their novelty: For the first time in given research was studied Erkin Azam's world outlook and his attitude to thing, reality, the ability to understand the people and show them in his creative works.

Practical value: Materials of the research work can be used in writing books or guides on Uzbek prose, also in investigations concerning genre, style of stories and writers' role in expressing feelings and opinions in their works. Information given in the thesis also can be used in theoretical and practical courses on Uzbek literature.

Conclusion and short suggestions. Was proved Erkin Azam's brilliant usage of literary language. Was analysed and marked the ability and style of writer to create personalities, compositions and subject of the stories, their consequence and logic.

Supervisor

Master

MUNDARIJA

KIRISH.....	3-9
--------------------	------------

I BOB. ADABIY ASARDA BADIY TILNING O'RNI

1.1. Asar tili badiylik mezonlaridan biri.....	10-17
1.2. So'z qo'llash mahorati – til badiyatining asosi.....	18-26
1.3. Oraz yaratishda badiy tildan foydalanish.....	26-35
I bob bo'yicha xulosalar.....	35-37

II BOB. ASAR TILIDA DIDAKTIK VA HAJVIY TAFAKKUR IFODASI

2.1. Aforistik ma'no talqinlari.....	38-49
2.2. Yumoristik talqinlar.....	49-57
II bob bo'yicha xulosalar.....	57-59

III BOB. BADIY MATNDA NUTQ TURLARI VA ULARNING IFODALANISH XUSUSIYATLARI

3.1. Monologik nutq.....	60-64
3.2. Dialogik nutq.....	64-68
III bob bo'yicha xulosalar.....	68-70

XULOSA.....	70-74
--------------------	--------------

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	74-79
--	--------------

MUNDARIJA

KIRISH.....	3-9
--------------------	------------

I BOB. ADABIY ASARDA BADIY TILNING O‘RNI

1.1. Asar tili badiylik mezonlaridan biri.....	10-17
1.2. So‘z qo‘llash mahorati – til badiyatining asosi.....	18-26
1.3. Oraz yaratishda badiy tildan foydalanish.....	26-35
I bob bo‘yicha xulosalar.....	35-37

II BOB. ASAR TILIDA DIDAKTIK VA HAJVIY TAFAKKUR IFODASI

2.1. Aforistik ma’no talqinlari.....	38-49
2.2. Yumoristik talqinlar.....	49-57
II bob bo‘yicha xulosalar.....	57-59

III BOB. BADIY MATNDA NUTQ TURLARI VA ULARNING IFODALANISH XUSUSIYATLARI

3.1. Monologik nutq.....	60-64
3.2. Dialogik nutq.....	64-68
III bob bo‘yicha xulosalar.....	68-70

XULOSA.....	70-74
--------------------	--------------

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	74-79
--	--------------

KIRISH

Mavzuning asoslanishi va uning dolzarbligi. Istiqlol sharofati tufayli respublikamizda keyingi yigirma yil ichida ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy sohalarda tarixiy burilish yuz berdi – yangilanish va yuksalish jarayoni davom etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, ma'naviyat “doimiy harakatdagi uzluksiz jarayon bo'lib, taraqqiyot davom etar ekan, uning shiddatli yurishi tufayli ma'naviy hayot oldiga qo'yiladigan talablar ham muttasil paydo bo'laveradi”¹. Bunday talablar adabiy-badiiy jarayonga ham aloqadordir. Badiiy ijodda shakllangan yangicha tomoyillar jamiyat va inson tafakkuri rivojiga ko'ra tobora takomillashib, rang-baranglashib bormoqda. Milliy g'oya va mustaqillik mafkurasi badiiy ijodda asosiy mezonga aylangan hozirgi adabiy jarayonda so'z erkinligi, uslublar turfaligi yangicha qarashlarni, jahon adabiyoti tajribasidagi ijobiy jihatlarni ijobiy qabul qilib, yanada rivojlantirmoqda.

Hozirgi kunda adabiyotimizda, uning barcha janrlarida g'oyaviy-badiiy mundarija inson va voqelikni anglash va badiiy kashf etish har bir adibning individual o'ziga xosligini yorqin aks ettirmoqda. Bu xususiyatning turli qirralari milliy adabiyotimizda salmoqli o'ringa ega bo'lgan nasrda, uning hikoya, qissa va roman janrlarida ham butun murakkablikda namoyon bo'lmoqda. Xususan, taniqli adiblar O'.Hoshimov, E.A'zam, H.Do'stmuhammad, N.Eshonqul va boshqalarning nasrida, ayniqsa, badiiy til bilan bog'liq mahorati e'tiborga loyiqdir. Afsuski, adabiyotshunoslik ilmida badiiy til, uning muayyan asar yoxud yozuvchi ijodidagi o'rin yetarli o'rganilmay kelinmoqda. Vaholanki, badiiy til badiiylik va obraz yaratish, uslubga orginallik bag'ishlash mezonlaridan biri, adibning xalq tiliga munosabatini, uning boy imkoniyatlaridan foydalanish iste'dodini ko'rsatuvchi jihat hamdir. Yozuvchi E.A'zam ijodi bunga yetarli asos bo'la oladi. Uning hikoya va qissalari tili til badiiyati betakrorligi, ravon va jozibaliligi, xalqona ohangga monandligi bilan ajralib turadi va katta qiziqish uyg'otadi. Shu bois bizning tadqiqotimiz ob'ekti sifatida uni tanladik. Bu muammoni o'rganish birinchidan, adib uslubidagi o'ziga xoslikni ko'rsatsa, ikkinchidan, nasriy asarlarda badiiy

¹Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Ма'навият, 2008. Б.171.

tilning yangi-yangi qirralarini tobora ko‘proq namoyon bo‘lishi mumkinligidan darak bermoqda. Bu xususiyatlarning badiiy matndagi rolini aniqlash, muayyan umumlashma xulosalarga kelish tadqiqotimiz dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqotning ob’ekti va predmeti. Ushbu ishning ob’ekti sifatida Erkin A’zam ijodi namunalari, jumladan, “Chapdast”, “Pakananing oshiq ko‘ngli”, “Suv yoqalab”, “Zabarjad”, “Otoyining tug‘ilgan yili”, “Shoirning to‘yi” nomli hikoya va qissalari tanlandi. Ba’zi o‘rinlarda zaruratga ko‘ra adibning boshqa asarlariga ham yo‘l-yo‘lakay murojaat etildi.

Badiiy tilning yozuvchi asarlaridagi asosiy xususiyatlarini, janr, mavzu va uslubga bog‘liq jihatlarini ko‘rsatish dissertatsion ishning predmetini tashkil etadi.

Tadqiqotning maqsadi. Erkin A’zam hikoya qissalarining tahlili asosida ularda badiiy til xususiyatlarining ifoda va tasvirdagi o‘rnini, adibning poetik mahorati va o‘ziga xosligini tadqiq etish tadqiqotning maqsadidir.

Tadqiqotning vazifalari. Dissertatsiyaning maqsadidan kelib chiqqan holda tadqiqot vazifalari quyidagicha belgilandi:

- badiiy tilning adabiy asardagi o‘rniga umumiy sharh berish;
- badiiy til adabiyot badiiyligining asosiy mezonlaridan biri ekanini ta’kidlash va shu tamoyilga amal qilish;
- E.A’zam asarlarida so‘z tanlash va qo‘llashning yetakchi xususiyatlarini aniqlash, adibning xalq tili boyliklaridan foydalanishdagi izlanishlarini yoritish;
- badiiy tilning asar xalqchilligini ta’minlovchi omil ekanini aniq misollar asosida izohlash;
- adib asarlari tilida aforizm va yumorning badiiy-estetik va uslubiy funksiyasini tahlil etish;
- “Suv yoqalab”, “Zabarjad”, “Otoyining tug‘ilgan yili” va boshqa asarlarda sujet, kompozitsiya va tasvirda xalqona tafakkur va hajviy talqin namunalari yoritish;
- so‘z va iboralarning metaforik ma’nolarini qollashda adib iste’dodini tahlil etish;

- badiiy nutqning diologik va monologik shakllarining adib uslubidagi rolini o‘rganish;
- asar tili vositalarining portret, tasvir, peysaj, obraz yaratishdagi ishtirokini tadqiq qilish.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari:

1. Badiiy tilning asar tuzilishidagi o‘rni muhim ekanligini asoslash va yangicha qarashlarga suyanish.
2. Badiiy tilning adabiy asarni tashkil etgan komponentlarda, adib iste’dodiga ko‘ra namoyon bo‘lishi.
3. “Adabiyot tildan boshlanadi” iborasining mazmun-mohiyatini E.A’zam ijodi misolida ifodalash.
4. E.A’zamning so‘z tanlash va qo‘llashda boshqa adiblardan o‘zgachaligini ko‘rsatish.
5. Adib hikoya va qissalarida aforistik ifodalardan foydalanish mahorati.
6. Ziyolilar hayotiga bag‘ishlangan qissalarda yumoristik talqin, xususan kinoya usulining keng ishlatilishini ta’kidlash.
7. So‘zning ko‘chma – metaforik ma’no qirralarini qo‘llashdagi o‘ziga xoslikning o‘rni.
8. Dialogik va monologik nutqlar talqinidagi turfalik asar janri, mazmuni, adib uslubi bilan bog‘liqligi.

Mavzu bo‘yicha qisqacha adabiyotlar tahlili. Badiiy til umumfilologik muammo bo‘lib, adabiyotshunoslik va tilshunoslikka bab-baravar tegishlidir. O‘zbek adabiyotshunosligida bu masalaga qiziqish hamisha e’tiborda bo‘lib kelgan. Ammo badiiy tilga oid tadqiqotlar ko‘pincha tilshunoslik yo‘nalishida, xususan lingvopoetik jihatga daxldordir. O‘tgan yillarda A.Qodiriy, G‘.G‘ulom, Oybek, A.Qahhor kabi yirik adiblar asarlarining til xususiyatlari asosan shunday aspektda o‘rganildi. Bu xususda I.Sulton, M.Qo‘shjonov, S.Mamajonov, N.Karimov, P.Qodirov, U.Normatov va boshqa olimlarning ishlari alohida ajralib turadi.

Hozirgi davr o'zbek adiblari ijodining badiiy til nuqtayi nazaridan o'rganishda yuqoridagi olimlar tajribalariga suyanilmoqda. Afsuski, bu borada izlanishlar sekin bormoqda. Taniqli yozuvchilarning badiiy mahorati va ijodiy individualligini aniqlashda til imkoniyatlaridan foydalanish ayniqsa muhimdir. Quvonchlisi shundaki, bugungi kunda badiiy til badiiylik mezonlaridan biri ekanligiga alohida urg'u berilmoqda¹. Bu fikrning isboti uchun istiqlol davrida yaratilgan hikoya va qissalarning badiiy tili ham yetarli material bera oladi. Bular orasida taniqli adib E.A'zam ijodiga mansub asarlar salmoqli o'rin tutadi. Bu sermahsul, o'ziga hos yozuvchi ijodi haqida adabiyotshunoslikda ayrim fikrlar aytilgan. Xususan hikoyalari to'g'risida G.Sattorova, M.Hamidova, P.Kenjayevalar umumiy sharh tarzida asosli fikr bildirishgan. Qissalari borasida A.Rasulov, A.Xolmurodov, M.Rustamova, G.Ashurova, "Shovqin" romani haqida S.To'laganova, S.Qurbonovalarning qarashlari mavjud. Lekin bu tadqiqotlar asarlarning g'oyaviy-badiiy mundarija talqiniga bag'ishlangan bo'lib, badiiy til muammosi deyarlik chetlab o'tiladi.

Filologiya fanlari doktori A.Xolmuradov o'zining doktorlik dissertatsiyasida E.A'zamning 80-90-yillardagi qissalarini tilga olar ekan, adibning xarakter yaratishdagi o'ziga xosligiga e'tibor berib, uning qissachilikdagi o'rnini alohida ta'kidlaydi². Filologiya fanlari nomzodi M.Rustamova "Istiqlol davri o'zbek qissalarining taraqqiyot tendensiyalari" mavzusidagi dissertatsiyasida E.A'zamning "Shoirning to'yi", "Chapaklar va chalpaklar mamlakati" qissalarining tili haqida shunday asosli xulosaga keladi: "Fojea bilan kulgu omuxta bo'lib ketgan bu asarlar o'qishlilikini, yuqumliligini ta'minlagan asosiy omil roviyning tilidir. E.A'zam tilning tovlanishi imkoniyatlarini g'oyat puxta biladi. Uni inson tabiatining eng yashirin, ichki jihatlarini ham ocha biladigan tarzda ishlatadi"³.

¹ Саримсоқов Б. Бадийлик асослари ва мезонлари. - Тошкент. 2004; Тўйчиев У. Бадийлик мезонлари ва маромлари.-Тошкент.2011; Расулов А.Бадийлик – безавол янгилик.Тошкент.

² Холмурадов А. Ўзбек киссачилиги: тараққиёт Филол...фанл...доктор....дисс...автореферати. 2010. 41 б.

³ Рустамова М. Истиқлол даври ўзбек киссаларининг тараққиёт тенденциялари. Фил.фанл.дисс.автореферати. 2005.Б.12.

Tadqiqotchi N.Ashurova adib ijodida yumorning o‘rniga to‘xtalar ekan, unda, xususan qissalarida kinoyaning turli ko‘rinishlari muallif va personajlar tilida namoyon bo‘lishiga e‘tibor qaratadi¹.

Hozirgi qissalarda uslub rang-barangligiga bag‘ishlangan ishlarida tadqiqotchi F.Rajabova E.A’zamning “Suv yoqalab” va “Zabarjad” qissalari tahlili misolida adib uslubining qahramon yaratish, epik bayon va nutqdagi o‘ziga xos jihatlarini tahlil etgan².

Ko‘rinadiki, E.A’zam ijodi haqida ancha-muncha tadqiqotlar qilinayotgan bo‘lsa ham ularda adibning badiiy til mahorati maxsus ob‘ekt qilib olinmagan va o‘rganilmagan. Vaholanki, yozuvchi asarlaridagi mazmun teranligi, uslub ravonligi, obraz yaratishdagi iste’dodini ta‘minlagan omillardan biri badiiy tilning shiraligi, jozibaliligidir. Zero, adib hikoya va qissalarining til badiiyatidagi o‘ziga xoslik badiiy ijodda xalq tili boyliklarini qo‘llay bilish qobiliyatini aks ettirishi jihatidan ham muhimdir. Shu bois biz ushbu ishimizga muallif hikoya va qissalaridagi badiiy til ko‘rinishlarini asosiy ob‘ekt qilib tanladik.

Dissertatsiyaning metodologik asosi va metodlari. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning milliy mafkura, ma’naviyatga oid, xususan, “Yuksak ma’naviyat –yengilmas kuch”, “Adabiyotga e‘tibor – kelajakka, ma’naviyatga e‘tibor” asarlaridagi xulosa va qoidalar ishning metodologik asosini tashkil etadi. Dissertatsiyani yozishda adabiyot nazariyasiga doir yangi qarashlar, shuningdek, I.Sulton, O.Sharafiddinov, U.Normatov, U.To‘ychiev, B.Sarimsoqov, A.Rasulov, H.Boltaboev va boshqa olimlarning adib mahorati va badiiy til xususidagi fikrlariga tayandik. Ishda qiyosiy-tarixiy va matn tahlili metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiya ishining materiallari va natijalaridan hozirgi davr o‘zbek nasri, xususan hikoya va qissachiligiga oid tadqiqotlar yaratish, badiiy talqinning asardagi xususiyatlari va

¹ Ashurova N. Erkin A‘zam uslubining ayrim xususiyatlari //Ўзбек тили ва адабиёти. 2012. №5. Б.65-67.

² Ражапова Ф.Қиссачиликда замонавий талқин тамойиллари. Рисола. –Тошкент. ТДПУ. 2011. 45 б.

Ўша муаллиф. Индивидуал услубда образ тасвири//Бадий тафаккур ва адабий жараён. -Тошкент.ТДПУ.2010.Б.31-35.

Ўша муаллиф. Реализм имкониятлари ва қисса //Бадий тафаккур ва адабий жараён. –Тошкент.2011. Б. 44-47.

adib uslubidagi o'rni bo'yicha izlanishlar olib borishda asos bo'lishi ishni ilmiy ahamiyatini belgilaydi. Tadqiqotdan oliy o'quv yurtlarining filologiya fakultetlarida tanlama fanlar, jumladan "Istiqlol davri o'zbek nasri", "Badiiy asar tili" kurslari bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazish hamda konkret asarlarning lingvopoetikasi bo'yicha ma'ruza matnlari, o'quv qo'llanmalar tayyorlashda foydalanish mumkin.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. E.A'zam ijodi haqida adabiyotshunoslikda qator maqolalar yozilayotgan bo'lsa ham ularda adibning badiiy til mahorati yo'l-yo'lakay qayd etilmoqda yoxud chetlab o'tilmoqda. Shu bois ishimizning ilmiy yangiligi adib ijodida badiiy tilning voqe bo'lish xususiyatlarining monografik yo'nalishda maxsus o'rganilgani, yangi adabiy-estetik tamoyillarga asoslangani bilan belgilanadi. Ishda E.A'zamning narsa, voqelik va shaxsni anglash, badiiy kashf etish iste'dodi uning ijodiy uslubi, dunyoqarashi bilan bog'liq holda o'rganiladi.

Shuningdek, dissertatsiya ishining ilmiy yangiligi yana quyidagilarda ko'rinadi:

- asar tili badiiylik mezonlaridan biri ekanligi haqidagi ilmiy –nazariy qarashlar mustahkamlandi;
- E.A'zam ijodida badiiy til unsurlaridan ustalik bilan foydalanish va ular betakrorlikka erishish vositasi namunasi ekanligi asoslandi;
- adib badiiy til orqali oxorli ifoda va ta'sirchan tasvirga erishayotgan o'ziga xos yozuvchi sifatida tanilayotgani e'tirof etildi;
- adibning obraz yaratish, kompozitsiya va sujet kabi komponentlar o'qishlilikini oshirishdagi mahorati so'z va ibora qo'llashda namoyon bo'lishi ko'rsatildi.
- "Otoyining tug'ilgan yili", "Shoirning to'yi", "Pakananing oshiq ko'ngli" qissalarida xalqona yumorni etakchi o'rni oydinlashtirildi.
- "Suv yoqalab", "Zabarjad", "Jannat o'zi qaydadir" qissalarida aforizm va badiiy nutqning adib talqinidagi xususiyatlari tahlil etildi.

- Muallif, hikoyachi va personajlar nutqlarining asar g‘oyaviy-badiiy mazmunni, adib uslubini ifodalashdagi o‘rni tadqiq qilindi.

Dissertatsiyaning tarkibining qisqacha tavsifi. Dissertatsiya Kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat, umumiy hajmi 80 bet.

I BOB. ADABIY ASARDA BADIY TILNING O'RNI

I.1. Asar tili badiylik mezonlaridan biri

Ma'lumki, adabiyot mohiyatini ijtimoiy – hodisa ekanligi tashkil etadi. Uning bu xususiyati adib maqsadi, asarni yahlitlovchi badiiy unsurlarning o'zaro muvofiqligi orqali yuzaga chiqadi. Bu unsurlar orasida til, ya'ni so'z omili alohida o'rin tutadi. Bu til badiylik ma'nosi bilan to'yingan va adabiy asarning muhim shartlaridan biri bo'lgan badiiy yoxud "poetik til" deb yuritiladi. Binobarin, adabiyot san'atning boshqa turlaridan farqi ham avvalo uning so'zlar vositasida yaratilishida ko'rinadi. Shunday ekan, badiiy til adabiyot nazariyasiga doir masalalar sirasida oldingi qatorda turadi va har qanday asar xususiyatlarini belgilashda yetakchi ko'rsatkich sanaladi.

Badiiy til adabiy asarning boshqa tarkibiy qismlari bilan bog'langan holda ular talqinlarida u yoki bu darajada zohir bo'ladi. Xususan, asar g'oyasi, adib niyati, shakl va mazmun uyg'unligi, tasvir va ifoda mutanosibliigi, metod va uslub uyg'unligi, ijodkorning individualligi, mahorati kabi masalalarda badiiy tilning o'ri yorqin ko'rinadi. Zero, badiiy til asardagi obrazlar, xarakatlar va boshqa qismlarda yechilib, sintezlashadi va muallif iqtidorini namoyish etadi.

Badiiy til ko'p tomonlama vazifa bajaradi.

Bunda adabiy janr, davr xususiyati, mavzu xarakteri, yozuvchi iste'todi kabi omillar bilan izohlanadigan jihatlar muayyan ahamiyatga ega. Ammo, "Badiiy tilning asarda tutgan eng muhim o'ri shundaki, til shakl orqali mazmunga aktiv ta'sir ko'rsatadi va shakl bilan mazmunning dialektik birligini ta'minlab turuvchi asosiy vosita hisoblanadi"¹.

Badiiy asar mazmunini ro'yobga chiqaruvchi, mazmunni reallashtiruvchi birdan-bir vosita bo'lib, u badiiy til- poetik til deb nam yuritiladi. Badiiy adabiyot tili adabiy til bilan chambarchas bog'langan, umumxalq tiliga asoslangan, jonli va adabiy til boyliklarini aks ettirgan, yozuvchilar tomonidan pardoziqlangan,

¹ Адабиёт назарияси, 1-том. Тошкент: Фан, 1978. Б 322

jilolangan til hisoblanadi. Shu ma'noda badiiy adabiyot tili faqat kishilar o'rtasidagi aloqa vositasi bo'lib qolmasdan, g'oyaviy va emotsional ta'sir qilish quroli vazifasini ham o'taydi, chunki yozuvchi badiiy til vositasida obraz va tiplar, xarakter va manzaralar yaratish ekan, ularning mohiyatini ochib ko'rsatadigan so'z va iboralar tanlaydi, so'zlarning asl va ko'chma ma'nolarini aniqlaydi, ularning sinonim va antonimlarini topadi, umumxalq tilining gap qurilishi usullaridan, arxaizm va jargonlardan hamda boshqa nutq vositalaridan foydalanadi. Shu xilda yozuvchi asar g'oyasiga muvofiq shakl tanlaydi. M.Gorkiy aytganidek, "ish tafakkurni uyg'otadi, tafakkur ish tajribasini so'zga aylantiradi, undan g'oyalar, gipotezalar, nazariyalarni... hosil qiladi. Yozuvchining ishida asosiy material so'zdir"¹. So'z esa "barcha faktlar, barcha fikrlar libosidir. Ammo har bir fakt zahirida ijtimoiy ma'no bor, har bir ma'no zahirida esa bir yoki ikkinchi fikr nega bunday-u nega unday emas, degan sabab bor... Klassiklar yuz yillar davomida asta-sekin ishlangan ana shunday tilda yozganlar. Haqiqiy adabiy til shu"².

Shu ma'noda adabiyot – so'z orqali badiiy tasvirlash san'ati bo'lib, badiiy adabiyot tili adabiy asarning mazmunini ro'yobga chiqaruvchi birdan-bir vosita hisoblanadi. Tasviriylilik, emotsionallik, obrazlilik, tipiklashtirilganlik, xalqchilik, lakonizm va aforizm badiiy tilning asosiy xususiyatlaridir. Agar ilmiy asarlar tili umumlashgan tushunchalarni anglatib, badiiy asarlar tili tabiat manzaralarini va inson qalbini butun murakkabligi bilan aks ettiradi. Boshqacha qilib aytganda, so'z san'atkor hayotning hamma qirralarini tasvirlaydi. Rassom bo'yoqlar, bastakor tovushlar, haykaltarosh gips yoki tosh bilan ifodalaydigan mazmunni badiiy adabiyot obrazli til vositasida aks ettiradi. Agar ilmiy faktlar yoki iboralar inson aqliga ta'sir ko'rsatsa, badiiy til uning hissiyotiga, qalbiga ta'sir qiladi. Badiiy asar tilining personajlar his-tuyg'usini ifodalash orqali kitobxon qalbiga ta'sir etish xususiyati uning hissiyligi(emotsionalligi)ni belgilaydi. Shu bilan birga, badiiy asar tili obrazlar bilan ham chambarchas bog'liq bo'ladi. Chunki til yozuvchining u yoki bu obrazni yaratish uchun leksik, intonatsion va nutqiy vositalarni nima

¹ Горький М. Адабиёт ҳақида.-Тошкент: Ўздавнашр, 1962. Б.191.

² Ўша манба. Б.240.

maqsadda tanlaganini, poetik sintaksisdan qanchalik foydalanganini bildiradi. Shu ma'noda, obraz asar g'oyaviy mazmuniga shakl bo'lgani kabi, til obraz shakli hisoblanadi. Bu esa yozuvchining badiiy-adabiy uslubini, badiiy asar tilining o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatadi. Har bir yozuvchi o'z asarida so'z qo'llash jarayonida o'z uslubini ham namoyon qiladi – natijada bir yozuvchining tili ikkinchi yozuvchining tilidan ozmi-ko'pmi farqlanib turadi. Masalan, Oybek romanlari tilida epiklikka , liriklikka moyillik sezilib tursa, Abdulla Qahhor asarlari tilida esa kinoyalar, kesatiqlar, qochiriqlar ko'p uchraydi – o'nlab hajviylikka moyillik kuchli va hokazo. Bundan tashqari, yozuvchi har bir obrazning individualligini uning xarakteriga xos belgilar – madaniyati, kasbi, psixologiyasi, nutqi orqali ifodalar ekan, inson xarakterining turli tomonlarini bildiradigan individual nutqning barcha go'zalligi va mohiyati badiiy adabiyot tilining muhim belgisi sifatida namoyon bo'ladi. Chunki badiiy asar personaj nutqi o'zida hayotdagi ma'lum guruh tiliga xos xususiyatlarni aks ettiradi. Shu ma'noda tilning xalqchilligi uning nafosati belgisidir.

Shunday qilib, badiiy adabiyot tili umumxalq tili madaniyatida o'ziga xos hodisa sifatida yuzaga kelgan, badiiylikka bo'ysundirilgan tildir. Har bir yozuvchining tili bir necha ming so'zdan tashkil topadi. U ana shu so'zlar boyligidan nutq uchun so'zlar tanlaydi, badiiy obraz yaratishda u yoki bu badiiy vositaga murojaat etadi. Shu ma'noda yozuvchining uslubi uning tilida o'z aksini topadi. Shuning uchun ham adabiy til yozuvchi uslubiga bog'liq holda o'rganiladi. Masalan, badiiy asar tili yozuvchining nutq vositalarini tanlash prinsipi, obrazlar sistemasi kabilar bilan bog'liq bo'ladi. Badiiy asar tilida faqat xalq nutq madaniyatining – jamiyat tili va uning individuallashtirilgan va umumlashtirilgan ifodasi emas, balki xalq madaniyati uchun zarur bo'lgan nutq shakllarining ifodasi ham o'z aksini topadi. Badiiy tilning tarbiyaviy-estetik ahamiyati ham ana shundadir. Badiiy asar tilining bunday estetik vazifasi badiiy obrazda mujassamlashgan estetik idea bilan belgilanadi. Chunki badiiy obrazdagi bu go'zallik badiiy asar tiliga o'tadi. Inson madaniyatining yuksak darajasi, ahamiyati va mohiyati uning xarakterini ifodalaydigan nutqida namoyon bo'ladi. Shu zaylda

badiiy adabiyot tilida gapira bilish ko'nikmasini hosil qiladi, tilning nafosatini his qilishga va bu nafosatni xalqda tarbiyalashga imkon beradi. Badiiy tilning shunday estetik vazifasi uning tarbiyaviy, ijtimoiy ahamiyatini ham belgilaydi. Chunki badiiy adabiyot tilida jonli nutqning barcha hodisalari umumlashtiriladi va o'zining estetik bahosiga ega bo'ladi. Ma'lumki, fanda tilni 1) umumxalq tili; 2) adabiy til; 3) badiiy til shaklida tasvirlash e'tirof etilgan. Keyingi davrdagi ayrim ilmiy qarashlarda badiiy tilni "til badiiyati" atamasiga almashtirish, uni xalq tili imkoniyatlaridan biri deb hisoblashga moyillik ko'rinmoqda. Bu baxsli masala bo'lib, uzil-kesil hal qilingan emas. Nazarimizda, "badiiy til" atamasi ilmda chuqur singishgan bo'lib, "til badiiyati" tushunchasiga nisbatan keng va qamrovli ko'pchilikka tushunarlidir. Ikkinchidan, badiiy tilning semantik doirasida uning funksional xususiyatlari umumiylikni anglatga, "til badiiyati"da ko'pincha konkret asarlarga nisbatan qo'llanilishi, muayyan masalalarning biror jihatdan o'rganishga yo'naltirilishi ustuvor bo'ladi. Hozirgacha mavjud adabiyot nazariyasiga oid barcha tadqiqotlar, darslik, qo'llanma va lug'atlarda "til badiiyati"ga qaraganda "badiiy til" termini ko'p qo'llanilmoqda va maqullanmoqda.

Turli davrlardagi, jumladan, bugungi kundagi ilmiy nashrlarda xususan "Adabiyot nazariyasi"ning ikki tomligida, I.Sulton, T.Boboyev, P.Qodirov, X.Umarov, E.Xudoyberdiev, F.Salaev va boshqalarning tadqiqotlarida "badiiy til" atamasi saqlangan. Bu fikr yaqinda chop etilgan, nisbatan mukammal "Adabiyotshunoslik lugati" kitobida xam quvvatlanadi va unda shunday deyilgan: "Badiiy til- badiiy asar tili, so'z san'atining asosiy quroli, badiiy adabiyotning obraz yaratish vositasi; poetik til, badiiy adabiyot tili kabi shakllarda ham ishlatiladi. Ya'ni badiiy adabiyot birlamchi belgilar sistemasi sanaluvchi til vositasida, ikkilamchi belgilar sistemasini- badiiy voqelikni tashkil qiluvchi obrazlar tizimini yaratadi".¹

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, adabiyot tili garchi "badiiy til" va "til badiiyati" nomlari bilan turlicha atalsa ham, ularning mohiyati bitta: adabiy asar badiiyligining mezonlaridan biri ekanligi! Binobarin, badiiy tilni tashkil qiluvchi

¹ Курунов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. Тошкент: Академнашр, 2010. Б.52.

elementlar (unsurlar)ning olimlar tomonidan har xil atalishi buni inkor etmaydi. Jumladan, professor B.Sarimsoqov bu unsurlarni “imkoniyat”, filologiya fanlari doktori U.To‘ychiyev “marom” deb nomlaydi.

Adabiyotshunos B.Sarimsoqov monografiyasida “badiiy til atalmish maxsus til yo‘q” deya uni o‘rniga “til badiiyati” atamasini ishlatadi va uning shakllari (imkoniyatlari) ni quyidagicha ko‘rsatadi:

“1) so‘z ma’nolarining ko‘chishi ... metafora, metanimiya, sinekdoxa, ramz, majoz kabi ko‘chim turlari obrazli tasvir va ifoda asosida yotadi.

2) o‘zga tildan so‘z olib o‘zlashtirish arab, fors-tojik, rus va rus tili orqali o‘zga tillardan o‘zlashgan so‘zlar.

3) tildagi eski va yangi yaratilgan so‘zlardan foydalanish.

4) sheva va lahjalarga mansub so‘zlar

5) tildagi yordamchi so‘z va qo‘shimchalar

6) turli sohalarga oid atamalar

7) tovushlarning o‘rni (alliteratsiya)

8) tildagi yumuq iboralar, frazeologik birliklar, maqol va matallar.

9) so‘z birikmasi yoki gapning kutilmagan shakllari ”¹.

Badiiylik va tilning undagi o‘rnidan bahs etuvchi eng so‘ngi tadqiqotlardan biri U.To‘ychiyevning ancha salmoqdor kitobidir”². Kitobda badiiylikning bosh mezonini iste’dod deb belgilanadi va uning mehnat, saviya, shaxsiyat va sharoit kabi maromlari izohlanadi. (B.Sarimsokov kitobida badiiylik mezonlari 8 ta bo‘lib, biri “til badiiyati” deb atalgan edi). Tilni xosiyat mezonlaridan bir maromi sifatida baholagan muallif uning talqiniga keng to‘xtaladi: nasr tilining o‘ziga xos xususiyatlarining nasriylik, tasviriylilik va aniqlikda ko‘radi.

Tadqiqotning muhim xususiyatlaridan biri shundaki, unda til haqidagi fikrlar adabiy turlar, janrlar va ularning namunalari asosida bayon etiladi. Nasrda ko‘proq A.Qodiriy asarlariga, nazariy qarashlarda Izzat Sulton fikrlariga tayanadi.

¹ Каранг . Саримсоков Б. Бадийлик асослари ва мезонлари. Тошкент, нашриётсиз. 2004. Б. 116-120.

² Туйчиев У. Ўзбек адабиёти ва бадийлик мезонлари ва уларнинг маромлари. Тошкент: Янги аср авлоди. 2011. Б.508

Olim qarashlarining yana bir o'ziga xosligi shundaki, tadqiqotda nasriy asarlar tilning xususiyatlarini boshqa janrlar, xususan she'riy asarlar tiliga qiyoslash asosida ko'rsatishga alohida urg'u beradi. Bularni uch turga ajratadi:

- 1) “ Nasr tilining o'zigagina hos xususiyatlari.
- 2) Nazm tilida ham mavjud bo'lgan, lekin nasr tilida bo'rtib turadigan xususiyat, serqatlamlilik.
- 3) Nazm tilida bo'rtib turadigan o'ziga xos , biroq nasr tilida ham uchraydigan xususiyatlar”¹.

Yuqoridagi fikrlardan ko'rinadi-ki badiiy asar tili bilan bog'lik masalalar nihoyatda keng va murakkabdir. Ularning konkret asarlardagi ifodasi ijodkor iste'dodi, shaxsiy mayli, poetik mahorati va uslubiga bog'lik. Bu jihatdan taniqli yozuvchi E.A'zam asarlarining tili xarakterlidir. Hozirgacha yozuvchi 40 ga yaqin hikoya, 9 ta qissa, 6 ta kinoqissa, 3 ta dramatik asar va 1 ta roman yaratgan. Ularda olimlar tomonidan yuqorida qayd etilgan til xususiyatlari yorqin aks etadi. Bu xususiyatlar muallifning hikoya, qissa va dramatik asarlarida mavzu va janr xarakteriga ko'ra talqin etiladi. Zero, E.A'zam o'z “tili”ga ega bo'layotgan, ijodini badiiy til imkoniyatlari bilan ziynatlayotgan adiblardan biridir. U ona tilining ohang jilolarini nozik ilg'ay oladi. Faqat o'ziga xos “dasxat”i, nutqi, hatto tovushlarni kerak o'rnida toblay oladigan, tovlanib, turlanadigan qahramonning serohang ovozi, o'zgaruvchan tovush tembrlari, ovoz diapozonidagi kenglik uslubining ayricha sifatlaridan hisoblanadi. Xususan, so'z balog'atini his etishi alohida e'tibor va e'tiroflarga sazovor. Yozuvchi asarlarining tili ma'lum tizimga solingan, yaxlitlashgan, hattoki jonsiz detallar ham leksik, semantik, logik struktura qatlamiga ega. Semantika va logika- shu ikkilik E.A'zam nasrining yadrosi. Adib asarlari o'zgacha olam modeli-semiosferasiga ega. Ijodida badiiy nutq aktsenti-kinoya, kesatik, piching yetakchilik qiladi. Bu uning qahramonlari va jamiyat o'rtasidagi ziddiyatlarda yorqin namoyon bo'ladi. Kinoya, kulgu, xosil

¹ Туйчиев У. Кўрсатилган асар. Б. 181.

ko'ra, umuminsoniy muammoning qamrovini, fojeaning ildizlarini chuqurroq ochishga safarbar etiladi.

Darhaqiqat, filologiya fanlari nomzodi S.To'laganova ta'kidlaganidek: "Ijodkor badiiylik moduli sanalmish kinoyani ham vosita ham niqob o'rnida qo'llaydi. Kinoya usuli qo'llanish, tadbqiq qilinish usuliga ko'ra turfa ko'rinishlarda: niqob-himoya, niqob-chora, niqob-usul, niqob-vosita, ba'zi o'rinlarda esa ehtiyojga ko'ra aralash holda uchraydi"¹.

Adabiyot tildan boshlanadi. Rangsiz tasviriy san'at, ohangsiz musiqa bol'maganidek, tilsiz adabiyot ham bo'lmaydi. Adabiyotni insonshunoslik deydilar. Darhaqiqat, yozuvchi xilma-xil insoniy xarakterlarni tadqiq qilib, jamiyat rivojiga yordam beradigan salmoqli haqiqatlarni kashf etadi. Biroq bularning hammasi adabiyotda til orqali ro'yobga chiqariladi. Adibning yozuvchilik nigohi qanchalar o'tkir bo'lmasin, tafakkur quvvati qancha baquvvat bolma'sin, inson tabiatining sir-u asroridan har qancha boxabar bo'lmasin, qalami o'tmas, uslubi to'mtoq, tili g'aliz bo'lsa, uning oliyjanob niyatlari qog'ozda qolib ketaveradi. Yozuvchi hayot haqidagi tasavvurlarini, ijtimoiy-ma'naviy muammolar haqidagi hukm va xulosalarni kitobxonga til orqali yetkazadi, odamlar qalbidan kechadigan ismsiz tuyg'ularga nom beradi, so'z sehri bilan kitobxonga ta'sir ko'rsatib, uning fikriy dunyosini, ruhiy olamini harakatga keltiradi, shuning uchun "yozuvchi", "adib" degan tushunchalar bilan yonma-yon ularga teng tushuncha sifatida ko'pincha "so'z san'atkori" degan iborani qo'llaymiz. Kezi kelganda shuni aytish kerakki, bu gaplarning hech qaysisi bugun xayolga kelib qolgan, kitobxon e'tiboriga bugun havola etilayotgan yangi gap emas. Adabiyotda jinday nom chiqargan, uning rivojida sal bo'lsada iz qoldirgan qalam sohiblari borki, ularning hammasi yozuvchi mahoratining k'op qismini til mahorati tashkil qilishini, til adabiyotning birinchi elementi, asosiy materiali ekanini, chinakkam yozuvchi hamisha so'z mulkining sultoni, so'z lashkarining sarkardasi ekanini qayta-qayta ta'kidlagan. Bu eski, lekin hech qachon eskirmaydigan haqiqatlar o'zbek

¹ То'лаганова С. Янгиланаётган қаҳрамон талқини// Ўзбек тили ва адабиёти. 2012. №4. Б. 95.

yozuvchilarining ijodiy tajribasida ham necha martalab tasdiqdan o'tgan. Hamza va Abdulla Qodiriy, Oybek va G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor va Hamid Olimjon, Shayxzoda va Mirtemir kabi so'z ustalari o'z ijodlarida xalq tilining bitmas-tuganmas boyliklaridan samarali foydalanishning, badiiy til yaratishning ajoyib namunalarini berganlar. Ularning asarlari bugun ham yashashda davom etayotgan ekan, buning asosiy sabablaridan biri shundaki, ularda xalq tilining qudrati, sehr-u jozibasi, nafosati imkoniyatlarining tuganmasligi ancha mukammal ifodalangan. Mumtoz adiblarimizning badiiy til bobidagi qimmatli an'analari bugungi adabiyotimizda ham davom etyapti. Bugun ham ko'pgina adiblarimizning asarlarini o'qiganda, ularning xalq tilini puxta bilishini, so'zlarni zargardek mohirlik bilan xillab qo'llashini, so'z bilan go'zal manzaralar chizib, nafis holatlarni tasvirlab, qalbimizda kuchli emotsional tuyg'ular qo'zg'ashini, estetik zavqimizni uygo'tishini ko'rib mamnun bo'lamiz.

Atoqli adabiyotshunos O.SHarofiddinov asar tiliga e'tiborsizlikning xunuk oqibatlarini haqida shunday xulosaga keladi: "Tilga bepisand munosabat uch jihatdan katta zarar keltirishi mumkin: birinchidan, oxir-pirovardida, umuman adabiy tilimizning rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatadi; ikkinchidan, adabiyotimizning badiiy saviyasini tushurib yuboradi; uchinchidan, kitobxonning estetik didiga yomon ta'sir ko'rsatadi!"¹ Shunday qilib badiiy adabiyot tilining rangdorligi, tozaligi boyligi, obrazlilik uchun kurash adabiy tanqidning muhim vazifalaridan biridir.

Darhaqiqat, adabiyot tildan, badiiy til esa so'zni tanlash va to'g'ri qo'llashdan boshlanar ekan, buyuk tanqidchi ta'kidlaganidek, "badiiy adabiyotda har bir so'z butun asar talab etadigan fikrning barcha ma'nolarini shu qadar qamrab olgan bo'lsinki, unga xuddi shu yerda almashtiruvchi ikkinchi bir so'zning tilda yo'qligi bilinib tursin"².

¹ Шарафиддинов О. Адабиёт тилдан бошланади// Ҳақиқатга садоқат. –Тошкент. Адабиёт ва санъат нашриёти. 1989. Б. 165-166.

² Белинский В.Г. Адабий орзулар. – Тошкент, 1977. Б. 158.

1.2. Soʻz qoʻllash mahorati til badiiyati asosi

Soʻz- adabiy asarni vujudga keltiruvchi material. U oʻz xolicha muayyan maʼnoga ega boʻlsa ham boshqa soʻzlar bilan aloqasiz ijtimoiy-estetik ahamiyat kasb eta olmaydi. Shu bois soʻz tanlash va qoʻllash, uni maʼlum maqsadga qarata yoʻnaltirish, asar muvaffaqiyatini taʼminlash ijodkor mahoratining muhim shartidir. Soʻz asarning barcha unsurlari sujet, kompozitsiya, obraz, til, badiiyligni yuzaga chiqaruvchi asosiy moddiy vosita boʻlib, ijodkor isteʼdodi va tasvir uslubining koʻzgusi hamdir.

Adabiy asardagi soʻz badiiy soʻzdir. Lekin har qanday soʻz ijodkor munosabatisiz badiiy boʻla olmaydi. Badiiy obraz ham soʻz orqali yaratiladi. Darhaqiqat, “badiiy adabiyotda obraz yaratuvchi asosiy va yagona vosita soʻzdir. Lekin, badiiy adabiyotdagi soʻz oddiy soʻz emas, balki insondagi muayyan his-tuygʻuni, holat va harakatni, oʻy va kechinmani oʻzgalar qalbiga, shuuriga taʼsir etadigan darajada ifodalaydigan soʻzdir”¹.

Badiiy ijod soʻz tanlashdan boshlanar ekan, har bir ijodkor uchun soʻz maʼsuliyatini gʻoyat teran his qilish, oddiy soʻzlarni ham mukammal badiiy vositaga aylantirish, ular zimmasiga salmoqli maʼno yuklay olish nihoyatda zarur. Chunki, bunday soʻz asarni qaysi qismida boʻlishiga qarab aniq badiiy niyatni ifodalashga, soʻzni polesimik (koʻp maʼnoli) va stilistik (uslubiy) xususiyatini aks ettirishga, maʼlum vazifa bajarishga xizmat qiladi. Zero, soʻz estetik taʼsir vositasi boʻlib, muallif tildagi maʼno rang-barangliklari, shakliy turfaliklardan teran anglay olishga intiladi.

Soʻz – taraqqiyotdagi hodisa. Bu jarayonda uning maʼno qirralari kengayib, yuqori bosqichga oʻtadi. Bu uning badiiy ijoddagi hayotidir. Turli poetik figuralar, majozlar, tasvir vositalari qobigʻiga kirish soʻzning va poetik obrazga aylanishini taʼminlaydi. Zero, soʻz fikrning mazmunli ifodasidir, asar gʻoyasini yuzaga chiqarishda soʻzning badiiy-estetik mohiyati muhim roʻl oʻynaydi. Sanʼatkor, adib soʻz vositasida obrazlar xatti-harakatini yoki kechinmalarini shunchaki tasvirlash

¹ Саримсоков Б. Бадийлик асослари ва мезонлари. Тошкент. 2004. Б.5

yoʻlidan bormaydi, balki insoniy tuygʻular taftini kitobxonga toʻla va mukammal yetkazishga erishadi.

Adiblar hayotiy voqealar, inson shaxsi, goʻzallik tushunchalarini shu tariqa soʻz yordamida yangi jihatlarida tasvirlashga, oʻzgacha maʼno yaratishda soʻzning rangdor boʻyoqlaridan, tilning imkoniyatlaridan foydalanadilar. Qay darajada va qanday foydalanish birinchi galda adib isteʼdodi va soʻzga munosabatiga bogʻliq.

Badiiy matn soʻzning amal qilish maydonidir. Bu maydonda ijodkor soʻzni “uygʻotadi”, unga ijtimoiy-estetik funktsiya yuklaydi va soʻz badiiy maqomga ega boʻladi. Bu jarayonda soʻz qamrovi namoyish etib, uning tarkibida lugʻat bisotidagi soʻzlar majmuasi asosiy manba sifatida foydalaniladi. Soʻz tanlash va qoʻllashda adibning iqtidori, badiiy did va mahorati hal qiluvchi omildir. Bu xususiyatlarni ilk koʻrinishi avvalo har bir asarda sarlavha yaratish va personajlarni nomlash uchun tanlangan soʻzlarda aks etadi.

Maʼlumki, badiiy til adabiy asar badiiyligining asosiy mezonlaridan biridir. Ijodkorning maqsadi, gʻoyasi oʻsha til, uning tasvir va ifoda vositalari orqali roʻyobga chiqadi. Zero, badiiy til unsurlari adabiy asarning har bir sahifasida, har bir “hujayra”sida mavjud boʻlib, muayyan ijtimoiy-estetik vazifa bajaradi. Shunday unsurlardan biri sarlavhadir. Darhaqiqat, “har bir asar va uning boblariga bop sarlavhalar topa bilish yozuvchining til, umuman shakl bobidagi yetukligi alomatidir¹”.

Mumtoz va zamonaviy adabiyotimizning zabardast namoyondalari avvalo oʻz asarlarini mazmundor sarlavhalar bilan bezaganlar va bu bilan ikki vazifani ado etishgan: birinchidan, asarning asosiy mazmuniga ishora qilinsa, ikkinchidan oʻquvchi diqqati tezda jalb etilib, unga qiziqish kuchaygan. Bu xususiyat hozirgi adiblarimiz ijodida ham izchil davom etmoqda. Sarlavhalar tanlashda xalq tili imkoniyatlaridan, koʻpincha majoziy, obrazli soʻz va tushunchalardan keng foydalanilmoqda. Asqad Muxtorning “Chinor”, Odil Yoqubovning “Oq qushlar, oppoq qushlar”, Oʻtkir Hoshimovning “Nur borki, soya bor”, Shukur

¹ Иззат Султон. Адабиёт назарияси.-Тошкент: Ўқитувчи, 1980. Б.204.

Xolmirzayevning “Olabo‘ji”, Erkin A‘zamning “Zabarjad”, “Shovqin” asarlari sarlavhalari so‘zning metaforik ma‘nosiga asoslangan.

Bugungi adabiy jarayondagi faol adiblardan E.A‘zamning bir qissasining sarlavhasidagi “zabarjad” so‘zining pushtirang mustahkam, qimmatbaho tosh ma‘nosi qahramon Zabarjadga xos qat‘iyat va irodaga ishora bo‘lib, ko‘chma ma‘no – ramziylik kasb etgan. Yangi romanining “Shovqin” sarlavhasi esa tabiatdagi muayyan holatni emas, balki sho‘ro davridagi biqiq, besamar muhitning kinoyaviy timsolidir.

Erkin A‘zam nasrida, xususan qator qissalaridagi sarlavhalar o‘z ma‘nosidagi so‘z yoxud iboralar asar mohiyatini umumlashtiruvchi tayanch tushuncha sifatida umumiy mazmun va muallifning badiiy niyatiga daxldor bo‘lib, asardagi har bir voqea tasviri va personaj harakati bilan mantiqan bog‘liqlikni ta‘minlaydi. Chunonchi, “Suv yoqalab”, “Otoyining tug‘ilgan yili”, “Shoirning to‘yi”, “Piyoda”, “Farishta”, “Pakananing oshiq ko‘ngli” kabi qissalarida bu hol yaqqol ko‘rinadi. Adib qo‘llagan sarlavhalar shakl jihatdan quyidagi ko‘rinishlarga ega:

1) Bir so‘zli sarlavha; 2) ikki yoki undan ortiq so‘zlardan tashkil topgan sarlavha; 3) epigrafl sarlavha; 4) “yoxud” so‘zi ishlatilgan ikki qismli sarlavha (“Jannat o‘zi qaydadir yoxud Jiydalidan chiqqan Jo‘raqul”). Buni shartli ravishda qo‘sha tarkibli sarlavha deyish mumkin.

Sarlavha shakllaridan qay birini qo‘llash asar xarakteri, muallifning maqsadi, shaxsiy mayli va uslubiy o‘ziga xosligi bilan belgilanadi. “Pakananing oshiq ko‘ngli”, “Shoirning to‘yi” qissalaridagi sarlavhalar 2-guruh namunasidir. Ular asosiy tayanch qism bo‘lib, birinchisi ostidagi “Bo‘y va mo‘y o‘stirish tajribasi yoxud ruh tarbiyasi”, ikkinchisi pastidagi “Kechagi kundan rivoyat” so‘zlari sarlavhalar izohidir. Bu o‘rinda “bo‘y” va “mo‘y”, “ruh” kalit so‘zlari qissa voqeasining vaqtiga va sujetning qisman to‘qima ekaniga ishora bo‘lib, o‘tgan asrdagi mafkuraning soxta mohiyatini ifodalashga qaratiladi va asar

mazmuni hamda undagi masalalarni alohida ta'kidlash va o'quvchini ulardan xabardor qilib, rag'batini kuchaytirish funksiyasini bajargan.

E.A'zamning yana bir qissasida sarlavhaga oid qism uch unsur dan iborat: 1) sarlavha: "Otoyining tug'ilgan yili"; 2) sarlavha izohi: "Shartakilik qissasi"; 3) epigraf: "Aytsam-o'ldiralar, aytmasam o'lam"¹. Bulardan har biri muayyan vazifa bilan shartlangan. Birinchi asosiy sarlavhada adabiy ta'limdagi ayrim mantiqsizlikni fosh qilish nazarda tutilsa, ikkinchi izohda quv va haqiqatgo'y bosh qahramon – talabani ng murosasizlik yo'lidagi harakatlariga havola qilinadi, "Oshiq G'arib va Shohsanam" dostonidan olingan epigraf esa sujet asosini tashkil etuvchi qahramon bilan muhit, eski qarash bilan yangicha tafakkur o'rtasidagi konfliktning tadriji va xarakteri haqida lo'nda, muxtasar ma'lumot beradi. Muhimi shundaki, bu o'rinda asosiy badiiy "yuk"ni "shartakilik" so'zi ko'taradi – u mazmunning umumiy xususiyatini yorqin aks ettiradi. Bulardan tashqari, adib "Shovqin" romanida umumiy sarlavha bilan birga asarni tashkil etgan yigirma bobning har birida alohida sarlavhalar ham qo'llangan.

Adabiyotshunos T. Boboev asarlarining nomlarida (sarlavhalarida H. G'.) mavzuni muammolik xarakterini, ba'zilarida esa u yoki bu hayotiy muammoning qo'yilishi va yoritilishi mutlaqo tabiiy ekanligini ta'kidlaydi va jahon va o'zbek adabiyoti namunalarini misol qilib ko'rsatadi². Bu xil E.Azam asarlari sarlavhalari mohiyatiga ham dahldor.

Umuman, adabiy asar sarlavhasi badiiy til komponentlaridan biri, so'z tanlash mahoratining muhim sharti bo'lib, adibning ijodiy individualligi, izlanishga moyilligi, xususan uslubiy rang-barangligi samarasidir. Zero, "Uslub – ijodkor siyratining aks etishi, siyrat – o'zlik, individuallik, hech kimnikiga o'xshamaydigan asos, betakrorlikning yorqin namunasi"³.

Ijodkorning so'z qo'llash mahorati badiiy obrazlarni ismlarida ham ko'rinadi. Zero, har bir obraz xarakteri, uning ijobiy va salbiy xususiyati avvalo

¹ Эркин Аъзам. Кечикаётган одам. Қиссалар.-Тошкент.Шарқ. 2002.Б.6.

² Т.Бобоев Адабиётшунослик асослари. –Тошкент: Ўзбекистон, 2002. Б.100-101.

³ Расулов А. Танкид, талкин, баҳолаш. –Тошкент: Фан, 2006. Б.186.

uni nomida aks etadi. Shu tufayli adib bu masalaga befarq bo'lmay, obrazlar nomini ular saviyasiga muvofiqlashtiradi. Binobarin, badiiy obrazning mohiyati voqelikni badiiy umumlashmaga aylanishi va betakror alohidalikda aks etishi va ifodalanishida uning nomidagi ma'no ham muhim vazifa bajaradi. Bu xususiyatlar E.A'zam asarlarida ham bo'lib, katta qiziqish uyg'otadi.

Adib ijodida uchraydigan obrazlarning nomi chuqur mulohaza, asardagi mazmunni ochishga qaratilgan maqsadga yo'naltirilgan tarzda tanlanadi. "Suv yoqalab" qissasining qahramoni Bolta Mardondir. Bu nom tasodifiy bo'lmay, sobiq raisning jo'mardligi, o'tkir zehni va farosatiga ishoradir. Uning turli xarakterdagi o'gillariga ham ularni ma'naviy qiyofasiga muvofik nomlar tanlangan. Chunonchi, katta o'g'lining Amir deb atalishida uni "benzin" ni xo'jayini, o'zgalarga buyruq berishga o'rgangani, dimog'dorligi nazarda tutilsa, otasiga ko'makchi, mehnatsevar, kamtarin, aspirant o'g'lini Botir nomi bilan atalishi to'la asosdir. Qissadagi ayollar obrazlarini Musallam (Bolta Mardonni xotini), Zulfiya (qizi), Sharofat (beva ayol) ismlari ham ularga xos ijobiy hislatlar, xotin-qizlarni ulug'lovchi hayo, hurmat, mehrni anglatadi. Qallob, laganbardor, nafs bandasi mirob O'rinning esa Jaga deyilishida uni salbiy hislati nazarda tutilgan.

Muhimi shundaki, obraz nomi muallifda ham, kitobxonda ham yo xayrxohlik yoki nafrat tuyg'usini uyg'otadi va bu xislatlar asardagi voqealar, obrazlar xatti-harakatida ochila boradi. Bunda kesatiq, kinoya kabi uslubiy unsurlar ko'l keladi, ba'zan obrazlar kishilar nomi bilan emas, balki ularga xos yetakchi sifatlar bilan bir yoki ikki so'zdan iborat shaklda beriladi. Masalan "pakananing oshiq ko'ngli" qissasi qahramoni pakana deb yuritilgan. "Shoirning to'yi" qissasida personajlar 1) "Otashqalb shoir" 2) "Oqsoqol shoir", 3) "Musofir muxlis", 4) "Ajoyib domla", 5) "Yosh shoir" nomlari bilan atalgan. Bu o'rinda adib shu nomlar bilan ularni har biriga munosabatini bildirgan. Bu munosabat 1, 3-va 5- obrazlarga nisbatan ijobiy, 2-va 4- obrazlarga nisbatan salbiydir.

Butun bir asar kesatiq va qochirimli ohangda yozilgani sababli adib shunday yo'l tutadi. Uquvchi asarni o'qish davomida "Otashqalb shoir" ni

jabrdiyyda qatog'on qurboni ekanini, "Oqsoqol shoir" uni hasadgo'y "do'sti" bo'lganini, "Musofir muxlis" chinakam insoniyligini, "Ajoyib domla" safsataboz, chalasavod, laganbardor, "Yosh shoir" esa haqiqatgo'y, shijoatli jonkuyar ziyoli ekanini anglab oladi va bu xususiyatlar o'sha nomlar zamirida mujassamlashganini tushunadi. Shuningdek, asardagi eng salbiy obrazlardan birini "Masturaxonim" deyilishida ham katta kinoyaviy, hatto fosh etuvchi ma'no bor. Sho'ro davridagi ideologik mahkama darg'alaridan bo'lgan bu ayolning nom-yu asardagi talqinida o'sha zamon mafkurasi tufayli sofdil ijodkorlarning badnom etilgani yorqin aks etadi.

E.A'zamning "Guli-guli" qissasida turli davr, yosh hamda kasb-hunarga mansub kishilarning obrazlari yaratilgan. Ularning ism-shariflarida adibning har bir personajga mos nom olish mahoratini yangi qirralari ochiladi. Ularni shartli ravishda quyidagicha guruhlash mumkin.

1) Tashqi qiyofasiga asoslanuvchi nomlar:

Mo'min kal, Rayma bitiki, O'rmon kalta, Rajab kora, Ma'mura gajak, Sayfi pason.

2) Xarakteri va eldagi laqabiga ko'ra berilgan nomlar:

Maymun, Vahiy, To'ti Qatiya, Soli baqiroq, Ahmad mahsum, Olma kelin, Musallam kokildor.

3) Hunari va ijtimoiy faoliyatiga mos atalgan nomlar:

4) Ismoil telpakdo'z, Sho'ro bobo, Sayfiddin kulol, Beg'am kabobboz.

Ushbu nomlarni "Shoirning to'yi" qissasidagi nomlar bilan qiyoslashda quyidagi holatni ko'ramiz. Birinchi qissada aniq so'z emas, balki obraz sifat belgisi - "otash", "oqsoqol", "musofir", "ajoyib", "yosh" aniqlovchilari qo'llanilgan. Ikkinchi qissada esa personajlar soni ancha ko'payib ular aniq so'zlardagi ismlar bo'lib, sifatli belgi so'z oxirida berilgan: "kal", "kalta", "bitiki", "kora", "gajak", "pason" va boshqalar.

Adabiyotshunos Sh.Rizayev adibning personajlar ismlaridagi nomlar bilan to'yintirilgan majoz-ishoralarga e'tibor berib, ularni "Farishta" qissasidagi qiz, Jonibek, Oytuman obrazlari misolida ko'rsatib shunday yozadi.: "Qiz - Pari",

“Pariqishloqdan chiqqan”, “Nafasingdan uchib ketadigan”, “ajinako‘z”, faqat taxtiravonda o‘tiradigan, farishtamisol sirli malak. Jonibek muolaja bilan dardman-u hasratlarga da‘vo – jon bag‘ishlovchi, ammo o‘z joniga, taqdiriga “bek” bo‘lmagan yigit. Oytuman – nim qorong‘u javonlar orasidan chiqib keladigan “Ham oy, ham tuman”, “ham nozu ado, ham girdi balo” qayliq”¹.

Ko‘rinadiki, adibning personajlarga nom qo‘llashdagi o‘ziga xosligi asarning mazmun mohiyati, so‘z boyligi va obrazlar yaratish imkoniyatlaridan foydalanish darajasiga bog‘liq.

Personajlarni nomlashning usullaridan biri qo‘shaloqlashtirish usulidir. Bunda har bir obraz ikki so‘z bilan atalib, ular “yoki” teng bog‘lovchisi yordamida bosh harflar bilan yoziladi va atoqli ot sanaladi. Bu usulning yorqin namunasi “Jannat o‘zi qaydadir yoki jiydalidan chiqqan Jo‘raqul” dramatik asaridagi asosiy obrazlar nomidir. Ular quyidagicha ataladi:

- 1) Domla yoki Ustoz
- 2) Xonim yoki Yangamulla
- 3) Tursuniy yoki shogird
- 4) Raxmatullox Jiydaliy yoki Boyota
- 5) Klara yoki Komilaxon
- 6) Melis yoki Melivoy
- 7) Asalxola yoki Amashka
- 8) Oqkaptar yoki operachi qiz²

Ushbu ro‘yxatdagi nomlar tub yoki tuqima ismlar bo‘lib aralash berilgan. Shunga ko‘ra ularni ikki guruhga ajratish mumkin.

- 1) Asl ismi aytilmay, adib o‘ylab topgan nomlar (1,2,7,8 raqamlardagilar)
- 2) Ham asl ismi ham laqabi sifatida qo‘llaniladigan nomlar (3,4,5,6 raqamlardagilar).

¹ Ризаев Ш. Паризодга айланган фаришта// Ўзбекистон адабиёти ва санъати.2012.7 сентябр, №36.

² Аъзам. Э. Жаннат ўзи кайдадир. Тошкент: Шарқ, 2007. Б. 148.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, bu nomlar mag'zida achinish, kinoya, fosh qilish, istehzo kabi ma'nolar yashiringan bo'lib, har bir obrazning mohiyatini ifodalaydi, ba'zan ular aralash holda ham qo'llaniladi.

Asar qahramoni Jo'raqulning Domla deb atalishida uni sobiq markschi olim ekani, yangicha voqelikka moslasha olmasligiga urg'u beriladi va unda achinish tuyg'usi ustuvordir. Uning xotinining ismi Ro'za Xasanovna bo'lsa ham xonim va yanga mulla deyilishi tasodifiy emas. Ayollarga nisbatan "Xonim" so'zi hurmat emas, bu o'rinda kinoyani bildiradi. Chunki, u "oyoq chiqargan tijoratchi, amerikadagi jannatga", pulga o'ch ayol. Yangamulla esa uning mag'zi puch aqidalariga ishonuvchi shaxsligiga ishora bo'lib, kuchli kesatiq va xudbinligini fosh qilishni anglatadi. "Qirq yillik" aspirant Tursuniyni Shogirdi, amerikalik o'zbekni boy ota nomlari bilan atalishida ham jiddiy istehzo bor. Biri sohta yo'l bilan olimlikka intilsa, ikkinchisi shaxsiy g'araz va tovlamachilikni tanlagan nusxadir. Klara, Ok kaptar, Melis obrazlari talqinida hozirgi yoshlar xarakteridagi turli jihatlar tasvirlanadi.

Tadqiqotchi Sh.Doniyorova E.A'zamning so'z tanlash va so'z yasashning yangi, ta'sirli ko'rinishlari haqida quyidagilarni yozadi: "Yaxshisi ishni cho'zmabozor qilib yurmay kelishib qo'yaqolishlari ma'qul" gapidagi "cho'zmador" so'zi orqali mubolag'ali yangi qo'shma so'z hosil qilgan bo'lsa, "Sening kasbing, sening qiyofang shu – "muallaqbozlik" gapida iste'molda mavjud bo'lgan "muallaqlik" so'ziga shaxsning kasb yoki mashg'ulot bilan bog'liq ot yasovchi "boz" qo'shimchasini qo'shish orqali yangi, ayni paytda, ta'sirli so'z hosil qila olgan¹.

Bunday xususiyat adib asarlarida ko'plab uchraydi. Masalan, "Otoyining tug'ilgan yili" qissasi qahramoni Asqarning "O'tkan-ketganga gap otib o'tirgan bezoribashara bolalarga qo'shildim" va "tanaffus payti yo'lakda shokoladrang teri haqida bahslashdi" gaplaridagi "bezoribashara", "shokoladrang teri" so'z birikmalari shunday yo'l bilan yasalgan va muayyan badiiy funktsiya tashiydigan qo'shma so'zlardir.

¹ Давронова Ш. Адабий жараён ва ёзувчининг ижодий индивидуаллиги. -Тошкент. 2004.Б.19.

Shuningdek, muallif asarlarida ularning jozibadorligi va ohangdorligini kuchaytirish maqsadida muayyan gap yoki misrada bir tovush va soʻzning qatorlashib kelib, jarangdorlik hosil qilish hodisasi – alliteratsiya, yaʼni lafsiy sanʼati namunalari ham uchraydi. Quyidagi misollar shulardan ayrim namunalardir.

- 1) Jannat oʻzi qaydadir yoki Jiydalidan chiqqan Joʻraqul(qissa nomi);
- 2) Mirzo Boburning koʻk koʻz onasi – kinokelin (“Shovqin” romanidan);
- 3) Benavo, baxtiqaro bir banda ekan oʻzi (“Farishta” qissasidan);
- 4) Oʻzi pak-pakana, ammo shasht-u shiddati baland (“Guli-guli”qissasidan);
- 5) Koʻz-koʻz qilmang koʻz tegar (minatyuralardan)

Koʻrinadiki misollarning birinchisida “j” tovushi , ikkinchisida “k” tovushi toʻrt, uchinchisida “b” tovushi toʻrt, toʻrtinchisida “k” tovushi ikki, “sh” tovushi ikki marta takrori esa bir soʻzning turli maʼno jilolarini aks ettirgan.

I.3. Obraz yaratishda badiiy tildan foydalanish

Maʼlumki, badiiy til unsurlari asarning barcha komponentlarida muayyan darajada ishtirok etadi va badiiy gʻoya, muallif maqsadini ifodalashga xizmat qiladi. Bu jarayonda asosiy eʼtibor badiiy obrazga qaratiladi. Chunki obraz va obrazlilik adabiyotning tub xususiyatidir. Badiiy ijoddagi obraz – bu individual shakl orqali hayotiy hodisalarni, kishilarni umumlashtirish, inson hayotini ayni paytda konkretlashtirishdir. Shu bois obrazda individual va umumlashma xususiyatlari mujassamlashadi. Badiiy obraz yaratishda til vositalarining oʻrni nihoyatda muhimdir. Chunki adib til orqali obraz va manzaralar yaratar ekan, ularning mohiyatini ochib beruvchi soʻz va iboralar tanlaydi, soʻzlarning tub va koʻchma maʼnolaridan, xalq tilining boy imkoniyatlaridan foydalanadi.

Badiiy asar tilining hissiy(emotsionalligi) va taʼsirchanligi obrazga koʻchar ekan, u oʻquvchiga taʼsir qiladi, uning maʼnaviyati va fikr olamini boyitadi. Bu xususiyat, tabiiyki, asar mavzusi, janri, avtor dunyoqarashi, ifoda uslubi, tasvir

mahorati kabi omillarga bog‘liq. Bu jihatga atoqli olim G‘.Karimov 70-yillardayoq alohida e‘tibor berib, romanlar misolida til va uslub munosabati haqida shunday yozgan edi: “Roman temasi yaqin o‘tmishdan olingan bo‘lsa, u holda roman hozirgi zamon adabiy tilida yozilishi, personajlar ham hozirgi zamon tilida so‘zlashishi mumkin. Agar roman uzoq o‘tmishdan olingan bo‘lsa, personajlar o‘sha zamon tilida so‘zlashishlari shart, aks holda tarixiy kolorit buziladi”¹. Obraz yaratish va uning nutqi masalasi asar milliy koloritining muhim sharti ekanini ta’kidlovchi ushbu fikrlar hozirgi o‘zbek adiblari ijodida to‘la namoyon bo‘lmoqda. Taniqli adib Sh.Xolmirzaev o‘zining asar tiliga munosabati xususida aytgan edi: “Biz bitta adabiy tilni qabul qilganmiz. Men o‘zim yozganimda hamma vaqt aftor tilidan sof andijoncha yozishga harakat qilaman. Ammo qahramonlarim o‘z-o‘zicha. Lekin, adabiy tilga hech narsani tiqishtirishni yoqtirmaganimdek, badiiy asar tilini ham buzishni xohlamayman”².

Ko‘rinadiki, obraz yaratishda til unsurlaridan foydalanish ayniqsa obraz shakllangan davr (muhit) bilan obraz nutqining mutanosibligi juda muhimdir. Ikkinchidan, oborazning umumlashma xarakteri asarning mazmunida aks etsa, uning individualligi badiiy til vositalarida yaratilgan betakrorligi, boshqalarga o‘hshamasligida ko‘rinadi. Binobarin, individuallashtirish tasvirlanayotgan davr kishilariga xos turli xislatlarning o‘quvchi his-tuyg‘ulariga kuchli ta’sir etishiga imkon tug‘diradi.

Obraz yaratishning ushbu umumiy xususiyatlari E.A’zam asarlarida o‘z ifodasini topgan. Ma’lumki, adib asarlaridagi obrazlar yoshi, jinsi, qiyofasi, kasb-kori, xarakteri jihatidan rang-barang. Yozuvchi ularning har biriga xos asosiy xususiyatlarni aniqlab, ularning asar g‘oyaviy mazmunini ifodalashga bo‘ysundiradi, har biridagi o‘ziga xos jihatlarni ular yashayotgan davr ruhiga bog‘liq holda tasvirlaydi. Bunda badiiy tilning peyzaj, badiiy tasvir, hikmatlar, dialog-monolog, majoz, kinoya, maxsus leksik resurslar va boshqa unsurlarini qo‘llaydi.

¹ Каримов Г. Прозамизда тарихий тематика// Шарқ юлдузи. 1979. №3. Б.194-209.

² Дониёрова Ш. Ш. Холмирзаев ҳикояларининг бадий -услубий ўзига хослиги. НДА.2000. Б.18.

Adib obraz yaratishni ko'pincha personaj portretini gavdalantirishdan boshlaydi. Bunda obraz muhiti va tashqi qiyofasining asosiy jihatlariga urg'u beradi. Masalan, "Suv yoqalab" qissasining bosh qahramoni Bolta Mardon haqidagi ilk talqin shunday boshlanadi: "Saratoning oxirlari. Sahar chog'i. O'ng qanotda saf tortgan oldi ochiq oshxona, ombor, somonxona-yu sayisxonalar tarafdin tosh terilgan yo'lka bo'ylab oltmish besh yoshlardagi devqomat, vajohatli bir odam kelmoqda. Yelkasida uzun oq yaktak, qo'lida mis obdasta – xilvatda tahorat olib qaytmoqda. U qo'lidagi obdastani ishkombostidagi supa chekkasiga qo'yib, sement zinapoyadan to'rdagi uyga kirib ketdi"¹. Bu parchada voqeaning o'rni va qahramon haqidagi dastlabki ma'lumot ta'sirli tasvirlangan. Chiziqcha bilan ta'kidlangan tayanch so'zlarda qahramonga xos individual belgilarning ayrimlari aytilgan bo'lsa ham kitobxonda unga nisbatan qiziqish uyg'onadi. Bu qiziqishni "bir odatiy" iborasi yanada kuchaytiradi. Shu sabab muallif uning Bolta Mardon ekanini atayin keyinroq ma'lum qiladi. Parchadan keyingi voqealardan o'quvchi o'sha "bir odam"ga xos batafsil javob topadi va uning hayot yo'li, sarguzashtlari bilan tanishadi.

Bolta Mardon – fidoyi inson timsoli, kolxozning sobiq raisi, hozir "davri o'tgan" bo'lsa ham, el g'amida harakat qilmoqda: hamqishloqlarining chanqoq tomorqalariga suv keltirishga ahd qiladi, shu yo'lda yaxshi-yomonlarga yo'liqadi, umuman eldoshlariga, farzandlariga mehribon oqsoqol, donishmand. Adibning mahorati shundaki, bosh qahramon boshidan kechirgan turli-tuman voqealarda uning xarakter tadrijini ishonarli va ta'sirli ifodalaydi. Bunda, tabiiyki, til imkoniyatlarini, har bir so'zni obraz harakatiga muvofiq qo'llay oladi. Bu o'rinda Bolta Mardon hayotining so'nggi pallasi – o'limi bilan bog'liq lavha tasviri bilan cheklanamiz. Elni suvga serob qilish orzusi armon bo'lib qolgan qahramonning umri poyoniga yetish lavhasida muallif so'zning ruhiy-psixologik tasvir imkoniyatlaridan keng foydalanadi va odatdagiday o'limni oh-voh voqeasi bilan ko'rsatishdan qochadi. U yozadi: "U tag'in daraxt oralashga tushadi. Tevarak qorong'ilasha boshlagan. Qorong'ida bog' kezib yurgan odam nogohon munkayib

¹ Аъзам Э. Сув ёкалаб// Жаннат ўзи қайдадир.-Тошкент. 2007. Б. 57.

ketadi-yu bir daraxtni quchoqlab oladi. U daraxt tanasi bo'ylab sirg'ala-sirg'ala yerga o'tirib qoladi. So'ng sekin orqaga ketib, yerga chalqancha cho'ziladi. Muallaq qolgan qo'llar bir zum titrab turgandek bo'ladi-da, sholop etib ikki yonga tushadi. Daraxt barglarini shitirlatib, yomg'ir shivalay boshlaydi"(92-93-betlar).

Bu muxtasar parchada til badiiyatining bir necha ko'rinishlari o'z ifodasini topgan:

1) Fojea manzarasi uchun muallif shunday so'zlarni tanlaydiki, ulardan birini o'zgartirish yoxud almashtirish tasvir tabiiyligiga putur yetkazgan bo'lardi.

2) Gap kim haqida borayotgani matn mazmunidan anglashilgani sababli adib qahramon nomini takrorlamaydi va uslubiy g'alizlikka yo'l qo'ymaydi, balki "u"(ikki marta), "odam" so'zlari kitobxonga Bolta Mardon ekanini eslatib turadi

3) Parchada so'zlarning majoziy ma'nolaridan o'rinli foydalanilgan. Jumladan, qorong'ilik - yaqinlashayotgan o'limning, daraxt – mavjud hayotning, muallaqlik – umr adog'ining ramzi bo'lsa, barglarning shivirlashi va yomg'ir yog'ishi esa shu daqiqadagi dahshatga ishora belgilaridir. Umuman, "yomg'ir" obrazi E.A'zam asarlarida salbiy ma'noda qo'llaniladi.

Adib obraz yaratishda ularning individual xususiyatlarini voqealar oqimida yoxud ularga tavsif (xarakteristika) beradi.

Muhimi shundaki, muallif har bir obrazni xarakterlovchi asosiy belgini to'g'ri aniqlaydi va unga mos so'z yoki ibora topa oladi, uni ko'pincha qabartib, bo'rttirib ko'rsatadi va alohida ta'kidlaydi. Ushbu qissada bu jihatdan salbiy obrazlarning tasviri xarakterlidir. Quyidagi parchada shunday obrazlarning har biri uchun tub xususiyat asar so'ngida muxtasar tarzda aks etadiki, bu hol ularning kitobxon tasavvurida chuqurroq saqlanishiga imkon beradi: "Kechagi kundagi tanish-notanish ko'pchilik shu safda: ana-mahmadona ta'ziyagir o'g'il; ana – otasi bemor yotgan "suv o'g'risi", ana-bir soat ichida tug'ilgan Hasan bilan Husan, ana-birovlarga o'lim tilaydigan badnafs Bozor sariq; ana-gurungga ishqiboz chol, bekorchi tanbal Jumaqul, rashkchi xotinidan dakki yegan er...O'rin Jaga..mo'ylovsiz. U dam-badam yengi bilan ko'z yoshlarini artib qo'yadi"(94-bet).

Umumlashma xarakteridagi bu parchada ta'kidlangan so'zlar har bir obrazga xos asosiy belgini eslatish bilan ular mohiyatini yanada konkretlashtiradi va tuzohlaydi. Shuningdek, obrazlar tavsifining "ana" ko'rsatish olmoshi bilan boshlanib, besh o'rinda takror kelishi ham tasodifiy bo'lmay, u stilistik(uslubiy) vazifa bajaradi, kitobxon diqqatini obrazga xavola qiladi, shu bois uning takrori ortiqcha yoxud g'aliz tuyulmaydi.

Adibning badiiy obraz yaratishda so'zdan foydalanishdagi mahorati, har bir personajga mos iboralarni topa olishi "Chapdast" sarlavhali muxtasar hikoyasida yanada yorqin ko'rinadi. Hikoya aniq hayotiy voqeaga, qisman hazil aralash oilaviy munosabatga, er-xotin va farzandlar muloqatiga bag'ishlangan. Urushdan o'ting qo'lsiz qaytgan Salom tog'ani jangda o'qqa uchgan akasining xotini, ya'ni yangasiga uylantiradilar. U el qatori o'g'il-qizli bo'ladi, qo'sha-qo'sha nevara ko'radi. Birgina chap qo'li bilan ro'zg'or-u xonadonni eldan ziyod qilib qo'yadi. Yozuvchi Salom chapdastning oilaparvar, tadbirkorlik xislatlarini uning oshpazlik, holvapazlik hunarlari bilan bog'liq holda tasvirlab, "mohir-u mirishkor" so'zida umumlashtiradi.

Bu maqtoqli chapdastning ko'ngil olamidagi kutilmagan bir niyat uning murakkab xarakteridagi yangi jihatlarni ochib yuboradi. U shuncha yil birga yashagan kampirini "boybicha" (Surxondaryo shevasi) deb erkalar ekan, uning bir vaqtlar ermak uchun aytgan "Sizni uylantirmoqqa uylantirarman. Dunyoga kelib, siz ham axir bunday ko'rib keting-da"degan gapini eslab "Bizni endi bi-ir uylantirib qo'ysangiz", deydi. ("Bi-ir" so'zining ikki "i" bilan cho'zib aytilishi ham bekor emas).

Erning bu qaltis gapiga hayron bo'lgan Mayram yanga hazilga yo'yar ekan, istehzo bilan "Xo'p, kimni olib berayli, ayting", deydi ermakka. Guloyni, deydi chol. (Guloy Mayram yanganing jiyani, ko'zi tug'ma ojiz, qirq yoshni qoralagan). Buni eshitgan kampir tutoqib ketadi:

-Sharm emasmi, Oftob opamni qizi-ya u?!

-Shunisi yaxshida kampir, har holda o'zingniki. Devor ag'anasa, ichkariga ag'anasin.

-Ko'r-ku u, - deydi alamidani yonib yanga.

-Mana mening ko'zim ochiq – bir ro'zg'orga yetib ortadi shu”.

Ushbu qissa muloqot, birinchidan voqea rivojini ilk nuqtasi, konfliktning turtkisi bo'lsa, ikkinchidan er-xotin obrazlarning har biriga xos ruhiy-psixologik holatni ularning so'zlari orqali ifodalashi jihatdan diqqatni tortadi. Jumladan, kampirdagi vazminlik, choldagi qat'iyat ularni savol-javobida yorqin aks etadi.

Obrazlarni individuallashtirishdagi o'ziga xoslik hikoyadagi boshqa personajlar – chol va kampirning farzandlari talqinida yana ham ta'sirchan tasvirlangan. Otaning nojo'ya, yoshiga yarashmagan niyatidan habar topgan o'g'il-qizlarini unga munosabatida har biriga xos monand so'zlar topib o'rinli ishlatiladi va original obrazlar yaratiladi.

G'azablangan to'ng'ich qizning onasiga aytgan gaplarini eshiting:

“- Siz ham o'ling, otam ham o'lsin! He, sharmandalar! Hoziroq borib o'sha oq quva qanjiqning ko'r ko'zlarini o'ymasam...G'unajin o'lguringiz ko'zini suzgan-da!”.

Ko'rinadiki, bu qisqa, lekin keskin mulohazada ota-onasining nomunosib harakatidan nomus qilgan, ularni qat'iy qoralagan (otasining chalg'ishida onasining ham aybdorligini his qilgan holda) murosasiz qizning yuksak ma'naviyati gavdalanadi. U ota-onasiga nisbatan “sharmandalar”, “o'ling” kabi to'zbek farzandlari tilidan haqorat darajasidagi so'zlarni qo'llash bilan inson shanini har narsadan ustun ekanini ta'kidlaydi. Shuningdek, matndagi “qanjiq”, “g'unajin” so'zlari qizning Guloyga nisbatan nafratining ifodasi bo'lib, birinchi so'zda o'xshatish, ikkinchi so'zda xalqona ifodaning (“G'unajin ko'zini suzmaguncha.....ipini uzmaydi”) qo'llanishi hikoyaning ta'sir kuchini oshirgan.

Hikoyadagi to'ng'ich o'g'il obrazi talqinida boshqacha holatni ko'ramiz. “Sho'xroq fe'li otasiga tortgan” bu o'g'il oiladagi mojaroni murosa yo'li bilan hal qilish tarafdori. Shu bois uning fikrida, garchi otasining harakatini quvvatlamasa ham keskinlik emas, tinch ohang ustuvor. Mana uning so'zlari: “Keling, ena, siz gap deng. He, boboyning bir ko'ngli istibdi-da, mayli. Bir-ikki kun menikida

bo'lib turasiz. Bir ko'r-u bir qari cho'loqning tomoshasi borsa, bir haftaga borar! Keyin chol tag'in o'zimizniki, ota o'zimizniki! Guloy bechora ham begona emas".

Bu parchada diqqatga loyiq bir jihat mavjud. O'g'il otasini oshkora yoqlayotganday tuyulsa ham, aslida uning dilida padariga qisman g'azab ham bor. Buni "ota" so'zining turli ma'nolarda vaziyatga ko'ra har xil nomlar bilan atalishida ko'rish mumkin. Masalan, "boboy" deganida kesatiq ohangi, "qari cho'loq" so'zida qoralash, "chol" so'zida rahmdillik hissi, nihoyat "ota" deganida uni kechirib, padar sifatida yana e'tirof etishi ma'nolarini uqish mumkin.

Ayni choqda o'g'ilning onasini murosaga undashi, begunoh Guloyga nisbatan bechora, begona emas so'zlarini qo'llashi obraz xarakteridagi bag'rikenglikni kuchaytiradi.

Adib mahoratining yangi bir qirrasi yana bir qizning ushbu muammoga munosabatida ko'rinadi, ya'ni bu munosabatni adib batafsil keltirmaydi, chunki u ham opa va akasining so'zlarini qisman takrorlashi, bu esa asar badiiyligini biroz bo'shashtirgan bo'lardi. Ammo, quyidagi qisqa ma'lumot ham qizning bu masalaga qarashini anglash uchun yetarlidir: "Hayriyatki, yana bir qiz kelmadi. Uzoqroqqa tushgan u. Hali eshitmabdi, shekilli. Eshitsa, kelsa – ana keyin ko'rasiz tomoshani!".

Bu o'rinda asosiy ijtimoiy-badiiy ma'no "tomosha" so'ziga yuklangan. Bu so'z majoziy qo'llanilib, "katta janjal", "to'polon" ma'nolarini anglatmoqda. Ikkinchidan, shu birgina so'z kenja qizning o'ta murosasiz, shaddot xarakterini to'la ifodalay olgan.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, adib "tomosha" so'zining yana bir ma'nosini (to'ng'ich o'g'il so'zida) "sharmandalik", "elga kulgu bo'lish" ma'nosini ham o'rnida qo'llay olgan.

Adibning so'z va iboralarni shakliy va ma'noviy jilolarini qo'llashdagi mohirligini voqea bayoni va u bilan bog'liq obrazlar tasvirida ham kuzatish mumkin. Bu hol epizodik personajlarga ham dahldor. Chunonchi, Salom chapdastning niyati amalga oshmagach, Guloyga sovchilar kelganligi voqegasiga aloqador yigit obrazi paydo bo'ladi va qiz unga fotiha qilinadi. Yozuvchi kuyov

haqida muxtasar ma'lumot berib, "nihoyat, issiq-sovuq marakalarda choy tashib yuradigan pachoqdan-pachoq, telbanamo bir kimsaga fotiha qilib yuboriladi Guloy", deb yozadi. Bu qisqa fikrda o'sha kimsaning qiyofasi ham, xarakteri ham namoyondir. Ta'kidlangan so'zlardagi tub va majoziy ma'nolar bunga imkon beradi. Jumladan, issiq-sovuq marakalar birikmasida, birinchi so'z to'y-bayram, umuman tantanalarni, ikkinchi so'z esa motam-qayg'u marosimlari ma'nosini anglatadi. "Pachoqdan pachoq" iborasi va kuyovning nomsiz "kimsa" deyilishi ham notavonligiga ishoradir.

Hikoyadagi voqea davomida Salom chapdast turli vaziyat, sharoitda murakkab obraz sifatida tasvirlanadi. Bu xususiyat uning ijobiy va salbiy xislatlariga ko'ra muallif va boshqa personajlar tomonidan turlicha baholanishi, ta'riflanishiga sabab bo'ladi. Buni quyidagicha ko'rsatish mumkin:

- 1) Muallif ta'rifi: mirishkor, shu odam, alomat oshiq.
- 2) Mayram yanga ta'rifi: esini yegan chol, to'ram.
- 3) Farzandlari ta'rifi: ota, boboy, chol, qari cho'loq, sharmanda

Hikoya obrazlarini yaratishdagi muallif o'ziga xosligi til badiiyati, milliylik, epik an'analarga ijodiy yondashuv kabi omillar natijasidir. Adib asarda surxon shevasiga xos "tanda", "boybicha", "ibi", "oqquva", "gishava", "gangurs" kabi mahalliy so'z va iboralarni ham ustalik bilan qo'llay olgan.

E.A'zam asarlarida obrazlar dunyosi nihoyatda keng. Unda yoshlar ham, qariyalar, qiz-u juvonlar ham bor. Ular turli xarakter, saviya vakillari sifatida bir-biriga o'xshamaydi. Bu esa adibdan har bir obrazni yaratishda tilning tasvir yo'nalishi, ifoda vositalari, xarakteristika va boshqa unsurlaridan o'rinli foydalanishni taqozo etadi. to'g'ri, adib asarlarining muayyan qismi sho'ro davri, bir qismi esa bugungi davr kishilaridir. Shu bois ularni individuallashtirish va umumlashtirishda bu jihatlar hisobga olingan holda personajlar dunyoqarashi, turmush tarzi, umuman xarakterining muayyan davr va mafkura ko'rsatgan ta'sir ham e'tibordan chetda qolmaydi. Xususan, qissalardagi faol va passiv, epchil va boqimanda, abjir va notavon personajlar sarguzashtlari talqinida bu hol yorqindir.

Jumladan, bunga “Javob” va “Bayramdan boshqa kunlar” qissalari obrazlaridagi turfalik misoldir.

“Javob” qissasining bosh qahramoni Elchiyev oddiy xodim, hayoti ham oddiy. Uning atrofdagilar bilan, atrofdagilarning u bilan ishlari yo’q. Xolis xizmatga tayyor. Barchadan qanoatlanadi. Agar bir hodisa ro’y bermaganida, hayot tarzi shunday davom etaverar edi. Uni ayovsiz kaltaklab ketishdi. Keyin esa da’vosidan qaytishga majbur qilishdi. Natijada qayta haqoratlangan Elchiyev o’z joniga qasd qildi.

Elchiyevni o’g’li tengi yigitlar kaltakladi. Bunda uni ba’zilar aybladilar, ba’zilar hamdardlik bildirib, achindilar. Fikrimizning dalili sifatida turli sharoitda, turli toifadagi odamlar tomonidan aytilgan fikrlarni keltiramiz. Mana ayblanganlarning so’zlari: “O’zining kayfi taraq ekan..”, “O’zidan o’tgan, zamonning zaylidan xabardor odam, besh tiyinning betiga borib, o’sha bezorilar bilan pachakilashib o’tirmasa bo’lardi, besh tiyin nima, qayerlarda tushib qolmaydi? Qurumsoq ekan”.

Mana achinganlarning so’zlari: “Sho’rlik tamomi joyi qorayib ketgan, boshlari yorilgan, ko’z dabdala, tishlar singan...”, “Otish kerak bunaqalarni, otib tashlash kerak”.

Bu personajlar o’zlari harakat qilayotgan muhit odamlaridir. Bu odamlarni ham o’sha muhit yaratgan. Beparvolik, “Sen menga tegma, men senga” qabilida ish tutish kayfiyati yaratgan. Elchiyev ham o’sha muhit ostida shu toifadagi odamlarga moslashgan edi. Undagi passivlik, ko’nikuvchanlik qayerdan paydo bo’ldi? Unga salbiy ta’sir ko’rsatgan muhit nimadan iborat? E.A’zam qahramonlari ruhiyatidagi ilk o’zgarishlarni ko’rsatish bilan bu savollarga javob beradi. “Javob” qissasida muallif atrof-muhitning bosh qahramonga ta’sir etish jarayonini tasvirlashda o’ziga xos yo’ldan boradi. Elchiyevga madhiyabozlik emas, aksincha kimnidir ulug’lash bilan uni kamsitish ta’sir etdi. Bilamizki, Elchiyev tabiatan beozor, ko’ngli bo’sh, kamtar odam. Boshqalariga nisbatan aynan shu xususiyatlarning kuchliligi uning ustidan hukmronlik qilishlariga sharoit yaratib beradi. Nimaiki yumush bo’lsa Elchiyev qiladi. Bu ishlarni u birovning gapi bilan

emas, o'zidan bilib qiladi. Mana yozuvchining so'zlari: "Elchiyev qilishi kerak, chunki u Elchiyev! O'zi ham bunga ko'nikib ketgan, ba'zida dili og'riydi-yu, ammo kimsaga sezdirmaydi: mayli xafa bo'lishmasin, men qilsam nima qipti, biror joyim kamayib qoladimi".

Elchiyevning bu xususiyatlari zamirida xarakteridagi ko'nglibo'shlik, kamtarinlik yotadi. Undagi bu xususiyatlar o'rnini bora-bora atrof-muhit ta'siri ostida beparvolik, ko'nikuvchanlik egallaydi. Uning H.Samadovich bilan bo'lgan munosabatlarida bu yaqqol ochiladi.

H.Samadovich uning yoshlikdagi og'aynisi. Bugun H.Samadovich amaldor. Yillar o'tib ham Elchiyev o'sha yoshlikdagi soddalik, kamtarligini saqlab qoldi. Haydar esa o'zgardi. U haqda yozuvchi bunday yozadi: "Sabrni bilmaydi, hech narsadan hayiqmadi, hazar qilmadi – dadil bosib zinalarni zabt eta ketdi. Ketdi. Ko'zlagan manziliga yetgach, ucha boshladi".

Yozuvchi Haydarning zinalarni zabt eta borishi bilan Elchiyev uning nazarida shu qadar pastlashib borayotganini ta'kidlab boradi. H.Samadovich yuqoridan turib muomala eta borgani sari, Elchiyev unga pastdan turib muomala qilishga ko'nika boshladi. Buni dalillovchi bir qator detallar tafsilotini keltirishdan ko'ra, Elchiyevning xayolan unga qilgan murojaatini keltiramiz. Mana o'sha murojaat: "Asta-sekin munosabatlarimiz boshqacha tus ola boshladi. Avvallari menga achinib yurding, keyinchalik... endi, hozir ichingda ahvolimdan kulsang kerak – bilaman, sezaman-da! Ilgari men sen uchun "Jo'rajon, Nuriddin jo'ra!" edim, keyinchalik esa "Ha, Nuriddinboy!" deya akalik qilmoqqa o'tding, ko'rgan joyingda nasihatga tusharding, bora-bora quruq rasmiyona bir tarzda "Elchiyev" deb ataydigan bo'lding, endi esa yarim hazil, yarim chin, bepisand, istehzo aralish – "Elchiyevich...". Asta-sekin hammasiga ko'ndim, ko'nikdim. Nima ham deya olardim – endi sen "H.Samadovich" san-da!".

Ko'nikuvchanlik, shukur qilib yashash xususiyatining Elchiyev ruhiyatida mustahkam o'rnashib olganligining dalili sifatida, yozuvchi qaynotasining sirli qo'li bilan ko'tarilish imkoniyati paydo bo'lganligi haqidagi shtrixni beradi:

Shuncha yildan beri hammaning e'tiboridan chetda bo'lib kelgan Elchiyevni, yuqori lavozimga taklif qilishdi. Bu haqda orzu ham qilmagan Elchiyevni vahm bosdi. Ma'lum bo'lishicha, bu qaynotasining tashabbusi ekan. U rozi bo'lmadi. Bu yaxshilik tufayli qaynotasidan bir umr ta'na eshitishdan qo'rqdi. Yangi, unga noma'lum bo'lgan hayotga qadam qo'yishdan qo'rqdi. Chunki u o'zining osoyishta, "sen menga tegma, men senga" qabilidagi hayotiga juda ko'nikkan, uni o'zgartirishni istamasdi ham, Elchiyev hayotini shu tarzda davom ettiraverishi mumkin edi, ammo bezorilarga uchrab kaltaklanishi va shu orqali unga bo'lgan zarbalar Elchiyevni uyg'otganday bo'ldi. Atrof-muhitga jiddiyroq nazar tashlab, hayotdagi o'z o'rnini anglay boshladi. Yozuvchi buni quyidagicha ifodalaydi: "... kattaroq biror ishga bel boylagani jur'ati yetmabdi, ikkilanibdi, hadiksirabdi. Boriga shukur qilib, qanoat qilib yuraveribdi. Intilmabdi!...Aslida boshiga tushgan bu balolar qilmishlariga yarasha taqdirning bir jazosi – javobi emasmi?"

Bob yuzasidan kuzatishlarimiz quyidagi xulosalarga kelishga asos beradi:

- Badiiy til adabiyotning asosiy unsurlaridan biridir. U badiiy asarning barcha komponentlarida muayyan darajada aks etadi va ijodkor iste'dodini belgilaydi. Asar tili adabiyot badiiyligining mezonlaridan biri hamdir. Badiiylilik esa bezavol yangilik, asar mazmuni va shaklidagi uyg'unlikni ta'minlovchi, yuksak g'oyani ta'sirchan ifodalovchi hodisadir.

- So'z – asar tilining asosi, manbayi. U asar sarlavhasi, personajlar ismlaridan boshlab hamma qismlarida ishtirok etadi. Adib mahorati so'z tanlash va qo'llashdan boshlanadi. E.A'zam asarlarida har bir so'z muayyan maqsad, badiiy niyat ifodasi uchun o'rinli qo'llaniladi. Zero, so'z badiiy asarga ko'chishi bilan uning konkret emotsional ko'rinishlari vujudga kela boshlaydi, majoziy ma'nolari kengaya boradi. Adib ijodi bunga misoldir.

- So'z - obraz yaratish vositasi hamdir. Bu ish ko'pincha personaj portretini gavdalantirishdan boshlanadi. Har bir obrazga muvofiq so'z tanlash mahoratga bog'liq bo'lib, uning xarakteri, xatti-harakati, kishilar bilan munosabati kabi talqinlarda ana shu so'zlar mohiyati yorqin aks etishi zarur. Ishda "Suv yoqalab"

qissasi, "Chapdast" hikoyasining obrazlar tizimi, tasvir lavhalari ana shu talablarga to'la javob beradi. Xususan, ijobiy va salbiy, yumoristik-hajviy obrazlarning ichki va tashqi olamini ifodalovchi tasvirlarda har bir so'z muayyan estetik va uslubiy vazifa bajargan va muallif maqsadini, badiiy niyatini amalga oshirishga xizmat qilgan.

II BOB. ASAR TILIDA DIDAKTIK VA HAJVIY TAFAKKUR IFODASI

II.1. Aforistik ma'no qirralari

Ijodkorning so'z qo'llash mahoratining bir qismi, shuningdek, aforizm, xalqona ifoda, qanotli so'zlar, kinoya, piching va boshqalarda ko'rinadi. E.A'zam bu imkoniyatlardan har bir nasriy asarlarida va ta'limiy miniaturalarida keng foydalanadi.

Ma'lumki, har bir janr o'z tiliga, o'ziga xos vosita va imkoniyatlariga ega. Nasr hajm jihatdan keng va so'zlashuv tiligi juda yaqin bo'lganligi sababli unda maqol va aforizmlar adabiyotning boshqa janrlariga qaraganda katta o'rin tutadi. Paremiya turiga mansub janrlardan biri aforizmlar deb yuritiladi. "Aforizm" atamasi yunoncha so'zdan olingan bo'lib "hikmatli so'z" degan ma'noni anglatadi¹. Aforizm badiiy shakl bilan muayyan fikrning mantiqiy asoslanganlikda juda ham nozik uyg'unlashishi oqibatida yuzaga keladi. Tadqiqotchi Z.Toshpo'latov jahon va o'zbek aforistikasi materiallarini mavzular bo'yicha tasnif qilgan ekan, ularni olti guruhga ajratadi, har biriga xos xususiyatlarni ko'rsatib, "ular inson hayoti va faoliyatining qirralarini nisbatan to'laligi bilan qamrab oladi, aforizmlarning tematik tasnifi asosiga o'zgarmas, barqaror xususiyatlarni qo'yish zarur", deb yozadi².

Aforizm aql va go'zallik yig'indisidan iborat, faqat so'z vositasida yaratilgan nodir asar hisoblanadi. Aforizmida fikr salmog'i va badiiy aql uyg'un va mutanosib bo'lishi lozim. Ularda haqiqatga olib boruvchi chuqur fikr, katta umumlashtiruvchilik xususiyati; qisqa va lo'ndaligi; fikriy tugallik hamda fikriy izchillik bo'lishi lozim. Aforizmlardagi mana shu xususiyatlar juda qadim zamonlardan ushbu janrga ko'plab alloma va so'z ustalarini, siyosiy arboblarni murojaat etishga undagan.

Aforizm janri yaratilishiga ko'ra ikki guruhga bo'linadi. Birinchi guruhga u yoki bu ijodkorlar tomonidan mustaqil asar sifatida yaratilgan aforizmlar mansub.

¹ Хотамов Н.Саримсоков Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати.- Тошкент.Ўқитувчи.1983.Б.40.

² Тошпўлатов З. Афоризмларнинг жанр хусусиятлари ва бадийати. НДА.-Тошкент.2006.Б.12.

Bu guruhlardagi aforizmlar ijodkorlarning hayot va ijodiy tajribalaridan, ko'p yillik kuzatishlaridan tug'ilgan dono hukm va xulosalardan iborat. (Abdulla Qahhor, Asqad Muxtor, Said Ahmad, O'tkir Hoshimov (ayniqsa uning "Daftar Hoshiyasidagi bitiklar")i) aforizmlarini eslash kifoya). Ikkinchi guruhga esa falsafiy tahlil va tushuntirishlar, ilmiy tadqiqotlarda ixcham shaklda ifodalangan chuqur mazmunli hukm va xulosalar sifatidagi dono fikrlar mansub. Avvalo, aforizm yaratish barcha jahon ahlining qo'lidan kelavermaydi. Buning uchun ijodkor olam va odam mohiyatini chuqur anglab yetishi, ular haqidagi fikrlarini kishini hayratga soladigan darajada qisqa, favqulodda obrazlilik orqali to'liq va tugal ifodalashi shart.

Aforizmga qo'yilgan talablardan kelib chiqilsa, janrning o'ziga xos xususiyatlari oydinlasha boradi. Birinchidan, aforizmga haqiqatga undovchi inkor qilib bo'lmas teran fikr aytilishi kerak. Ikkinchidan, aforizmlarda aytilgan dono fikr bir kishiga emas, balki umumga taalluqli bo'ladi. Uchinchidan, aforizmdagi dono fikr hamma vaqt qisqa, ammo sarmazmun va tugal bo'lishi zarur. Odatda, qisqalik tugallik tushunchasi bilan aloqadordek tuyuladi. Ammo aforizmdagi qisqalik va tugallik bir-birini taqozo qiluvchi, bir-birisiz yashay olmaydigan xususiyatlar sifatida mavjud bo'ladi.

Aforizmga xos to'rtinchi xususiyat dono fikrni mantiqiy izchillikda ifodalash, aforistik ixchamlik va fikriy ziddiyat tahlili orqali inkor qilib bo'lmas, haqiqatga xilof kelmaydigan hukm ifodalashda namoyon bo'ladi. Ba'zan ijodkor aforistik shakl va mantiqiy inkor usuliga ortiqcha berilishi tufayli dono fikr asosidagi mantiqiy izchillikni buzishi mumkin. Xalq aforizmlaridan foydalanishda ham har bir yozuvchi, shoirning o'ziga xos uslubi borki, bu uslub o'sha yozuvchi va shoirning badiiy uslubini belgilashda katta rol o'ynaydi. Biz Abdulla Qodiriy, Oybek, Abdulla Qahhor, G'afur G'ulom asarlaridagi, xalq hikmatlaridan foydalanishdagi mahoratiga diqqat qilsak, ularning har biri o'ziga xos uslubga ega ekanligi yaqqol namoyon bo'ladi. Bu xususiyat hozirgi o'zbek adiblari asarlarida ham davom etib, xalq maqollaridan nechog'li unumli foydalanib, ularni o'z o'rnida

ishlatib, aniqlikka va ravonlikka, qisqalik va obrazlilikka, chuqur badiiylikka erishayotganiga guvoh bo'lamiz.

Keyingi yillarda boshqa adiblar qatori E.A'zamning ham aforizmlarga, ularning mavzu qamrovi, obrazlari, ifoda shakllariga, yumoristik talqinga qiziqishi yanada kuchaydi. Bu sohada dono va yumoristik fikr ustasi yirik adib Said Ahmad bilan uning qarashlarini qiyoslash maqsadga muvofiqdir.

O'z ijodini kichik hikoyalar yozishdan boshlagan Erkin A'zam bugungi o'zbek adabiyotining ko'zga ko'ringan vakillaridan biri hisoblanadi. U hozirgacha yigirmaga yaqin kitoblar chop ettirdi, ular hikoya, qissa, kinoqissa, drama va romanlardan iborat bo'lib, ijod olami keng qamrovliligi bilan boshqa yozuvchilardan ajralib turadi. Chunki, adib asarlari bir xil qolipda yozilmagan. Kitobxon uning asarlarini o'qib goh miriqib kulsa, ba'zan esa noshudlarga achinadi, yurak-yurakdan qattiq eziladi. Bu jarayonda aforizmlarning muayyan o'rni bor.

E.A'zam nasrida Oybekning psixologik tasvir mahorati, G'afur G'ulomning ibratomuz yumori, Abdulla Qahhorning ma'nodor loakonizmi mujassamdir. Adib ilk hikoyalaridayoq aforizmlardan unumli foydalanib, ularni mahorat bilan qo'llagan. Natijadi o'sha lo'nda va qisqa hikmatli so'zlar hikoyaning boshdan oyoq butun mazmunini o'z ichiga qamrab olgan.

E.A'zam maqol, matal, umuman hikmatli so'zlardan uch yo'nalishda foydalanadi:

- 1) Aforizmlarni xalqda keng tarqalgan shaklda o'zgarishsiz, o'z holicha ko'rinishda;
- 2) Ularni qisman o'zgargan, muayyan qo'shimchalar bilan boyitgan holda;
- 3) yangi individual, hikmatli so'z va iboralarni yaratadi.

Bular o'z xarakteriga ko'ra asarning muayyan qismlarida – sujet, kompozitsiya, obraz, xarakter, tasvir bayoni va boshqa komponentlar tarkibida keladi va ma'lum badiiy vazifa bajaradi. Adibning "Yozuvchi" hikoyasi bu

xususiyatlarning bir qismini aks ettiradi. Hikoya qahramoni yoshi katta bizning zamondoshimiz bo'lib, yozuvchi, “yetti pushtining go'riga g'isht qalab charchamagan” muharrirdir. U so'lim bog' qo'ynida yangidan-yangi “yozuvchi” larni (ayniqsa, raislardan) yaratadi. Rais tomonidan unga cheksiz marhamat ko'rsatishi sababini u raisning shofyoridan so'raganda adib quyidagi iborani qo'llaydi: “u qozonning qopqog'ini ochgisi kelmadi”. Bu sabab rais uchun asar yozib berishga yozuvchini yollash edi. Bu qaltis ish bo'lgani uchun ham ochiq emas, balki yumuq iboralar orqali ifodalangan, obrazlilik-u va ta'sirchanlik kuchaygan. Ammo, boshqa boyvachcha fosh bo'lib qamalganini eshitgan qahramon “Birovga choh qazisang – o'zing tushasan” deydi. Bu xalq maqolining varianti bo'lib, adib tomonidan o'rinli qo'llanilgan va asar mazmuniga singib ketgan.

Hikoyada muharrir yozuvchining bog'ini boyvachcha zo'ravonlar tomonidan tortib olinishiga qaratilgan lavha bor. Bundan g'azablangan yozuvchi birdaniga ikki dardni boshdan kechiradi: 1) ichaklari operatsiya qilinadi; 2) yuragi huruj qiladi. Hikoya muallifi bu jarayonni tasvirlar ekan “Balo degani egizak bo'ladi”, degan maqolni qo'llaydi va xalq orasida keng yoyilgan “omad ham, kulfat ham qo'sha-qo'sha keladi” shaklidagi ibratli iboraga ishora qiladi. Shuningdek, muharrirning asar oxirida “Hammamiz ham o'lamiz” degan so'zlari “O'lim-haq” aforizmini esga soladi.

E.A'zamning kichik hajmli, lekin didaktik xarakterdagi miniaturalarida individual aforizmlar anchagina. U yozadi: “Agar biz azaliy so'zdan, kitobdan yiroqlashib boraversak, bir kun kelib kitob urishi bor. Kitob urisa, yomon uradi”¹. Bu o'rinda tagi chizilgan gap hikmat, xulosa darajasidagi fikr bo'lib, so'zning, kitobning muqaddasligini alohida ta'kidlaydi (Qur'oni Karim, Hadislar, ilm kitob shaklidagi qadriyatlar).

Kitob urishi – ilmiga amal qilmagan nodonning fojiasi ekani uqdiriladi.

¹ Аъзам Э. Жаннат ўзи қайдадир.-Тошкент: Шарқ, 2007. Б.238.

“Suv yoqalab” qissasi E.A’zamning eng sara asarlaridan biri. Unda adibga asosiy xususiyatlar – mavzu va soʻz tanlash, zamonaviylik, uslub ravonligi, mazmun teranligi xalq tili boyliklaridan ilhomlanish kabilar oʻzaro paydlashib ketgan. Asar qahramoni shoʻro davrida kolxoz raisi sifatida katta ishlar qilgan donishmand Bolta Mardon va uning oʻgʻillari bilan voqealar qissa asosini tashkil etadi. Asardagi aforistik ifodalar koʻpincha oʻsha ota tilidan aytilgan. U katta oʻgʻli Amirni savdo ishlarida halol boʻlishga daʼvat etar ekan, oʻgʻli oʻgʻirlik qilmayotganini aytadi. Bolta Mardon esa “dunyoda shunday kasb-hunarlar borki, oʻgʻirlik qilsang, qilmasang oʻgʻriga oʻxshab ketaverasan”- deydi. Koʻpni koʻrgan otaning ushbu soʻzlarida katta maʼno borki, u hayotiy tajribadan olingan. U xalq orasidagi “Boʻrining ogʻzi yesa ham qon, yemasa ham qon” aforizmining ushbu vaziyatga muvofiqlashgan ifodasidir. Agar ota oʻgʻliga “oʻgʻirlik qilma” deyish bilan cheklansa, asar badiiyligiga putur yetardi, taʼsirchanlik yetarli boʻlmasdi.

Bolta Mardon farzandlariga oʻz fikrini majburan oʻtkazmaydi, ularni fikrlashga, toʻgʻri yoʻlni tanlashga undar ekan, koʻngillari xohishi bilan hisoblashadi. Oʻrtancha oʻgʻli Qodir oʻzi sevgan qizi borligini aytganda unga qarshilik qilmaydi, xato qilish esa “Bu-bir umrlik azob” deydi. Ushbu fikr umumga qaratilgani va chuqur mazmuni bilan aforistik xarakter kasb etgan. Otaning Qodirga aytgan “Ota degani paygʻambar boʻptimi?”- soʻzlarida ham farzandga ishonch tuygʻusi mujassamlashgan. Bu oʻrinda xalqning “Otang bolasi boʻlma, odam bolasi boʻl” maqolidagi ibratli maʼno qoʻllanilgan boʻlib, farzand donolikni farqlay olishga daʼvat etiladi.

Asarning suv motivi (sarlavhaning “Suv yoqalab” deyilishi ham bejiz emas) bilan bogʻliqligi, nafaqadagi raisning maqsadi qaqroq tomorqalarga suv keltirish ekanligi bois qator hikmatli ifodalarda obihayot talqini uchraydi. Koʻzi ojiz Hamro bobo: “Suv keltirganning yoʻli oydin boʻladi. Suv-yorugʻlik”, -deydi. Bu “Suv-hayot” maqolining yana bir qirrasining ifodasidir. Quyidagi misol yanada xarakterlidir: “Yelday kelib, selday ketgani shu-da odamning. Umr deganlari huv ariqdagi suvday gap”. Bu gaplardagi fikr nihoyatda quyma va ibratli. “El”, “sel”, “umr”, “ariq” tayanch soʻzlari yaxlit holda suv tushunchasiga bogʻliq holda badiiy

tasvir jihatdan ham o'ziga xos. Ular "Umr – oqar daryo" degan maqolning mazmun-mohiyatini o'xshatish, sifatlash, jonlantirish kabi poetik vositalar yordamida ta'sirchan va ishonarli ifodalay olgan.

Shuningdek, qissada "Qiz – palaxmon toshi", "Rais bilan Jaga – et bilan tirnoq", "Murti bolta kesmas", "Noligan-noshukur" kabi ibratomuz ifodalar uchraydi.

Adibning "Pakananing oshiq ko'ngli" qissasidagi aforizmlarning nisbatan ko'lamdorligi, mavzu rang-barangligi bilan katta qiziqish uyg'otgan. Ular muallif nutqida ham, personajlar nutqida ham mavjud bo'lib, individual va ommalashgan shakllarda ko'rinadi, bevosita muallifga tegishli ibratli iboralar ustuvorlik qiladi. Muhimi shundaki, ularning ko'pchiligi mazmunan qat'iy fikr, xulosa ohangiga ega. Qissaning bosh qahramoni Pakana bo'lganligi sababli "pakana", "novcha" bilan bog'liq tushunchalar anchagina. Masalan, "Mashhur kishilar pakana, tepakal bo'ladimi, ko'zga issiq ko'rinaradi", "Qiz bolaning o'rta bo'yi ham novcha ko'rinaradi", "Dunyo - novchalarniki", "Bo'y o'smasa ham, ko'ngil o'ssin" va boshqalar. Adib qalamiga mansub bu fikrlarning yuzaga kelishida payg'ambarimizga tegishli "Odamning pakanasi fitnakor bo'ladi, Alidan boshqa, novchasi nodon bo'ladi, Umardan boshqa" degan fikri nazarda tutilgani shubhasiz.

Ma'lumki, qissa sujetining asosini pakana rassomning ko'ngil olamidagi sarguzashtlar (yumoristik ruhda) tashkil etadi. Shu bois ko'ngil so'zining sarlavhaga chiqarilishi ham tasodifiy emas. Bu hol qissadagi qator hikmatlar, dono fikrning ko'ngil tushunchasi bilan bog'liqligini yuzaga keltirgan. Hikoya qilinishicha, Pakananing ko'ngli ko'p narsa istaydi, uning amri bilan hayotda goh yiqiladi, goh quvonadi, ammo o'rnini topolmaydi. Bunday murakkablikni muallifning xulosa ohangidagi fikrlari, ko'ngilga bergan muxtasar ta'riflari to'g'ri ifodalay olgan: 1) Ko'ngil – podsho; 2) Ko'ngil – xazina; 3) Ko'ngil – balo.

Butun asar davomida Pakana ko'ngilga taskin qidiradi, pakanalikka da'vo izlaydi, "Bu dunyoda chorasiz dard yo'q" maqoliga amal qilib, go'zal, novcha ayollarga mahliyo bo'ladi. Lekin bunga erishmaganini adib "Ko'za kunida sinar,

lekin boshdagi soch bir kunda to'kilmas", "Gavharni tanib olmoq, eshkak eshmoq emas" degan ibratli iboralar bilan izohlaydi. Shuningdek, qissada ko'ngilga taxtdor boshqa quyma fikrlar ham bor: "Qizi bor kishining ko'ngli yumshoq bo'ladi", "Gap omadda, ko'ngil to'qligida", "Ko'ngil qo'rquvdan cho'kadi", "Ko'zniki boshqa, ko'ngilniki boshqa", "Cho'kkan ko'ngil pakanalikdan yomon" va h.k.

Shuni unutmaslik kerakki, bu aforizmlar qissa qahramoni bilan bog'liq bo'lsa ham, bu alohidalik orqali umumiylik, umumiylik orqali esa alohidalik ifodalanadi. Yuqoridagi aforizmlar tuzilishi jihatdan asosan bir va ikki qismli bo'lib, ular kontrast asosiga qurilgan. "Omad" va "ko'ngil", "ko'z va ko'ngil", "ko'ngil va pakanalik" birikmalaridagi ko'ngildan boshqa so'zlar uning muayyan qirralarini qiyoslash, zidlash orqali ma'no tugalligini ta'minlaydi va umumiylik kasb etadi.

Pakana sarguzashtlarining asosiy qismi o'ziga munosib, chiroyli qizni topish va unga uylanish xususidagi voqealar tashkil etadi. Bu talqinning ibratli va qiziqarli bo'lishi uchun muallif ishq-muhabbat, ayollar haqidagi maqol va hikmatona fikrlardan keng foydalanadi. "Toqqa chiqmasang do'lona qayda, jonni qiynamasang, jonona qayda" maqoliga amal qilgan Pakananing Arofat, Savsar va qizlar bilan munosabatlari qator individual ibratli gaplarda aks etadi. Jumladan, Pakana Levan amakisi bilan shifoxonada tanishganda, undan shunday maslahat eshitadi: "Armanlardan zo'r xotin chiqadi: yozda ko'rpa, qishda ko'rpacha". Ikki qismli bu gapning birinchi qismi oddiy fikr bo'lsa, ikkinchi gap uni yaxlit holda hikmatga, umumlashgan fikrga aylantirgan. "Chiroyli ayollarning boshida chiroyli erlari ham bo'ladi", "Chiroylilar doimo tanish tuyuladi", degan xulosaviy fikrlari Pakanani goh o'ygaga cho'ktirsa ham, o'z intilishlaridan, "izhori ishq" yo'lidan qaytmaydi. "Bu dunyoda mukammal narsa yo'q", "Yoshlik-beboshlik" maqolini shior qilgan qahramon o'zining pakana, tepakal, mo'ylovdor ekanidan zorlanmaydi.

Xalqda “Tashabbusning qanoti bor” degan maqolning bir varianti qissada “Shuhratning qanoti bor” shaklida berilib, u mashhur san’atkorlar, rassomlarga nisbatan aytilgan. O‘zbek demokrat shoiri Furqatning “Ayshni nodon surib, kulfatni dono tortadur” misrasi keng ommalashgan bo‘lib, u xalq maqolidan o‘rinli foydalanish namunasidir. U o‘zgarishsiz ushbu qissada ham (57-bet) keltiriladi va qahramon taqdirining turli qirralarini tasvirlashga xizmat qilgan.

Qissada Pakana hajviy rakursda, hayotda o‘zligini qadrlay olmagan shaxs sifatida tasvirlansa ham, unga achinish, uni to‘g‘ri yo‘lga undash g‘oyasi yetakchidir. Bu fikr quyidagi ibratomuz mulohaza bilan yanada quvvatlanadi: “Inson betakror mo‘jiza, uni aynan qayta yaratish Isonning ham, Musoning ham qo‘lidan kelmas”.

Bundan tashqari asarda quyidagi individual va xalq hikmatlari ham mavjud:

I. Adib yaratgan:

1. Omadsizga it ham qaramaydi.
2. Aktyor xalqi o‘zaro xiyla dangal, sertakalluf bo‘ladi.
3. San’at sirli bo‘lishi kerak.
4. Birovning hayoti boshqalar tubini ko‘rolmaydigan quduq.
5. Birovga o‘lim tilamoq – katta gunoh.
6. Jismoniy nuqsonli odam baxil bo‘ladi.

II. Keng ommalashgan:

1. Baxilning bog‘i ko‘karmas.
2. Har narsaning hisob-kitobi bo‘ladi.
3. Nomi ulug‘ – suprasi quruq
4. Holvani hokim yer.
5. Ishtoni yo‘q tizzasi yirtiqqa kulibdi.
6. Oshing halol bo‘lsa, ko‘chada ich.

Yuqoridagi talqinlardan ma’lum bo‘ladiki, “Yozuvchi umumxalq tili asosida badiiy obraz va xarakter yaratadi. Obraz va xarakterlarning tipik va individual

bo'lishi uchun turli-tuman tasviriy vositalar, shu jumladan, jonli tilning qaymog'i bo'lgan xalq aforizmlari – maqol, matal, hikmatli so'zlar, iboralar badiiy-tasviriy qurol bo'lib xizmat qiladi”¹.

E.A'zam o'z asarlarida qahramonlar tilini ular qiyofalarining xususiyatlaridan kelib chiqib, sodda, ixcham, obrazli va sermazmun jumlar tuzar ekan, bunda u Said Ahmad tajribasiga tayanib, unga monand jonli xalq tili boyliklaridan, xalq maqollari, xalq iboralari va turli tasvir vositalaridan unumli foydalanadi.

Ma'lumki, Said Ahmad uslubida maqol alohida ajralib turadi. U – oddiygina, ammo juda ulkan va murakkab so'z. Uning yaratilishi va sayqal topishida avlodlarning juda katta badiiy mehnati, iqtidori mujassam. Xalq donoligining yorqin ifodasi bo'lgan maqol xalq og'zaki ijodining juda ixcham shaklga, ammo chuqur mazmunga ega bo'lgan janrlaridan biri. Maqollar fikrni lo'nda, aniq va obrazli qilib ifodalashga nutqimiz uchun juda ham zarur bo'lgan vositadir. Binobarin, xalqning ko'p asrlik ijtimoiy tajribasida ming martalab tasdiqlanib kelgan ibratli fikrlar har kun, har soat nutqimizga mazmuniy salmoq, o'ziga xos jilo baxsh etib kelmoqda.

Said Ahmad asarlarida xalq maqollari mag'ziga ularni yaratgan xalqning asriy hayoti, dunyoqarashi, urf-odatlarini singib ketgan. Masalan: “Ufq” trilogiyasida shunday maqol keltirilgan “Yotib yeganga tog' chidamaydi”². Yozuvchi bu xalq maqolini qo'llash orqali quyidagi fikrni bildirmoqchi: “Kishi ishlamay borini yeb yotaversa, bir kun kelib, hatto yig'gan mol-mulki, barcha boyliklari tog'day bo'lsa ham baribir uni yeb bitiradi”. Bu hayot haqiqati. Xalq orasida bu maqolning varianti sifatida shunday hikmatli so'zlar yuradi: “Yotib yeganga Turum tog'i chimdamaydi”³. (Turum so'zi abadiylik, doimiylik ma'nolarini ifodalaydi.) Yoki bu maqolga qarama-qarshi ravishda shunday maqol keltirilgan: “Toma-toma ko'l bo'lur” (332) maqolini keltirish bilan yozuvchi “Kishi tirikchilik uchun zarur

¹ Хакимов М. Ёзувчи ва халқ тили.-Тошкент.1972.Б.22.

² Саид Аҳмад.Уфқ.-Тошкент.Б.279.

³ Шомақсудов Ш. Шораҳмедов Ш. Ҳикматнома.-Тошкент. 1990.Б.131.

bo'lgan narsalar va mablag'larni oz-ozdan bo'lsa ham jamg'ara borishi, tejab-tergab sarflashi lozim" degan fikrni aytgan. Xalq orasida bu maqolning ham ko'plab variantlarini uchratamiz. Masalan, "Toma-toma ko'l bo'lur, birin-birin ming bo'lur", "Toma-toma ko'l bo'lur, oqa-oqa sel bo'lur".

E.A'zam qissalarida, S.Ahmad esa "Ufq" trilogiyasida asar g'oyasini yorqinroq ochishda, xarakterni bo'rttirib ko'rsatishda, asarlariga ohangdorlik kiritish maqsadida, badiiy tasvirlash vositalarini voqealar mag'ziga, xarakterlarga singdirib yuborishadi. Asarlarining tilida ishlatilgan maqollar, iboralar, obrazni jonli yaratishga, voqealarni to'laroq tasvirlashga qaratilgan. Said Ahmad ko'proq jonli xalq tilidan xarakterli bo'lgan qochirimli, oxorli ifodalarni tanlab olib ishlatib, o'quvchilarda voqealar va qahramonlar to'g'risidagi tasavvurni kuchaytirishga, o'quvchining estetik zavqini uyg'otishga muvaffaq bo'ladi.

Maqollarning rang-barangligi har ikkala yozuvchiga ham xos bo'lib, ular asarlarining mazmunidan kelib chiqadi. Said Ahmad asarlarida keltirilgan maqollarni shartli ravishda quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

1. Fikr ixchamligi, ta'sirchanligi va aniqligiga xizmat qiluvchi maqollar: "Chiqmagan jondan umid", "Dard ustiga chipqon", "Tarki odat – amri mahol", "O'zingdan chiqqan baloga, qayga boray davoga", "Ot aylanib qozig'ini topadi".

2. O'zbek xalqi hayoti, turmush tarzi va dunyoqarashi bilan bog'liq maqollar: "Mehmonning izzati uch kun", "Ota qarg'ishi o'q", "Qazisan qartasan, asli naslingga tortasan".

3. Ruhiy holat va kechinmalarni ifodalovchi maqollar: "Six ham kuymasin, kabob ham", "Boshga tushganni ko'z ko'radi", "Odam taftini odam ko'taradi".

4. Ijtimoiy hayotning nochorligi, xalq orzu-istaklari, ayrim norozilik kayfiyatlari ifodalangan maqollar: "Zo'rning nafasi tegirmon yurgizadi", "Nafsni tiygan uzoqqa boradi", "Kunda yegan och, yilda yegan to'q".

5. Qahramonning tashqi qiyofasini tasvirlashda qo'llanilgan maqollar: "Dunyoni suv bossa to'pig'iga chiqmaydi", "Yer tagida ilon qimirlasa biladi".

Said Ahmad xalq maqollari va iboralarini o'z ijodida qo'llash bilan kifoyalanib qolmay, ularga asoslangan holda aforizm darajasida turuvchi yangi hikmatli so'zlar yaratadi. Ular yuqorida E.A'zam qissalarida qayd etilganidek ijodiy xarakterda. Uning aforizmlari, ko'pincha, maqollarning davomi va rivoji sifatida maydonga keladi. Xalq maqollari bilan muallifning to'qigan iborolari bir-birlarini to'ldirib bir butunlikni tashkil qiladi. Yangidan ijod qilgan aforizmlar xalq tilining imkoniyatlarini namoyish qilish, asardagi voqealarni yaxlit falsafiy umumlashtirish, yozuvchining o'ziga xos badiiy san'atini ko'rsatib berish jihatidan katta badiiy ahamiyatga ega. Yozuvchilar ijod qilgan hikmatli iboralarining badiiy adabiyotda qayta-qayta takrorlanishi ularning asta-sekin adabiy tilga o'tib borishini tezlashtiradi. Bir yozuvchining yaratgan aforizmi shu asarning o'zida yoki shu yozuvchining boshqa bir necha asarlarida qayta takrorlanib turishi mumkin. Bir yozuvchining yaratgan aforizmiga boshqa yozuvchilar ham murojaat qiladilar va bir oz o'zgartirib qo'llaydilar.

Said Ahmad ijod etgan aforizmlar o'zining ixcham va ma'nodorligi bilan ajralib turadi. Bu yangi aforizmlar yozuvchining oz so'zlab ko'p ma'no anglatishidan darak beradi. Adibning romanlaridagi aforizmlar tilning o'tkir va keskinligini, tasvirlanayotgan voqealarning haqqoniyligini ta'minlagan. Masalan, "Inson uchun bir qultum suv jahonning eng katta xazinalaridan ham qimmatli"(90). Bu aforizmning birinchi qismidagi "bir qultum suv" birikmasi ikkinchi qismdagi "katta xazina" birikmasi bilan zidlikka ega. Mana shu zidlik esa aforizmdagi mazmunni obrazli ifodalashga xizmat qilgan. Bu aforizmda "Suv inson va tabiat hayoti uchun naqadar qimmatli narsa ekanligi, uning qadriga yetish lozim"ligi haqida fikr bormoqda. Xalq orasida suvning qadr-qimmati haqida shunday maqol ishlatiladi: "Suv oltindan aziz"¹. Bu maqolga hamohang aforizmlar E.A'zam ijodida "Suv xazina", "Suv keltirgan xor-u zor, ko'za sindirgan aziz" shakllarida uchraydi va o'ziga xoslikni bildiradi.

Шомаксудов Ш. Шорахмедов Ш. Ҳикматнома.-Тошкент. 1990.Б.376.

Said Ahmad ayol zotining qanchalar buyukligi haqida shunday ibora qo'llagan: "Ayol qalbi tosh bo'lsa ham allaqayeri paxtadan ham yumshoq, ipakdan mayin bo'ladi" (339). Bu hamma narsani ko'tara oladigan munis va mehribon ayolning yuragi. Ayol har qanday holatda ham baribir – ayol. Bu aforizm muallif tomonidan "Ufq"ning bosh qahramonlaridan biri Zebixonga qarata aytilgan gap. "Aytilgan gap o'sha joyga borib tegsa bekor ketmaydi". Shu o'rinda "Qanot" so'zi bilan bog'liq aforizm ikkala yozuvchida ham bor. Bu so'z muvaffaqiyat, o'sish, yuksalish ma'nolarida E.A'zamda "Shuhratning qanoti bor" shaklida, Said Ahmadda esa "G'am bo'yinga boylangan tosh bo'lsa, quvonch yelkadan o'sib chiqqan qanot" (609) shaklida qo'llanilgan. Said Ahmad roman obrazlaridan biri Dildorning baxtiyor kunlaridan birini shu aforizm bilan ifodalaydi. G'am pastga, quvonch yuqoriga tortadi. Bugun Dildor bo'ynidagi og'ir toshni irg'itib tashladi-yu, quvonch qanotida ko'kka intildi.

Umuman E.A'zam va Said Ahmadning aforizmlardan foydalanish tajribalari har bir adibning uslubi, xalq tilining imkoniyatlarini qo'llashdagi mahorati, individual mayli bilan izohlanadi.

II.2. Yumoristik talqinlar

E.A'zam asarlaridan yumoristik tasvir va ifodalar ham keng o'rin olgan bo'lib, ular adib o'ziga xosligining muhim qirralaridan biridir. Adibning dastlabki hikoyalaridayoq uning hajvga mayli yorqin ko'ringan edi. Bu xususiyat qissalari va dramatik asarlarida yanada davom etdi va takomillashdi.

Ma'lumki, hajviyot tushunchasi umumlashma xarakterda bo'lib, u kinoya, yumor, satirani o'z ichiga oladi. Bu uch xil talqin yagona asosga ega bo'lsa ham ularning mohiyati, tasvir yo'nalishi o'zaro farqlanadi. Chunonchi "kinoyada kulguli holat jiddiylik niqobi ostida, salbiy munosabat ustunligida beriladi, yumorda jiddiylik kulguli niqobda ifodalanadi, satirani fosh etuvchi kulgusi orqali esa salbiy illatlar qoralanadi"¹. Adib asarlarida hajviyotning uchala ko'rinishi ham

¹ Тошмухамедова Л. Бадий асарда кулгунинг эстетик вазифаси// Ўзбек тили ва адабиёти. 2004. №2. Б.18.

mavjuddir. Lekin ular turli daraja va miqdorda. Jumladan, “Otoyining tug‘ilgan yili”, “Pakananing oshiq ko‘ngli”, “Suv yoqalab”, “Chapdast” asarlarida kinoya, “Shoirning to‘yi”, “Jannat o‘zi qaydadir” qissalarida satira ustuvordir.

E.A‘zam ijodida kinoya, samimiy kulguning kuchayishi 80-yillarda yuzaga kela boshlagan davr ijtimoiy-psixologik omil – kishilar ishongan ideal va real hayot munosabatidagi nomunosiblikni anglash bilan bog‘liq. Darhaqiqat, “quyidagilar kinoyaviy talqinni taqozo etadi:

- 1) ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitlarning o‘ziga xosligi va uning yozuvchi dunyoqarashiga ta’siri;
- 2) ijtimoiy-falsafiy, badiiy-estetik qarashlarni tubdan o‘zgartirish, yangilash ehtiyojining ijodkorlar taqdirida aks etishi;
- 3) ijodkor tabiatining kinoyaga moyillik darajasi”¹.

Bu xususiyatlar adibning har bir asaridagi kinoya, yumorning moddiy asosi sifatida namoyon bo‘lar ekan, kitobxonda muayyan fikr uyg‘otadi, tabassum yoxud achinish hissini paydo qiladi. Kinoya yozuvchi uslubining xos qirralaridan biri sifatida konkret asarning maqsadi, vazifasiga ko‘ra turlicha namoyon bo‘ladi. Ba’zida muallifning o‘z tilida keltirilgan, so‘z, ibora, hikmat va qochirimlarda (ko‘pinchi hikoya va miniaturalarda), ayrim o‘rinlarda personajlarning o‘zaro masala-munosabatlarida, ba’zan qahramonlarning boshqa kishilarga, hodisa-narsalarga bergan baholarida (“Aralashqo‘rg‘on”, “Javob”, “Pakana” asarlarida), hatto mumtoz shoirlarning intim kayfiyati, ruhiyatini aks ettiruvchi shoirlarning hazilomuz yoxud kesatiqli talqinida bunday holatlar yorqin ifodalanadi.

Muhimi shundaki, yumoristik ma’no ifodalarining yuzaga kelishida xalq tilidagi polisemik (ko‘p ma’nolilik), istehzo ohanglari ham qo‘l keladi. Ular turli sheva va lahjalarga xos bo‘lsa-da adib mahoratining ko‘rinishi sifatida obrazli fikrlarga aylantirilib, adib maqsadini ta’sirli anglatishga xizmat qilishda vosita bo‘la oladi.

¹ Шералиева М. 80-йиллар ўзбек насридаги киноя хусусида // Ўзбек тили ва адабиёти. 2002. №1. Б.41.

Adibning “Otoyining tug‘ilgan yili” qissasi kinoya va yumorga boyligi va hajviy yo‘nalishning ko‘lamdorligi bilan ajralib turadi¹. Uning “Shartakilik qissasi” deyilishi ham shunga ishoradir. Asar qahramoni talaba Asqar Shodibekov tilidan hikoya qilinadi va g‘aroyib sarguzashtlari realistik xarakterga ega. U o‘zini “hamma meni otasini ham tanimaydigan shartaki, beandisha deydi, doimo ko‘nglimdagi gapning iddalosini aytib qo‘yaqolishga oshiqaman, suhbatdoshimning yuziga “ko‘zgu” tutaman – marhamat qilib asl basharasini ko‘rsin. Shu odatim tufayli necha bor kallam g‘urra bo‘ldi, necha-necha martalab pushaymon yedim”, -deb tanishtiradi. Bu so‘zlarni o‘qigan kitobxonda iliq tabassum, asarga qiziqish uyg‘onadi va qahramonning “ko‘zgu” tutish odati sujetni vujudga keltiradi. Sujet voqealari esa ba‘zan g‘ayritabiiy bo‘lib, kinoyaga asoslanadi. Masalan, qissaning ilk sahifasidagi quyidagi jummalarga diqqat qilaylik: “Mashrabning oti nega Mashrab? Ona qornida yig‘lagani uchunmi? Ajabo, u nimaga yig‘lagan ekan? Bandasi ona qornida yig‘lasa Mashrab bo‘ladimi?”.

Bu xildagi odatdan tashqari savollar va ularga javoblar o‘quvchilarni befarq qoldirmaydi, aksincha o‘ylantiradi.

Asar qahramoni Asqar xarakteri qator voqealar talqini orqali goh kinoya, goh yengil kulgu orqali ochila boradi. Asqar shartakiligi, haqiqatgo‘yligi, to‘g‘ri so‘zligi tufayli ko‘ngil qo‘ygan qizi boshqaga tegib ketadi, o‘zi adabiyot tarixidan imtihondan yiqiladi, bir necha qizlarga ishq tushadi, domlalar bilan bahslashadi, lekin bora-bora to‘g‘ri yo‘lni topa boshlaydi. Muhimi shundaki, Asqarda yoshlik g‘ururi, o‘zbilarmonlik ustuvor bo‘lsa ham, muallif unga samimiy munosabatda bo‘ladi, butunlay qoralamaydi, o‘zligini bilishga da‘vat etadi. Asqar yolg‘onga murosasiz talaba. U “darslikda bor gaplarni ko‘chirib o‘tirishga odatlanmaganman”, - deb dadillik qiladi.

Asqar adabiyot fani domlasi Ahmadxonovning chalamullaligi va injiqligini ochiq fosh qila olmasa ham, imtihondagi savollari orqali uning yuzini “ko‘zgu”da ko‘rsatadi: “Nodiraning nechta bolasi bor edi? Qizi bo‘lganmi, yo‘qmi?”, “Turdini

¹ Аъзам Э. Отойининг туғилган йили// Кечикаётган одам. Қиссалар.-Тошкент: Шарк, 2002. 6-69-бетлар.

necha marta sazoyi qildilar?”, “Uvaysiyning eri kim edi?”, “Uni kim sevgan?”(47-bet). Ko‘rinadiki, mohiyatan bema’ni ushbu savollardagi ijodkorlar adabiyotga aloqador bo‘lsa ham, ularning ijodi haqida gap yo‘q, bu hol kinoya niqobi orqali domla bilimsizligini fosh etadi.

Asardagi eng xarakterli o‘rinlardan biri Asqarning adabiyot tarixidan imtihon topshirish lavhasidir. “U (Ahmadxonov H.G.) sensirashga o‘tib, menga atagan savolini berdi: “-Qani aytchi Otoy nechanchi yilda tug‘ilgan?” Birdan shaytonim qo‘zidiyu o‘zimni zo‘rg‘a to‘xtatib qoldim. Endi bundan naryog‘iga o‘tib bo‘lmaydi – U yog‘i xavfli” Otoy.... Nega u tug‘ilgan yilini so‘radi? Demak, tug‘ilgan yili noma‘lum. Bundan chiqdi jo‘rtaga u shu savolni berib meni mayna qilmoqchi”. Bu o‘rinda Asqarning bir soddaligi ko‘rinadi, ya‘ni domla uni mayna qilish uchun emas, balki bilimsizligi tufayli boshqalarga ham shunday savollar beradi. Ikkinchidan Asqar Otoyining tug‘ilgan yili hozirgacha aniqlanmaganini bilsa ham buni aytolmas edi. Agar aytsa, savol mantiqsiz bo‘lib, domla bema‘niligi bilinardi. Shu bois talaba “bilmayman” deb javob beradi. Bu hol obraz tasviriga tabiiylik bag‘ishlaydi. Savolning asossizligini dadil ravishda aytolmaslik talabalikka xos psixologik holatdir.

Asar qahramoning qayta imtihon topshirish lavhasida piching, kesatish asosiy o‘rin tutadi va bu hol Ahmadxonov bilan Asqar o‘rtasidagi farqni yanada yorqin aks ettiradi. Domla “Sinov edimi, imtihon?” deb so‘rar ekan, bu gapni eshitgan qahramon yig‘lab yuborayozdi. So‘ngra domla davom etdi:

- Ubaydullaev kimingiz bo‘ladi?
- Katta xolamning kuyovi,- dedim mutlaqo jiddiy.
- Ha,-dedi u,- tuzukkina bilimingiz bor ekan, endi unaqa qaysarliklaringizni tashlang.
- Menga aytayapsizmi?,-dedim tag‘in jinim qo‘zib,- tashlasam ...aspirant bo‘lamanmi?(58-bet)

Bu mulokatda yumoristik ifoda personajlar tilidan aytilgan. Birinchisi domlaga tegishli bo‘lib, uni sinov yoki imtihon ekanligini unutib qo‘yishidir.

Keyingilarda esa talabaning javob va savollari aks etgan. Jumladan, “katta xolaning kuyovi” iborasi faqat kesatish ma’nosida, “menga aytayapsizmi?”, “aspirant bo‘lamanmi?” gaplari esa piching ma’nosida qo‘llanilib, hayrat savoli shaklida berilgan.

Adibning yumoristik mahorati uning “Pakananing oshiq ko‘ngli” va “Pakana” asarlarida ayniqsa qamrovli bo‘lib, bularning birinchisi qissa, ikkinchisi kinoqissa janrlarida yaratilgan. Shu sababli ulardagi yumoristik yo‘nalish janr talablariga mos ravishda muallif bayoni va dialog shakllarida hikoya qilinadi. Mohiyatan har ikkala asar ham bir mavzu – pakana odamning sarguzashtlari, g‘aroyib harakatlari haqida bo‘lib, qissa kinoqissaga nisbatan kengroq hajmlidir. Lekin ularning qahramoni bir shaxs – rassom Pakana va Shamshodning kulguli holatlaridagi asosiy lavhalar va personajlar (Levon, yapon chol, Arofat) saqlanishi bilan birga kinoqissaga Dadil, Daroz, Qiz kabi yangi obrazlar kiritilgan.

“Pakananing oshiq ko‘ngli” qissasida yumor, bir tomondan, qahramonning o‘zidan novcha qizlarga oshiq bo‘lishida, ikkinchi tomondan o‘zining bo‘yi, soqoli, mo‘ylovi, umuman qiyofasining sun’iy ravishda o‘stirishga qaratilgan g‘aroyib harakatlari orqali tasvirlanadi. Pakana qaysi qizga ko‘ngil qo‘ymasin, uning suratini chizishga, kinoga taklif qilishga urinadi va bu jarayonda uning bo‘yi pastligi pand beradi. Bu holatlar asarda ishonarli, qiziqarli tasvirlanib, kitobxonda kulgu qo‘zg‘atadi.

Asardagi qator lavhalar Pakananing bo‘y o‘stirish yo‘lidagi mulohazalariga bag‘ishlangan. Jumladan, uning poshnasi baland oyoq kiyimi kiyishi, “qoplab sabzi” yeyishi, hovuchlab vitamin va boshqa dorilarni iste’mol qilishi, tornikdan osilib mashq qilishi hech qanday foyda qilmagani goh muallif hikoyasi, goh o‘zi tomonidan yengil yumor bilan bayon qilinadi va diqqatni o‘ziga tortadi. Chunonchi, Pakana yapon choli yordamida yangi qiyofaga kirish holatlari yanada kuchaytiradi, ya’ni chol “alomat” dorilar bilan bo‘yi, soqol va mo‘ylovlarini quloqlab “o‘stirib”, “naynov”ga aylanadi, bu hol asarga badiiy shartlilik, xayoliy va mubolag‘a unsurlarini kiritishga imkon bergan va uning yumoristik xarakterini

chuqurlashtirgan. Adib qahramon harakatlari bilan bog‘liq jihatlarni bir muncha bo‘rttirsa ham reallik me‘yorini buzmaydi, voqealarga o‘z munosabatini ko‘pincha badiiy matn tarkibida qavs ichidagi izohlarda bildiradi.

Kinoqissaga yana bir pakana obrazini – Dadilni kiritgan muallif yumoristik tasvirni kengaytirishga erishgan. Asarda nisbatan kengroq o‘rin olgan Shamshod va Dadil o‘rtasidagi munosabatlari har ikkalasiga xos xususiyatlarni qiyoslash usuli orqali yanada yorqinlashtiradi. Pakanalik – Shamshodning ham, Dadilning ham dardi. Lekin bulardan birinchisi bundan aziyat chekib, hijolat qilsa, ikkinchisi bunga ko‘nikkan, ortiqcha o‘ng‘aysizlanmaydi. Bu hol ikkala obrazning o‘zaro suhbatida ochiq ko‘rinadi. Muallif ularning dastlabki tanishuvi lavhasini qiziqarli, komik ohang tasviri bilan boshlaydi: “Sabzi to‘la, tagi yerga tegay-tegay deb turgan to‘rxalta ko‘targan Shodmonbek.... bekatning narigi boshida xuddi qahramonimizdek pakana, nimasi bilandir unga o‘xshab ketadigan, u ham sabzi to‘la to‘rxalta ko‘targan yigit turibdi. Shodmonbek beixtiyor yigit tomon yuradi, bo‘y o‘lchashga boshlaydi: mendan pastmi, balandmi? Yigit ham bo‘yini chamalamoqda: mendan pastmi, balandmi?

Dadil: Qalay, foydasi bo‘lyaptimi? (Shamshod qo‘lidagi xaltaga ishora qiladi)

Shamshod: O‘zlariga-chi?

Dadil: Bu hammasi bo‘lmag‘ur gap. Sabzi bilan ish bitganda men allaqachon Gulliver bo‘lib ketardim. Qaytaga sabzi yeyaverib quyon bo‘lib qolay dedim.

Shamshod: Tornik-chi?

Dadil: E, undan ham bir chaqalik foyda yo‘q, qo‘ling qavargani qoladi...Uni-buni qo‘y qanchasan?

Shamshod: Bir-u ellik bir

Dadil: Poshna hisobiga bo‘lsa kerak-da?

Shamshod: Buni qo‘shsa-ya biru ellik beshlarga borib qolarov.

Dadil: (hazil aralash kesatib) Ha, yana bir g'ayrat qilsang, basketbolchi bo'lib ketasan. Xafa bo'lma og'ayni. Mana, men bir-u qirq to'qqizman, o'lib qolganim yo'g'-u"¹.

Tabiiyki, bu satrlarni o'qigan kitobxon yoxud lavhani ekranda ko'rgan tomoshabin labida tabassum, ruhida yengillik qo'zg'aladi. Qahramonlarga nisbatan goh achinish, goh kuyinish hissini tuysa ham samimiyat tuyg'usi ustuvorlik qiladi. Muallif mahorati shundaki, u yumoristik vaziyat va nutqqa mos so'zlar va iboralarni to'g'ri topa olgan. Bular "sabzi", "Gulliver", "quyon", "tornik", "poshna" (tufli poshnasi), "bir-u ellik bir", "bir-u qirq to'qqiz", "basketbolchi" kabi tayanch tushunchalar bo'lib, yaxlit xolda komik vaziyatni vujudga keltirish va ta'sirchanlikni oshirishga xizmat qilgan.

Shuni aytish kerakki E.A'zamning yumoristik talqinlarida kulgu ustasi, taniqli adib Said Ahmadning ta'siri yaqqol seziladi. Lekin ular o'rtasidagi o'ziga xoslik, individuallik ham yo'q emas. Jumladan, ustoz asarlarida kulgu ohangi ko'pincha matn bayonida berilsa, shogird ijodida personajlar nutqlarida, qisman o'zining sub'ektiv fikrlari tarzida keltiriladi. E.A'zam o'zining "Tish og'rig'i" hikoyasiga Said Ahmad haqidagi quyidagi so'zlarni epigraf sifatida keltirishi bejiz emas: "Nevaralarimning tish-pishi og'risa, xuddi Azroil kelib jonimni sug'urayotgandek bo'ladi, -derdi ustoz Said Ahmad"². Hikoyadagi qahramonning "Bobomning tishlari og'riyaptimi?,-degan savoliga onasi bergan quyidagi javobda Said Ahmadga xos dilkashlik va samimiylik ifodasi bor: - Sakson yashar cholda tish nima qilsin,-dedi onam battar taajjubga tushib(280-bet).

Ma'lumki, Said Ahmad, birinchi navbatda o'z kulgusi bilan mashhur. Buning siri nimada? Buni, avvalo, yozuvchining o'z iborasi bilan aytganda, "xalq tilini, shu tilning butun ranglari-yu, ohanglarini" xalqning o'ziga chiroyli qilib yetkaza olish, xalq og'zaki ijodi an'analarini o'z asarlariga mohirlik bilan singdirib yubora olish mahoratidan izlash kerak. Xalqimizning og'zaki ijodi satirik va yumoristik kulguga boy. Bu kulgu latifalarda, payrov va askiyalarda, xalqning

¹ Аъзам Э.Пакана// Кечикаётган одам. Қиссалар.-Тошкент: Шарқ, 2002.414-415-бетлар.

² Аъзам Э. Тиш оғриғи //Шовқин.Тўплам.-Тошкент: Ўзбекистон, 2011. Б.277.

jonli tili, iboralarida to'la ifodasini topgan. Darhaqiqat, Said Ahmad inson inson ustidan kuladigan quruq kulguni emas, balki insonga bo'lgan muhabbatdan tug'ilgan o'ziga xos betakror kulgini yaratdi. Shu tufayli uning asarlari yumorga, yumoristik unsurlarga boyligi, xarakterlar tabiatiga yumor mantiqan singdirib yuborilganligi bilan qimmatlidir.

Kulgi odatda yozuvchining tilini yumor tiliga aylantirib, lirizm bilan omixta bir ohang, o'ziga xoslik bag'ishlaydi, bu esa hajvchi adib uslubini belgilovchi bosh xususiyatlardan biriga aylanadi. Shu tufayli yozuvchi asarlaridagi juda ko'p unsurlar o'z-o'zidan, tabiiy ravishda kulgi yaratishga xizmat qiladi. Said Ahmad va E.A'zam asarlarida nomlar, laqablar, o'xshatishlar, ba'zi so'zlarni ko'chma ma'noda qo'llash, personajlar tilida har xil qo'pol so'zlarni ishlatish kabi juda ko'p vositalar kulgi uyg'otadi. Boshqa biror yozuvchi asarida bu vositalar, umuman, kulgi uyg'otmasligi mumkin. Said Ahmad ijodida majoziy so'zlar orqali ham kulgi yaratishga qator misollar bor. "Qirq besh kun"da ayollar brigadasida ishlovchi Boqiboyevaning rais Teshavoy Mirzayevga: "Ko'zingiz Uchqo'rg'onni ko'rar ekanda. Bu o'n kunlikda ham sizni Uchqo'rg'ondan ko'radigan bo'lsak, naq Usmon otaning oldilarida po'stagingizni qoqamiz"¹, - deyishi kulgi uyg'otadi, bu yerda mukofotni faqat boshqalarga bergani uchun rais askiyaga olinyapti. Ushbu o'rinda personajning holati, gapirish manerasi hazil bilan so'zni majoziy ma'noda qo'llash usuli birikib kulgi hosil qiladi.

Lutfinisani to'yidan olib qochgan Azizxon qayerdaligidan onasi tashvishlanganda, Ummatali shunday deydi: "Qayda bo'lsa ham sanqib-sanqib, qaytib keladi. Ammo yonidagi lo'kidoni bilan qayerga sig'adi?"

Agar shu o'rinda qiz yoki Lutfinisa so'zi ishlatilganda kerakli ma'no, kutilgan ohang, kulgi kelib chiqmas edi, hajvchi topib ishlatgan so'z esa yumor qo'zg'atadi, personaj tilida xalq orasida ishlatiladigan so'zini kiritish esa asar tilini xalqqa yaqinlashtiradi, vaziyatni yumshatishga harakat qiladi.

¹ Саид Аҳмад. Уфк.-Тошкент. Адабиёт ва санъат. 1979. Б.159.

Said Ahmad mahoratiga xos yana bir xususiyatni ta'kidlash joiz. Bu uning barcha asarlariga xos bo'lib, kulgi hosil qiluvchi so'zlar, ifodalar, vositalarning ikki-uch xilidan bir yo'la foydalanish usulidir, buni sintezlashgan yumoristik usul deb atasa ham bo'ladi.

Hajvchining mahorati shundaki, kulgi yordamida tasvirning haqiqiy badiiy kuchi orta boradi, oddiy yumordan badiiy, nozik yumorga o'tishini, kulgi dinamikasini ko'rsatishga xizmat qiladi.

Said Ahmad va E.A'zam nomlardan ham, laqablardan ham jozibadorlik, milliy harorat, ma'no hosil qilishga usta, u nomdan obrazning tabiatini ochishda foydalanadi. Nomlar, laqablar uning asarlarida qahramonning qiziq bir sifatini ta'kidlab turadi. Ko'pincha esa nomlarga ko'ra kishilarga qo'yilgan laqablar kulgi chiqaradi, chunki topib qo'yilgan laqab personajning xarakteriga yoki yozuvchi bo'rttirib ko'rsatmoqchi bo'lgan biror bir xususiyatga shunday mos tushadiki, u beixtiyor kitobxonning kulgisini qo'zg'atmay iloji yo'q. Said Ahmadda Yog'och polvon, O'rik domla, To'lan mo'ylov, Umarali paratka, Suv to'ra, Azizxonga eshikni taqillatmay, tortinmay kiravergani uchun ayollar qo'ygan laqab: Xira pochcha, To'pponcha polvon, Jinoyat oqsoqol, Cho'tir mirob. E.A'zamda Pakana, Daroz, Maymun, Mo'min kal, Rayman bitiqi, Soli baqiroq, Sayfi pason kabi laqablar kulgi chiqarishdan tashqari personaj xarakterining u yoki bu qirrasini ochib berishga xizmat qiladi.

Har ikkala adib asarlarida ba'zan jo'rttaga qilingan jiddiylik ham kulgi hosil qiladi. Masalan, Said Ahmad talqinida o'g'lining birovning to'yini buzib, qizini nikoh kiyimida olib qochib ketish, buni ona bilmay, jig'i-biyroni chiqishi voqealari E.A'zamning "Chapdast" hikoyasidagi keksa Salomni o'z xotinining jiyani ko'zi ko'r Guloyini olib qochishiga, ichkilikka ruju qo'yib, eshakdan yiqilib o'lishi voqealari bilan bir jihatdan hamohang.

Yana shuni ham nazardan qochirmaslik zarurki, tashqi qiyofaning yumoristik tasvirini ko'rsatishda ustoz va shogirda bir muncha umumiylik bor. Ma'lumki, biror shaxs bilan uchrashganda o'sha shaxs haqida odatlangan

tasavvurimiz o'rtasida nomuvofiqlik borligi ko'rinsa, bizda kulgi qo'zg'aladi. Shuning uchun ba'zan jismoniy xususiyatlarning kamchiligidan bilinadi: juda ham novcha, beso'naqay gavda, pakana, juda ham kichik yoxud katta burun va hokazo. Said Ahmad yumori bunday jismoniy kamchiliklarga batafsil to'xtamasligi bilan ahamiyatga loyiq, uning kulgisi shaxsning jismoniy kamchiliklari ustidan masxaraomuz, ta'na aralash kuluvchi satiralardan o'zining samimiy ruhi, beozor yumori bilan ajralib turadi, shuning uchun uning burunni "kovush"ga o'xshatishi og'ir botmaydi, hazil, samimiyat o'rtadagi iliq munosabatlarga rahna solmaydi. Garchi E.A'zamda kishilardagi qusurlar ko'plab tilga olinsa ham, ular kamsitishga emas, beg'ubor kulgi uyg'otishga qaratilgan. Bunday yaxlitlik, ayni choqda originallikni ko'plab keltirish mumkin, ularning ko'pchiligi faqat kulgi chiqarish uchungina emas, balki asar tilining xalqchil bo'lishi, asarning, voqea-hodisalarning, obrazlarning hayotiy chiqishiga ham xizmat qilgan. Bu oddiy xalqona so'zlar va iboralar halaqit bermaydi, balki kerakli, yozuvchi ko'zda tutgan ohangni, ma'noni tushunishga yordam beradi, yozuvchi kulgisini xalqchil qiladi.

Yuqoridagi mulohazalardan ko'rinadiki, aforizm, lakonizm (qisqalik), xalqona ifoda, hajviy-yumoristik ifodalar badiiy matn qatlarida, asarning umumiy mundariyasi va muallif uslubida sezilarli iz qoldiradi. E.A'zam asarlari misolida aks etgan bu xususiyatlar asosida bob bo'yicha quyidagi xulosalarga kelindi:

- Aforizm, hikmatli so'z, maqol, matal kabi xalqona donishmandlik unsurlari badiiy asarga mazmuniy teranlik, shakliy-uslubiy joziba, ohorlilik bag'ishlovchi vositalardir. Muallif bu o'rinda xalq tili imkoniyatlariga murojaat etadi va ulardan o'z maqsadiga ko'ra zarurlarini tanlaydi.

- Aforistik ifodalar E.A'zam asarlarida ko'p ma'noli bo'lib, yozuvchiga keng imkoniyatlar beradi, ularni o'z holicha yoki muayyan o'zgartish va qo'shimchalar bilan qo'llash roviy mahoratiga bog'liq. Tahlil etilgan asarlarda bularning namunalari va adib qalamiga mansub individual aforizmlar mavjud.

- Yumoristik ruh adib asarlarida alohida diqqatga loyiq. Xususan samimiy kulgu, quvnoqlik, xalqona dilkashlik, kinoya va kesatiq kabi hodisalardan ustalik bilan foydalanilgan, ular asarlar o'qishligini va qiziqarliligini oshirgan. Aforistik

va yumoristik ifodalarning S.Ahmad talqinlari bilan qiyoslanishi, har bir adibga xos mushtaraklik va o'ziga xoslikni oydinlashtirgan.

- Aforistik va yumoristik-hajviy tushunchalar asarda mazmun, shakl, uslub va badiiyat hodisalarining mutanosibligini ta'minlovchi ko'rsatkichlar sirasiga kiradi.

- Aforistik va yumoristik ma'no qirralari badiiy til imkoniyatlaridan sanaladi. Ularning birinchisi asarga mazmuniy teranlik, didaktik ruh bag'ishlasa, ikkinchisi asarni, obraz va voqealar tasvirini quvnoqlik, xalqona dilkashlik, kulgu kabi ifodalar bilan bezaydi. E.A'zam asarlarida kinoya, yumor, kesatiq yetakchi bo'lib, hikoya va qissalar o'qishligini oshirgan. Bunda ustozlar, jumladan S.Ahmad tajribasining ma'lum ta'siri ko'rinadi.

III BOB. BADIY MATNDA NUTQ TURLARI VA ULARNING IFODALANISH XUSUSIYATLARI

III.1. Monologik nutq

Adabiy asar tili tushunchasining turli ta'riflari mavjud. U tadqiqotlarda badiiy til, poetik til, emotsional til, obrazli til kabi atamalar bilan nomlangan. Ammo ularni qanday atalishidan qat'i nazar, hammasi badiiy matnda voqe bo'ladi, shakllanadi. Asarda til va nutq tushunchalari ko'pincha aynan ma'noda ishlatiladi va muallif tili, hikoyachi tili, personajlar tili kabi shakllarda qo'llaniladi. Bu tizimdagi badiiy nutqda monolog, dialog, polilog alohida ajralib turadi. Adabiyotshunos T.Boboyev ularni asar tilidagi tavsif (xarakteristika) tiplariga kiritadi va monologni ichki monolog, sirtqi monolog, monolog-xotira, monolog-mulohaza, monolog-orzu kabi turlarini e'tirof etadi¹.

Adabiyotshunos Y.Solijonov esa monolog haqida kengroq fikr yuritib, monologni ovozli (tashqi) va ovozsiz (ichki) tiplarga bo'lar ekan, yozadi: "Aslida, keng ma'noda olganda muallif nutqining o'zi monolog asosiga qurilgan bo'ladi, chunki yozuvchi o'zi qalamga olgan voqelikni har xil nutq vositalaridan foydalangan holda o'quvchiga gapirib beradi. Shu jihatdan har qanday asar yaxlit olganda ulkan monologdan iborat"². Bu xususiyatlarning yorqin ifodasini E.A'zam qissalarida ham ko'rish mumkin. U muayyan qissadan ko'zlangan maqsad, badiiy niyat, mavzu va material xarakteriga ko'ra badiiy nutqning shularga monand shaklini tanlaydi va asosiy e'tiborni mazmun ifodasiga qaratadi, ko'p hollarda bu nutq shakllari aralash keladi, lekin ulardan biri yetakchilik qiladi. Jumladan, "Suv yoqalab", "Javob", "Zabarjad" qissalarida muallif nutqi (monologi), "Otoyining tug'ilgan yili", "Shoirning to'yi" qissalarida hikoyachi-personaj nutqi ustuvordir. "Pakananing oshiq ko'ngli", "Piyoda", "Bayramdan boshqa kunlar" qissalarida esa badiiy nutqning barcha shakllari turli daraja va miqyoslarda namoyon bo'ladi.

¹ Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари.-Тошкент: Ўқитувчи. 2002. Б. 173-176.

² Солижонов Й. Бадий асарда монологик нутқ //Ўзбек тили ва адабиёти. 2004. №3. Б.16.

Adib qissalarida (shuningdek, hikoyalarida ham) monologik nutqning xotira, mulohaza, orzu ma'nolarini ifodalovchi monologlar ko'p ishlatilib, har biri ma'lum estetik-badiiy, uslubiy funktsiya bajaradi.

Monolog (grekcha: monos – bir, logos – so'z degan ma'noni anglatadi) badiiy nutqning tiplaridan biri bo'lib, tom ma'noda olganda, badiiy asarda ishtirok etuvchi qahramonlardan birining o'z-o'ziga, suhbatdoshiga yoki ommaga qaratilgan nutqi. Monologik nutq odatda ko'proq dramatik asarlarda qo'llanilsa-da, u lirik va epik tur janrlarida ham faol ishlatiladi.

Monolog aslida bir kishining alohida vaziyatda maxsus tayyorgarlik natijasida paydo bo'ladigan yirik hajmli nutqi. U talaffuz qilinishiga ko'ra ikki xil – ovozli (tashqi) va ovozsiz (ichki) tarzda paydo bo'lishi mumkin. Personajning ichki nutqi bilan monologik nutq orasida katta farq bor. Ichki nutq bilan ichki monolog, avvalo, o'zining hajmi bilan, qolaversa, mundarijasi, strukturasi, paydo bo'lish o'rni, hamda vaziyati bilan bir-biridan farq qiladi.

Agar ichki nutq so'zlashuv jarayonidagi lahzalarda parcha-parcha ko'rinishda va birmuncha betartib tarzda paydo bo'lsa, monolog o'zining yaxlitligi, ma'lum maqsadga yo'naltirilganligi, bir-bir muammoni yechishga bo'ysundirilganligi, hajmining kattaligi bilan ajralib turadi. Ichki nutq vaqt ham, joy ham tanlamay ro'yobga chiqaveradi, monologik nutqning dunyoga kelishida zamon va makon kategoriyasi muhim o'rin tutadi. Ichki nutq o'z nomiga yarasha inson ongida, xayolida, o'ylashi jarayonida miyaga qalqib chiqadi, monologik nutq esa vazifasiga ko'ra ichki va tashqi (ovozli va ovozsiz) ko'rinishga ega bo'ladi. Deylik, ichki nutq personajning suhbatdoshi bilan muloqatda bo'lib turgan oniy lahzalarda ham xayolga kelaveradi. Monologik nutq esa o'sha momentdan keyinroq (ehtimol, avval) unga aks-sado sifatida ro'yobga chiqadi va ma'lum muddat davom etadi. Monolog o'z zimmasiga muhokama, munozara, mulohaza, tahlil qilish, tasdiqlash va tazarru vazifalarini oladi, hal etadi. Ichki nutqda ko'proq munosabat yo'nalishi ustun turadi.

“Monolog personajlarning dialogdagi nutqidan tashqi jihatdan ham farq etadi, qahramon o'z ichki dunyosini keng ochib berar ekan, ancha uzoq gapiradi,

shu sababli monologlar uzun bo'ladi"¹. Monolog yakka shaxsning o'z orzu-o'ylari, amalga oshmagan afsus-armonlari, ayni paytdagi quvonchli yoki qayg'uli holatlarini his-hayajon bilan ifodalashga yordam beruvchi eng qulay nutqdir. Odatda, monolog asarda ro'y berayotgan g'oyat kuchli dramatik hodisalar ta'sirida murakkab vaziyatga tushib qolgan insonning ruhiy olamini chuqurroq tahlil etishga yordam beradi.

Adibning "Otoyining tug'ilgan yili" qissasida voqea uning qahramoni Asqar Shodibekov tomonidan hikoya qilinadi va tashqi (ovozli) monolog namunasi bo'la oladi: "Ana shunday, hamma meni otasini ham tanimaydigan shartaki, beandisha, deydi. Bu gapda qanchalik jon bor – yolg'iz xudoga ayon. Lekin shunisi aniqki, nima haqda bo'lmasin, kimga, qaysi sharoitda ekanidan qat'i nazar, doimo ko'nglimdagi gapning iddallosini aytib qo'ya qolishga oshiqaman. Dastlabki tanishuvdayoq suhbatdoshimning yuziga "ko'zgu" tutaman – marhamat qilib asl basharasini ko'rsin! Shu odatim tufayli necha bor kallam g'urra bo'ldi, necha-necha martalab pand-u pushaymon yedim. "Bugundan boshlab – tamom, endi aslo bunday qilmayman!" deya ont ichaverib, qasam men uchun suvga aylandi"².

Ba'zan personajning bir yoki ikki jumladan iborat so'zlari ham tashqi monolog bo'lishi mumkin. Qissada shunga misol bor. Asar oxirida Asqar do'stlarining o'zi haqidagi fikrlarini taxmin qiladi. Mantiqan bir-biridan uzoq bu fikrlar personajlarning qahramon haqidagi xulosasi sifatida mustaqil tugallikka ega va oshkora tarzda shunday bayon etiladi:

Onam: "Sho'rimga tug'ilgan ekan-da bu bola, boshimni qaysi toshga uray?"

Akam: "Uka, uka-a! Necha marta aytdim....."

Bo'ston, Javliboy va Marat: "Ahmoq edi, ahmoqligicha qolibdi. Battar bo'lsin!"

Mahiddin: "Ey, yashashni bilmagan galvars!"

Akbarova: "Ujas! Tez Matlubaga yetkazish kerak!"

¹ Султон И. Адабиёт назарияси. I-жилд. -Тошкент. 1978. 324-бет.

² Э.Аъзам. Кечикаётган одам. -Тошкент: Шарқ, 2002. Б. 7.

Matluba: “Esingdami, Nazm (Vazir, Manzur), o‘zi sag‘al anaqaroq bola edi, yaxshiyam o‘shanda tegmagani-im...”

Ahmadxonov: “Ha-a, shunday bir bola bor edi. Xudo urgan sarkash, shakkok edi. Mana, oqibati...”

Ubaydullaev: “Ajablanadigan joyi yo‘q o‘zi olov edi – o‘t o‘t bilan o‘ynashadi-da. Bunaqalar kerak, oh, ko‘p kerak! Lekin har qalay, uloqqa kirgan chavandoz boshini ham o‘ylagani ma‘qul – uloq mingta, bosh esa bitta!

Raxshona – yonimda bo‘ladi!”¹.

Monolog personaj xarakterini ifodalovchi vosita hamdir.”Suv yoqalab” qissasi qahramoni Bolta Mardon bilan “Jannat o‘zi qaydadir” asarining qahramoni Domla (Jo‘raboy) obrazlarining monologlari qiyosi bunga misol bo‘la oladi. Muhimi shundaki, Bolta Mardon nutqi nisbatan qisqaligi va sokinligi, Domla monologi esa salmoqli va shiddatli yo‘nalishi bilan ajralib turadi.

O‘tgan tuzumga, davr tartibotlariga sadoqat – har ikkala qahramonga xos umumiy xususiyatdir. Istiqlool keltirgan yangilanish ulardagi xalqqa sadoqat, kelajakka ishonch bilan qarash umidini so‘ndirmasada, ruhiyatiga ta’sir qiladi: bu jarayon har birida o‘ziga xos kechdi: Bolta Mardon o‘z davrida ayrim ishlarni qilaolmaganidan ich-ichidan ezilsa ham el-yurt xizmatidan qolmadi, hamqishloqlariga madadkor bo‘ldi. Domla esa sho‘ro davridagi faoliyatining ma’nisizligidan ruhan eziladi, soxta mafkuraga asoslangan ilm vakili bo‘lganidan afsuslanadi va yangi tartibotlarga moslashishga o‘zida rag‘bat ko‘rsatmaydi. Bunday psixologik holat Bolta Mardonda asosan, xatti-harakatlar fonida aks etsa, Domlada uning nutqi, o‘z-o‘zini tavsiflash usulida namoyon bo‘ladi. Boshqacha aytganda, birinchi qahramonda qalb dinamikasi epik bayon asosida, ikkinchisida esa ichki ruhiy mushohada va monolog shakllarida ochiladi.

Domla jamiyatlardagi o‘zgarishlarni, voqelikni teran idrok qiladi, bu esa uning ruhiyatida evrilishlarni yuzaga keltiradi. U o‘z sohasi tarixni yaxshi biladi, kechayotgan jarayonlar haqida mustaqil fikrlaydi. Lekin hammasini qaytadan boshlash mumkin emasligini ham unutmaydi. Asar boshidayoq uning bizneschi

¹ Ўша асар. Б. 69.

xotini, Amerikaga ko'chib ketishga hozirlanayotgan Xonim va o'g'li Melis o'rtasida yuzaga kelgan e'tiqod xususidagi to'qnashuvlar fikrlar rakursida kechadi va Domla xarakterining tadrijini ta'minlaydi. Muhimi shundaki, Domla o'tmishidan qanchalik afsuslanmasin, o'zligini yo'qotmaydi: "Zamonni ayblamoq endi befoyda, bari-bariga o'zim aybdorman", - deydi u.

Domla, shuningdek, Bolta Mardondan farqli o'laroq o'z iztiroblari, nadomatlarini ichiga yutmaydi, balki qilmishlariga avvalo o'zi baho beradi, ularni oshkora va dadil izhor etadi. Bu hol asar drammatizmiga o'zgacha taranglik bag'ishlaydi va badiiy niyatning ifodasida asosiy ijtimoiy-estetik funktsiyani Domla obrazi tashiyotgani bilan asoslanadi. Bu jihatdan Domlaning o'z qishlog'iga ketishi va o'limi oldidan xotiniga yozib qoldirgan maktubini asar sujetining yechimi va badiiy g'oyaning ifodasi deyish mumkin: "Xotin! Sening oldingda, farzandlarimning oldida behad aybdorman. Albatta, men ham ko'p qatori yangi zamonadan hursandman, lekin oshkora riyokorlik, ta'ma bilan uni olqishlash qo'limdan kelmadi. Nachora, e'tiqodimni o'zgartira olmadim. Keksaygan chog'imda to'nimni almashtirishga nomus qildim chog'i. Xatolardan iborat umrimda yana gunohga botmayin dedim-da. Seni tutgan yo'lingdan qaytara oladigan zot yo'q bu dunyoda. U- o'lgan. O'sha menman. Mayli, bilganingni qil! Ketsang ketaver Amerikangga! Men endi Jiyydalida qolsam kerak"¹.

III.2. Dialogik nutq xususiyatlari

Hozirgi zamon o'zbek nasri uchun xarakterli bo'lgan yangiliklar badiiy asar qurilmasida g'oyat muhim o'rin tutgan dialoglar qurilishi hamda vazifalar doirasining kengligi va rang-barangligida ham yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Binobarin dialog o'zining tuzilishi va badiiy asar strukturasida egallagan o'rni jihatidan ko'pincha muallif bayonining kompozitsion-uslubiy tizimini belgilab beradi. Ayni chog'da, muallif bayoni asarda qatnashuvchi personajlarning suhbatini shunday tashkil etadiki, natijada dialog yozuvchi uchun birgina ifodalash vositasi bo'lib qolmaydi, balki bosh maqsad darajasiga ko'tariladi va asardagi

¹ Аъзам Э. Жаннат ўзи кайдадир. -Тошкент: Шарқ, 2007. Б. 120-121.

kompozitsion-sujet qurilishining ajralmas tarkibiga aylanib ketadi. Demak, badiiy asarning bir butun struktural-tipologik tizimi hamda uslubiy yaxlitligi dialogning asar organizmida tutgan o'rni va roli bilan uzviy bog'liqdir.

Hozirgi o'zbek nasridagi dialoglar bir xil ko'rinishga ega emas. Ular orasida dialogning eng ko'p tarqalgan uch xil tipini ajratib ko'rsatish mumkin. Bular:

1. Jonli (real) dialoglar
2. Xayoliy (tasavvurdagi) dialoglar
3. Ichki dialoglar

Nomlanishi jihatidan xayoliy va ichki dialoglar bir xildek tuyuladi. Xayoliy dialog qahramonlar o'rtasida avval ro'y bergan jonli (real) dialogning keyinroq suhbatdoshlardan yoxud uni eshitganlardan birining xayoli (tasavvuri)da qayta tiklanishidir. Ichki dialog esa asar qahramonining o'z-o'zi yoki biror hamsuhbati (ehtimol, sevligisi yoxud raqibi) bilan g'oyibona fikrlashib borayotgan "bahs-dialog", "xarakteristik (tavsifiy) dialog", "dramatik dialog" kabi turlar har uchala tip tarkibida ham g'oyat unumli qo'llanilayotganining guvohi bo'lamiz. Bunday turlar dialogning tub fazilatlarini o'zida namoyon etishi bilan birga, hozirgi paytda asarning kompozitsion-stilistik qurilmasida toboro murakkablashib, kengayib va rang-baranglashib borayotganligi ko'zga yaqqol tashlanmoqda.

Erkin A'zamning "Suv yoqalab" qissasida asarning bosh qahramoni Bolta Mardonning ichki dialogi quyidagicha beriladi:

"Tavba... Ajab tush. Yigitlik davrim emish. Mana shu supada xuddi mana shu taxlit cho'nqayib o'tirgan emishman. Tepamda, otam, norozi, tanbeh berayotganmish: "Tutni nimaga kestirding, beso'roq? Senu meni to'ydirib, kiydirib turgan daraxt shu edi-ku! Bolaligingda o'zing shoxma-shox tirmashib tut terib yurarding... He, noinsof!" Rahmatli nimadan norozi ekan, qiziq... Kampir,-deydi u keyin boshini ko'tarib xotiniga,- shu supaning o'rtasida tut-mutimiz bormidi, eslaysanmi?"¹.

"Yaxshi ko'rish uyat ekanmi? Nima, men odam emasmanmi? Sening eringga birovlar xat yozar ekan-u, menga yozmaydimi? Yoki men birovga

¹ Аъзам Э.Жаннат ўзи кайдадир. –Тошкент: Шарк, 2007. Б. 58.

yozolmaymanmi? Gap bunday, kelin: bo'lmagan joydan g'avg'o qo'zg'ab o'tirguncha, eringga qara, bola-chaqangga, manovi xovli-joyingga qara! Tushundingmi? O'zingga ham bir nazar tashlab qo'ysang ziyon qilmas!"(84-bet).

"Zabarjad" qissasidan olingan quyidagi ikki dialog o'ziga xos bo'lib, birinchisi Zabarjad bilan marhum otasining muloqoti (xayoliy dialog), ikkinchisi esa Zabarjad bilan ko'ngil amriga ko'ra u o'zini bag'ishlagan malak o'rtasidagi yopiq dialog. Malak unda bevosita ishtirok etmasa-da, Zabarjad so'zlaridan u anglashiladi va uning kimligini kitobxon tez fahmlaydi: "Qo'polman-a?-deydi qilmishidan kuyingandek.-Qo'polman. "Sen, Zabar, asli o'g'il bola bo'lib tug'ilishing kerak edi, nimadir xato ketgan-da", derdilar dadam. Rostdan ham, o'g'il bola bo'lganimda bunday yurolmasdim. Iy-y, yo'q, yo'q, unda sizni qayoqdan ko'rardim, to'g'rimi? O'g'il bola... Mana ko'rasiz – o'g'il bo'ladi. Aniq, a-aniq! O'zingizga o'xshagan: qoravoy, indamas. Agar...mabodo qiz bo'lib qolsa, duch kelgan birontasiga shartta tegib olaman, Zabarjad so'zim! Qiz bola otasiz o'smasligi kerak. Otasiz o'sgan bittasini, mana ko'rib turibsiz!" (99-bet).

"Ko'rgim kelayapti, ha-a! Oldingizga boray, maylimi? Shundoq eshikdan bir qaraymanu ketaman, xo'pmi? Nima? Endi nima qilaman? E, hammasidan bezdim! Shu shahringizdan ham! Mana, mendan ham hamma bezor-ku! Boshimni olib ketsammi deb qoldim. Qishloqqa. Ammamnikiga. Birgina o'sha kampir tushunadi meni! Boshqa hech kimga kerak emasman! Bildim – he-ech kimga! Bo'pti, qaytib sizga telefon qilmaganim bo'lsin! Ha-a, Zabarjad so'zim – shu!" (111-bet).

Tavsifiy dialoglar tuzilishi jihatidan ma'lum qoidalarga bo'ysundirilgan va aniq maqsadga yo'naltirilgan bo'ladi. Muallif remarkasining hajmi nisbatan kengroq va davomiylikka ega ekanligi bilan ajralib turadi. U bir yo'la so'zlayotgan yoki tinglayotgan suhbatdoshlardan birining ta'rif-tavsifini, xarakter xususiyatlarini, xatti-harakatlarini ifodalaydi, bironta bo'lib o'tgan hodisa hikoya qilinishi mumkin. Muallif bayonda asosan faktlarning batafsilroq ifoda etilishiga e'tibor qaratadi. Bunday dialoglarda replikalarning tez-tez almashinuvi, qarama-qarshi holat va harakatlar ro'y bermaydi. Fikr rivoji dialogda bir yo'nalish va yagona izchillikda davom etadi.

“Jannat o‘zi qaydadir” dramatik qissa dialog asosiga qurilgan bo‘lib, unda har bir personajning xarakteri, o‘zgalarga munosabati o‘zaro muloqot, bahs, mulohaza orqali ochib beriladi.

Quyidagi parchada er-xotin dialoglarida ularning sayohat xususidagi fikrlari shunday ifodalanadi:

“Domla. Sizniyam armoningiz qolmagan, xonim! Sochi-yu Qirimlar eslaridan chiqdimi? Keyin-keyin undan ham nari Bolgariya, O‘rta yer dengizi bo‘ylab sayohatlar! Mazaxo‘rak bo‘lganlar-da, o‘shalarni xumor qilibmi, mana, uyda o‘tirolmay qoldilar. O‘rgangan ko‘ngil...

Xonim (past tushib, ham qofiyasiga)... o‘rtansa qo‘ymas! O‘zingiz oborgansiz-ku!

Domla. Ana shunisiga dog‘manda... Bizga kelsak, bizniki ilmiy kengash, konferensiya yo seminar deb atalguchi edi. Yalang sayr-u sayohat emas!

Xonim. Bizniki ham sayohat, ham tijorat deb ataladi! Chidaysiz-da, xo‘jayin! Chidayolmasangiz... siz sho‘rlikda prokuror jiyan ham yo‘q!

Domla (nochor iljayib). Bizga unaqa dahmaza jiyanning keragi ham yo‘q, xonim afandim, o‘zingiz borsiz, yetib ortadi!” (158-bet).

Demak, dialog badiiy asarda muallif bayonining tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, sujet va kompozitsion bir butunlikni ta‘minlashda, xarakterni shakllantirishda, muallif bayonining to‘laqonli chiqishida muhim ahamiyatga egadir.

“Shoirning to‘yi” qissasining umumiy ruhida tuhmat tufayli nohaq qatag‘on qilingan Otashqalb shoirni oqlash munosabati bilan yuzaga kelgan xilma-xil ohanglar, nutq turlari yetakchilik qiladi. Bular shoirning do‘stlariga, dushmanlariga ham tegishli bo‘lib, ular orasida Oqsoqol, Otashqalbning soxta do‘sti “Ajoyib” domla, Mafkuraxonim bilan yosh, jasur shoir o‘rtasidagi dialog ayniqsa xarakterlidir. Jasur shoir qatag‘on shoir haqidagi barcha haqiqatdan xabardor. Shu tufayli yuz bergan adolatsizlik uning qalbini olov bo‘lib yondirib, o‘rtayotganini, bu tuyg‘ularni bosishga qurbi yetmayotganini anglab anjumanda so‘zga chiqishga ahd qiladi:

-Hov yigit, yo‘l bo‘lsin?,-dedi Mafkuraxonim batamom tashabbusni qo‘lga olmoqchi bo‘lib,- Kim chaqirdi sizni bu yoqqa?

- So‘zlamogchiman!

- So‘zlang, marhamat. Lekin hamma ishning tartib-qoidasi bor. Avval ro‘yxatga yozilishi kerak. Qani, bu yerda familiyangiz bormikan, ko‘raylik-chi?

- Men gapirmasam bo‘lmaydi, menga so‘z bering, hozir demokratiya zamoni!

Mafkuraxonimning qisqa gapidan jiddiy havotirni anglash qiyin emas. Nihoyat, yosh shoirga so‘z beriladi. Uning nutqi qissa mazmun-mohiyatini, badiiy yechimini ifodalaydi:

Men agar bugun bu yerda gapirmaganimda, o‘zimni umrbod kechirmasdim! Bugun shoir haqida haq gapni aytadigan kun! Agar bugun aytmasa, hech qachon aytolmaydi, shoir nomi yangi-yangi yolg‘onu soxta afsonalarga burkanib boraveradiki, uning pok ruhi oldida har birimiz gunohkor bo‘lib qolamiz.

- “Ajoyib” domla: yosh bola-da, har baloni aljirayveradi: gapir, gapiraver, sening gapiing – mening.....

Jasur shoirning nutqi dialog bilan boshlanib, monologga, tuhmatchilarni aybloviga aylanib ketadi va Otashqalb haqidagi real haqiqat ochib beriladi, hikoyachi sifatidagi shoir bilan muallif nutqlari qo‘shiladi. To‘g‘ri, nutqda qatag‘onlikning sabab va oqibatlari davr bilan bog‘liqlikda ko‘rsatilsa-da, uning asosiy sababchilari o‘z “do‘stlari”, hasadgo‘y, nokaslar, shu zalda o‘tirganlar ham ekani isbotlab beriladi. Qahramon holatidan uning qalbidagi qahr-g‘azabning kimlarga qaratilgani yorqin va aniq ifodalanadi. Yosh shoir nutqi va shu oradagi tashqaridan unga tashlanayotgan replika, luqmalarga javob ham keskin va asoslidir. Zero, badiiy til imkoniyatidan nutqda keng foydalanishda hayotiy va haqqoniy qahramon qiyofasini yuzaga keltirishda muallif san’atkorligi tufayli ifoda etilayotgan mazmunga, tasvir qilinayotgan lavhaga qiziqish ortadi.

Asarni tashkil qilgan matn – nutq muallif, hikoyachi va personajlar tomonidan amalga oshiriladi. Bu nutq yuqorida ko‘rganimizday monolog, dialog, epik bayon shakllarida yuzaga keladi. Ular kimning tilidan bayon etilishi asar

mazmuni, janri, muallif iste'dodi kabi omillar bilan izohlanadi. Muallif va hikoyachi nutqlari ba'zan o'xshab ketadi, lekin ular jiddiy farqlanadi. Hikoyachi ham odatda muallif singari o'zi bayon etayotgan faktlar va voqealarga muayyan nuqtayi nazardan munosabatda bo'ladi, voqealarni tanlaydi, guruhlashtiradi va baholaydi. Lekin hikoyachi obrazi muallif obraziga qaraganda torroq bo'lib, u avtor bilan tasvirlanayotgan voqealar o'rtasida vositachi, ular o'zaro bog'lovchilik vazifasini o'taydi. "Shoirning to'yi", "Otoyining tug'ilgan yili" qissalarida roviy-muallif bilan hikoyachi-asar qahramonlari muloqotida shunday holni ko'ramiz. Muallif obrazi, demak uning nutqi turli janrlardagi asarlarda turlicha bo'lishi mumkin. Masalan, hikoyada (E.A'zam hikoyalarida ham) muallif bilan tasvir birligi hikoyachi tomonidan amalga oshiriladi. Qissa janrida esa yozuvchi materialga aniq munosabatda bo'ladi, uning qahramoni xarakterini tasvirning turli vositalari, jumladan nutq shakllari orqali ochishga intiladi.

Asarda avtor nutqi bu – tildagi kitobat hamda jonli so'zlashuv tili voqeani bayon etuvchi hikoyachi obrazini yaratish materialidir. Jargonizm, dialektizimlar o'ziniki bo'lmagan ko'chirma gapning bo'yoqlari bo'lib, bu materialga kirmaydi. O'ziniki bo'lmagan ko'chirma gap portret, peyzaj, u yoki bu personajning tarixi, xarakteristikasini o'z ichiga oladi. Ba'zan avtor gapi ko'chirma nutqqa singib ketishi ham mumkin. Bu avtor nutqidagi mustaqilligining yo'qolishiga olib keladi. Muallif asardagi har bir personaj idroki, tasvirdagi ko'p ovozlilik xuddi shu yo'l bilan yaratiladi. ("Pakana", "Guli-guli", "Farishta" qissalarida).

Badiiy matnni tashkil etuvchi yaxlit monologda personaj nutqiga muayyan o'rin berilgani sabab, u ham voqealar tadrijiga, xususan boshqa qahramon tasviriga ta'sir ko'rsatadi, uni to'ldirib turadi yoxud rad etadi. Bu jarayonda personajning xatti-harakati bilan monolog yoki dialogdagi ishtiroki ham ko'rinadi.

Kuzatishlardan ma'lum bo'layaptiki, badiiy asar tili tizimi ko'p unsurli bo'lib, unda nutq turlari alohida o'rin tutadi. Monologik va dialogik nutq esa eng ko'p tarqalgan shakllardir. Ammo ularning mavqe, daraja va miqyoslari har bir janrda turlichadir. Masalan, dramatik asarlar asosan dialogik nutq asosiga qurilgan

bo'lsa, monologik nutq barcha shakllardagi asarlarda uchraydi. Ushbu tamoyillar asosida E.A'zam ijodini kuzatish quyidagi xulosalarni ta'kidlashni taqozo qiladi:

-badiiy nutqning yetakchi shakllaridan biri – monologik nutqdir. Uning muallif, hikoyachi, personaj tilida ifodalanishi asar xarakteri, mazmun-mohiyati, voqea xususiyati, adib mayli kabi omillarga bog'liq. Monologik nutqning ichki va tashqi ko'rinishlari, tabiiyki, o'rta va katta hajmli nasriy asarlarda ko'proq uchraydi.

-Monologik va ichki nutq konkret asarlar tuzilishiga ko'ra farqlanadi va ko'p hollarda aralash keladi. "Suv yoqalab", "Javob", "Zabarjad" qissalarida monologning ovozli va ovozsiz shakllari yetakchidir. Monolog qahramonning narsa-hodisalarga munosabati bilan birga personajlar ichki olami, ruhiy kechinmalarini ham ta'sirli g'amgin, sokin ohangda ifodalaydi.

-Hikoya, qissalardagi dialoglarda ham adib badiiy iste'dodining darajasi aks etadi. "Jannat o'zi qaydadir" asari dramatik qissa bo'lgani sababli dialogik nutq birinchi o'rinda turadi. Adibning boshqa asarlarida dialogik nutqlar muayyan maqsadda vaziyat taqozosiga ko'ra qo'llaniladi.

XULOSA

Mustaqillik sharofati tufayli mamlakatimizda hozirgi kunda ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy jabhalarda yangilanish pallasida jadal davom etmoqda. Bu jarayonda ma'naviyat ko'zgusi - adabiy ijodning odam va olamni badiiy kashf etish, kishilarda ezgulik, komillik fazilatlarini tarbiyalashdagi mavqei tobora oshib bormoqda, ijtimoiy-estetik funksiyasi kuchayib, tasvir va ifoda rang-baranglashgan sari yangicha nazariy tamoyillar namoyon bo'lmoqda.

Mavzu va badiiyat doirasining kengayishi, adiblar mahoratining osha borishi, ijodiy individuallik ko'rinishlarining xilma-xilligi, ijod erkinligining umidbaxsh samaralari – bugungi o'zbek qissa va hikoyalaridagi sifat o'zgarishlarining asosiy omillaridir. Shuningdek, istiqlol mafkurasi ta'sirida millat kishilari ongi va dunyoqarashida shakllangan yangi tafakkur, o'zlikni anglash, inson sha'ni va nufuzini e'zozlash, teran hayotiy nigoh tuyg'ulari qissa qahramonlari tasviridagi haqqoniylik va ta'sirchanlik xususiyatlarini yanada boyitdi. Bugungi adabiy-estetik tafakkurdagi o'zgarishlar o'zbek nasrining g'oyaviy-mazmuniy mohiyatida Inson tasvirini, badiiyatida haqqoniylik, ta'sirchanlik va nafosat, go'zallik ifodasining chuqurlashuvi va takomillashuvi imkoniyatlarini kengaytirishda badiiy til imkoniyatlaridan to'laqonli foydalanishda yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Badiiy til badiiylik va obraz yaratish, uslubga orginallik bag'ishlash mezonlaridan biri, adibning xalq tiliga munosabatini, uning boy imkoniyatlaridan foydalanish iste'dodini ko'rsatuvchi jihat hamdir.

Bu xususiyatlar hozirgi adabiy jarayonda, xususan nasrda salmoqli o'ringa ega bo'lgan Erkin A'zam ijodiga ham xosdir. Uning hikoya va qissalari tili-til badiiyati betakrorligi, ravon va jozibaliligi, xalqona ohangga monandligi bilan ajralib turadi va katta qiziqish uyg'otadi. Tasviriylilik, emotsionallik, obrazlilik, tipiklashtirilganlik, xalqchillik, lakonizm va aforizm badiiy tilning asosiy xususiyatlaridir. Agar ilmiy asarlar tili umumlashgan tushunchalarni anglatrsa, badiiy asarlar tili tabiat manzaralarini va inson qalbini butun murakkabligi bilan aks ettiradi. Boshqacha qilib aytganda, so'z san'atkorining hayotning hamma qirralarini

tasvirlaydi. Obraz yaratishning ushbu umumiy xususiyatlari ham E.A'zam asarlarida o'z ifodasini topgan. Ma'lumki, adib asarlaridagi obrazlar yoshi, jinsi, qiyofasi, kasb-kori, xarakteri jihatidan rang-barang. Yozuvchi ularning har biriga xos asosiy xususiyatlarni aniqlab, ularning asar g'oyaviy mazmunini ifodalashga bo'ysundiradi, har biridagi o'ziga xos jihatlarni ular yashayotgan davr ruhiga bog'liq holda tasvirlaydi. Bunda badiiy tilning peyzaj, badiiy tasvir, hikmatlar, dialog-monolog, majoz, kinoya, maxsus leksik resurslar va boshqa unsurlarini qo'llaydi.

Tadqiqotimizning umumiy mazmunidan kelib chiqadigan xulosalar quyidagilar:

- Badiiy til adabiyotning asosiy unsurlaridan biridir. U badiiy asarning barcha komponentlarida muayyan darajada aks etadi va ijodkor iste'dodini belgilaydi. Asar tili adabiyot badiiyligining mezonlaridan biri hamdir. Badiiylilik esa bezavol yangilik, asar mazmuni va shaklidagi uyg'unlikni ta'minlovchi, yuksak g'oyani ta'sirchan ifodalovchi hodisadir.

- So'z – asar tilining asosi, manbai. U asar sarlavhasi, personajlar ismlaridan boshlab hamma qismlarida ishtirok etadi. Adib mahorati so'z tanlash va qo'llashdan boshlanadi. E.A'zam asarlarida har bir so'z muayyan maqsad, badiiy niyat ifodasi uchun o'rinli qo'llaniladi. Zero, so'z badiiy asarga ko'chishi bilan uning konkret emotsional ko'rinishlari vujudga kela boshlaydi, majoziy ma'nolari kengaya boradi. Adib ijodi bunga misoldir.

- So'z - obraz yaratish vositasi hamdir. Bu ish ko'pincha personaj portretini gavdalantirishdan boshlanadi. Har bir obrazga muvofiq so'z tanlash mahoratga bog'liq bo'lib, uning xarakteri, xatti-harakati, kishilar bilan munosabati kabi talqinlarda ana shu so'zlar mohiyati yorqin aks etishi zarur. Ishda "Suv yoqalab" qissasi, "Chapdast" hikoyasining obrazlar tizimi, tasvir lavhalari ana shu talablarga to'la javob beradi. Xususan, ijobiy va salbiy, yumoristik-hajviy obrazlarning ichki va tashqi olamini ifodalovchi tasvirlarda har bir so'z muayyan estetik va uslubiy vazifa bajargan va muallif maqsadini, badiiy niyatini amalga oshirishga xizmat qilgan.

- Aforizm, hikmatli soʻz, maqol, matal kabi xalqona donishmandlik unsurlari badiiy asarga mazmuniy teranlik, shakliy-uslubiy joziba, ohorlilik bagʻishlovchi vositalardir. Muallif bu oʻrinda xalq tili imkoniyatlariga murojaat etadi va ulardan oʻz maqsadiga koʻra zarurlarini tanlaydi.

- Aforistik ifodalar E.Aʼzam asarlarida koʻp maʼnoli boʻlib, yozuvchiga keng imkoniyatlar beradi, ularni oʻz holicha yoki muayyan oʻzgartish va qoʻshimchalar bilan qoʻllash roviy mahoratiga bogʻliq. Tahlil etilgan asarlarda bularning namunalari va adib qalamiga mansub individual aforizmlar mavjud.

- Yumoristik ruh adib asarlarida alohida diqqatga loyiq. Xususan samimiy kulgu, quvnoqlik, xalqona dilkashlik, kinoya va kesatiq kabi hodisalardan ustalik bilan foydalanilgan, ular asarlar oʻqishligini va qiziqarliligini oshirgan. Aforistik va yumoristik ifodalarning S.Ahmad talqinlari bilan qiyoslanishi, har bir adibga xos mushtaraklik va oʻziga xoslikni oydinlashtirgan.

- Aforistik va yumoristik-hajviy tushunchalar asarda mazmun, shakl, uslub va badiiyat hodisalarining mutanosibligini taʼminlovchi koʻrsatkichlar sirasiga kiradi.

- Aforistik va yumoristik maʼno qirralari badiiy til imkoniyatlaridan sanaladi. Ularning birinchisi asarga mazmuniy teranlik, didaktik ruh bagʻishlasa, ikkinchisi asarni, obraz va voqealar tasvirini quvnoqlik, xalqona dilkashlik, kulgu kabi ifodalar bilan bezaydi. E.Aʼzam asarlarida kinoya, yumor, kesatiq yetakchi boʻlib, hikoya va qissalar oʻqishligini oshirgan. Bunda ustozlar, jumladan S.Ahmad tajribasining maʼlum taʼsiri koʻrinadi.

-badiiy nutqning yetakchi shakllaridan biri – monologik nutqdir. Uning muallif, hikoyachi, personaj tilida ifodalanishi asar xarakteri, mazmun-mohiyati, voqea xususiyati, adib mayli kabi omillarga bogʻliq. Monologik nutqning ichki va tashqi koʻrinishlari, tabiiyki, oʻrta va katta hajmli nasriy asarlarda koʻproq uchraydi.

-Monologik va ichki nutq konkret asarlar tuzilishiga koʻra farqlanadi va koʻp hollarda aralash keladi. “Suv yoqalab”, “Javob”, “Zabarjad” qissalarida monologning ovozli va ovozsiz shakllari yetakchidir. Monolog qahramonning

narsa-hodisalarga munosabati bilan birga personajlar ichki olami, ruhiy kechinmalarini ham ta'sirli g'amgin, sokin ohangda ifodalaydi.

-Hikoya, qissalardagi dialoglarda ham adib badiiy iste'dodining darajasi aks etadi. "Jannat o'zi qaydadir" asari dramatik qissa bo'lgani sababli dialogik nutq birinchi o'rinda turadi. Adibning boshqa asarlarida dialogik nutqlar muayyan maqsadda vaziyat taqozosiga ko'ra qo'llaniladi.

Bugungi o'zbek nasrida samarali ijod qilayotgan Erkin A'zam ijodi o'zbek badiiy tili imkoniyatlarini, ravon va jozibardorligini, xaqona ohanglar jilosini o'zida jam eta olgani bilan alohida e'tiborga molikdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari.

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 8-dekabr 1992-yil.
2. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 29-avgust 1997-yil.
3. O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. 29-avgust 1997-yil.

II. O'zbekiston Respublikasi Prezident farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari.

4. "Magistratura to'g'risida"gi nizomni tasdiqlash haqida. O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligining 2007-yil 29-dekabrdagi 269-sonli buyrug'i bilan.
5. Ta'lim sohalari bo'yicha "Eng yaxshi bitiruv malakaviy ishi va magistrlik dissertatsiyasi" Respublika tanlovi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash to'g'risida. Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligining 2008-yil 18-apreldagi 104-sonli buyrug'iga 1-ilova.
6. "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimida magistratura faoliyatini yanada takomillashtirish, uning samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 10-sentabrdagi 190-sonli qarori.

III. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari

7. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: O'zbekiston, 2008. – 160 b.
8. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlool, iqtisod, siyosat, mafkura –Toshkent: O'zbekiston, 1993. –174 b.
9. Karimov I.A. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi I-sessiyasida so'zlagan nutq. 1990-yil, 24-mart.

IV. Asosiy adabiyotlar

10. A'zam E. Pakananing oshiq ko'ngli.- Toshkent. Ma'naviyat, 2001. B. 4-56.
11. A'zam E. Kechikayotgan odam. –Toshkent. Sharq, 2002. 413 b.
12. A'zam E. Jannat o'zi qaydadir. –Toshkent. Sharq, 2007. 268 b.
13. A'zam E. Ertak bilan xayrlashuv. –Toshkent. Sharq, 2007. 198 b.
14. A'zam E. Shovqin. –Toshkent. O'zbekiston, 2011. 277 b.
15. A'zam E. Otoyining tug'ilgan yili //Kechikayotgan odam. Qissalar. –Toshkent. Sharq, 2002. B. 6-69.
16. A'zam E. Pakana //Kechikayotgan odam. Qissalar. –Toshkent. Sharq, 2002. B. -445.
17. A'zam E. Suv yoqalab. //Jannat o'zi qaydadir. –Toshkent. Sharq, 2007. B.-57.
18. A'zam E. Shoirning to'yi. //Kechikayotgan odam. Qissalar. –Toshkent. Sharq, 2002. B. -360.
19. A'zam E. Zabarjad. //Jannat o'zi qaydadir. –Toshkent. Sharq, 2007. B.-145.
20. A'zam E. Chapdast //Shovqin. –Toshkent. O'zbekiston, 2011. -277 b.
21. To'ychiyev U. O'zbek adabiyoti va badiiylik mezonlari va ularning maromlari. Toshkent, Yangi asr avlodi. 2011. B.508.
22. Sharafiddinov O. Adabiyot tildan boshlanadi //Haqiqatga sadoqat. –Toshkent, Adabiyot va san'at nashriyoti, 1989. B.-166.
23. Adabiyot nazariyasi. 1-tom.- Toshkent: Fan, 1978. -414 b.
24. Adabiyot nazariyasi. 2-tom.- Toshkent: Fan, 1979. -445 b.
25. Adabiy turlar va janrlar. Uch tomlik. I tom. Toshkent: Fan, 91. -198 b.
26. Belinskiy V.G. Adabiy orzular. Maqolalar. –Toshkent: dabiyot va san'at nashriyoti, 1977. -219 b.
27. Boboev T. Adabiyotshunoslik asoslari. -Toshkent: O'qituvchi, 2001. -556 b.
28. Boltaboev H. Nasr va uslub.-T:Fan 1992. 112 b
29. Gorkiy M. Adabiyot haqida.-Toshkent:O'zdavnashr. 1962. B.-191 b.
30. Golovko V.M. Poetika ruskoy povesti. Saratov, 1992.S.17.
31. Ibrohimova R. Fantastika va hayot.-Toshkent: Ruhafzo, 1998. B 67.

32. Yoʻldoshev Q. Yoniq soʻz. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006. -778 b.
33. Karimov X. Janrmi yoki uslub. Toshkent: Fan, 1991. -56 b.
34. Karimov N. Mamajonov S. va boshqalar. XX asr oʻzbek adabiyoti tarixi.- Toshkent: Oʻqituvchi. 1990. -100 b.
35. Karimov B. Abdulla Qodiriy: tanqid, tahlil va talqin. Toshkent: Fan, 2006. - 232 b.
36. Mamajonov S. Uslub jilolari. -Toshkent: Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1972. - 219 b.
37. Mirzaev S. Badiiy uslub sehri. Samarqand. Universitet. B. -90.
38. Mirvaliev S., Shokirova R. Oʻzbek adiblari. -Toshkent: Fan. 2007. -270 b.
39. Mustaqillik davri adabiyoti. -Toshkent: Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 2006.- 228 b.
40. Nosirov U. Ijodkor shaxs, badiiy uslub, avtor obrazi. - Toshkent: Fan, 1981.- 198 b.

V. Qoʻshimcha adabiyotlar

41. Normatov U. Ijod sehri. Toshkent: Sharq, 2007. 352 b.
42. Normatov U. Umiddaxsh tamoyillar. Toshkent: Maʼnaviyat, 2000.-B. 93.
43. Normatov U. Tafakkur yogʻdusi. –Toshkent. 2005.-247 b.
44. Pardayeva Z. Badiiy tafakkur rivoji va oʻzbek romanchiligi. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2002.
45. Rasulov A. Tanqid, talqin, baholash. Toshkent: Fan, 2006. 232 b.
46. Rasulov A. Badiiylik –bezavol yangilik. Toshkent. Sharq, 2007. -336 b.
47. Rahimjonov N. Mustaqillik davri oʻzbek sheʼriyati. -Toshkent: Fan, 2007. - 259 b.
48. Sattorova G. Milliy xarakter va badiiy talqin. -Toshkent: Fan, 2007.-119 b.
49. Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. – Toshkent: nashriyotsiz. 2004. B. -120.
50. Solijonov Y. Haqiqatning sinchkov koʻzlari. -Toshkent: Oʻzbekiston milliy kutubxonasi. 2009. -228 b.
51. Sodiqov S. Ijodning oʻttiz lahzasi. –Toshkent: Sharq, -2005. -320 b.

52. Sultanova M. YOzuvchi uslubiga doir. -Toshkent: Fan, 1991. -116 b.
53. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. -Toshkent: O'qituvchi, 2005. -272b.
54. Ulug'ov A. Qissachiligimiz qirralari. T. O'qituvchi, 1991.
55. Umurov H. Adabiyot nazariyasi. Toshkent: Sharq, 2002. -254 b.
56. Xalizev V. Ch. Teoriya literatury. Moskva. Vysshaya shkola.1999.-373 s.
57. Hamdamov U. Badiiy tafakkur tadriji. -Toshkent: Yangi asr avlodi, 2002. -200 b.
58. Hamdamov U. Yangilanish ehtiyoji. Toshkent: Fan, 2007.-196 b.
59. Xudoyberdiev E. Adabiyotshunoslikka kirish. Toshkent: Sharq, 2008. -268 b.
60. Sharafitdinov O. Ijodni anglash baxti.-Toshkent: Sharq, 2004.-640 b.
61. SHarafiddinov O. Dunyoda oftob borki// Haqiqatga sadoqat – T. Adabiyot va sa'nat nashriyoti, 1989. B. 334-344.
62. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish.-Toshkent: Fan, 2007. -227 b.
63. Yoqubov I. Hozirgi adabiy jarayoni. -Toshkent: Universitet.2005.182 b.

VI. Davriy nashrlar, statistik to'plamlar va hisobotlar

64. To'laganova S. Yangilanayotgan qahramon talqini. //O'zbek tili va adabiyoti. 2012. №4. B.95.
65. Rizayev Sh. Parizodga aylangan farishta. //O'zbekiston adabiyoti vasan'ati. 2012. 7-sentabr, //№36.
66. Ashurova N. Erkin A'zam uslubining ayrim xususiyatlari. //O'zbek tili va adabiyoti. 2012. №5. –B. 65-67.
67. Rajapova F. Individual uslubda obraz tasviri //Badiiy tafakkur va adabiy jarayon. Toshkent, TDPU. 2010.B.31-35.
68. Rajapova F. Qissachilikda zamonaviy talqin tamoyillari. Risola. – Toshkent, TDPU. 2011. 45 b.
69. Abduqodirov A. Davr, uslub va poetik obraz. //O'zbek tili va adabiyoti. 1980. № 2. -26-30 b.
70. Normatov U. Yangi asr odamlari. // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 2009. 29 may

VII. Internet saytlari

- 71. www.ziyonet.uz.
- 72. www.ta'lim.uz
- 73. www.talant.spb.ru.wald.html.
- 74. [www.school.edu. ru](http://www.school.edu.ru).
- 75. www.ppf.uni.udm.ru
- 76. www.search.re.uz
- 77. www.pedagog.uz
- 78. www.ref.uz

Химоя килиш жараёни

РАИС: 5A120101 Адабиётшунослик(тиллер ва тақикотлар бўйича) мутахассислиги бўйича якуний давлат аттестацияси комиссияси йиғилишини очик деб эълон қиламан.

Йиғилишда 5A120101 Адабиётшунослик(тиллер ва тақикотлар бўйича) мутахассислиги II боскич магистранти

_____ ни
« Эркин Раҳмонова Назоми тасарруфдорлиги бўлган
мавзусидаги магистрлик диссертацияси химояси қаралади. »

Илмий рахбар: Эркин Раҳмонова Рахмонова

РАИС: Сўзни диссертантга беради (15 дақиқа вақт беради).

Магистрант саволларга жавоб бергандан кейин раис сўзни илмий рахбарга беради.

ИЛМИЙ РАХБАР: (Диссертант тўғрисида гапиради). Кейин сўз оппонентга берилади.

ОППОНЕНТ: (Оппонент бўлмаса илмий котиб оппонент тақризини ўқиб беради).

Диссертантга сўз берилади.

Хохловчиларга сўз берилади.

Шу билан химоя тамом бўлади.

Хисоб комиссияси тузилади. Овоз бериш жараёни бўлади.

РАИС: Хисоб комиссияси раисига сўз беради.

Хисоб комиссияси баённомаси тасдиқланади.

РАИС: Овоз бериш якунини эълон қилади. Диссертантни табриклайди.

G'aipova Hulkar Qo'zibayevnaning "Erkin A'zam asarlarining badiiy til xususiyatlari" mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasiga ilmiy rahbar

TAQRIZI

Ma'lumki, til - inson ma'naviyatining ko'zgusi sanaladi. Shu bois, badiiy asarlarda inson shaxsiyatidagi barcha qirralarni yoritishda, obraz yaratish mahoratini shakllantirishda badiiy til xususiyatlarini o'rganish katta ahamiyatga egadir. Vaholanki, badiiy til badiiylik va obraz yaratish, uslubga originallik bag'ishlash mezonlaridan biri, adibning xalq tiliga munosabatini, uning boy imkoniyatlaridan foydalanish iste'dodini ko'rsatuvchi jihat hamdir. Ana shu nuqtayi nazardan "Erkin A'zam asarlarining badiiy til xususiyatlari" mavzusidagi mazkur tadqiqot ishi alohida dolzarblik kasb etadi.

Yozuvchi Erkin A'zam hozirgi adabiy jarayonda eng faol ishtirok etayotgan sermahsul ijod sohiblaridan biridir. Dissertatsiyada adibning hikoya va qissalaridagi badiiy til tovlanishlari, uning obraz yaratishdagi mahorati talqin qilingan. Zero, uning hikoya va qissalari tili til badiiyati betakrorligi, ravon va jozibaliligi, xalqona ohangga monandligi bilan ajralib turadi va katta qiziqish uyg'otadi.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "Adabiy asarda badiiy tilning o'rni" deb nomlanib uch faslni o'z ichiga oladi. Badiiy til adabiyotning asosiy unsurlaridan biridir. U badiiy asarning barcha komponentlarida muayyan darajada aks etadi va ijodkor iste'dodini belgilaydi. Bobda ana shu masalalar yoritilib, Erkin A'zamning so'z tanlash va uni to'g'ri qo'llay olish mahorati, badiiy obraz yaratishdagi o'ziga xosligi masalalari tahlil markaziga tortilgan. Adibning "Suv yoqalab", "Shoirning to'yi", "Javob" kabi qissalari hamda "Chapdast" hikoyasi tahlil qilingan.

Ishning ikkinchi bobida Erkin A'zam asarlari tilida didaktik va hajviy tafakkur ifodalarining qo'llanilishi yoritilib, aforistik hamda yumoristik ma'no qirralari ochib berilgan. Yumoristik ruh adib asarlarida alohida diqqatga loyiq. Xususan samimiy kulgu, quvnoqlik, xalqona dilkashlik, kinoya va kesatiq kabi hodisalardan ustalik bilan foydalanilgan, ular asarlar o'qimishlilikini va qiziqarliligini oshirgan. Adib asarlarida maqol, matal va hikmatli so'zlarning o'rinli qo'llanilishi misollar vositasida ko'rsatib

berilgan. Shuningdek, Erkin A'zam qissa va hikoyalari badiiy tilining mohir nosir Said Ahmad asarlarining tili bilan qiyosiy o'rganilganligi ishning qimmatini yanada oshirgan.

"Asar tili xususiyatlarining badiiy nutqdagi ro'li" deb nomlangan uchinchi bobda Erkin A'zam asarlaridagi personajlar nutqi, diologik va monologik nutqlar xususida fikr yuritiladi. Dialoglarning xayoliy, jonli, ichki dialog kabi turlari misollar vositasida ochib beriladi. "Suv yoqalab", "Javob", "Zabarjad" qissalarida monologning ovoqli va ovozsiz shakllari, ularning badiiy asar kontekstidagi ahamiyati ta'kidlanadi.


Tadqiqot ishining boblari o'zaro mantiqan bog'langan bo'lib, adib qissa va hikoyalari badiiy til xususiyatlari, obraz yaratishdagi mahorati yetarli aks ettirilgan.

Umuman, dissertatsiya ishini magistrning mustaqil fikrlash, ilmiy qarashlarni anglash va ijodiy bayon eta olishining namunasi sifatida yuqori baholab, uni ochiq olimoyaga tavsiya etaman.

Ilmiy rahbar:



f.f.n. B.B.Rahimova



**Magistratura ta'limining "Adabiyotshunoslik" yo'nalishi bo'yicha 2013- yil
bitkazuvchisi G'aipova Hulkar Qo'zibayevnaning "Erkin A'zam asarlarining
badiiy til xususiyatlari" mavzusidagi dissertatsiyasiga
TAQRIZ**

Badiiy asarda tilning o'rni, o'ziga xos xususiyatlari o'zbek adabiyotshunosligida kam o'rganilgan muammolardan biridir. Hatto bu yo'nalishda dissertatsiya, monografiya va boshqa tadqiqotlar ham barmoq bilan sanarli. Shu jihatdan ushbu magistrlik dissertatsiyasi alohida dolzarblik va ilmiy-amaliy ahamiyatga molikdir.

Dissertatsiya hozirgi adabiyotshunoslik ilmidagi eng yangi qarashlar, mustaqillik mafkurasi asosida boy faktik materiallarga tayangan holda yozilgan. Ish mundarijasi dissertatsiyada qo'yilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan bo'lib, uch bobdan iborat. Har bir bob muayyan fasllarni qamrab olgan. Boblar va fasllar o'zaro ichki mantiqiy izchillikka ega va tadqiqotning yangiligini ta'minlagan.

Tadqiqot ob'ekti qilib E.A'zam asarlarining tanlanishi ham o'zini oqlaydi. Chunki, bu adib asarlari badiiy tilga xos jozibadorlik, ko'p ma'nolilik va ta'sirchan ifodaliligi bilan ajralib turadi.

Dissertatsiyaning ilmiy yangiligi o'rganilgan mavzuning ilk marta monografik yo'nalishda yoritilgani va shu asosda muayyan ilmiy-nazariy xulosalar chiqarilganida ekanligi to'g'ri ta'kidlangan.

Ishning "Adabiy asarda badiiy tilning o'rni" deb atalgan birinchi bobi, odatdagiday, muammoning nazariy jihatlariga qaratilgan. Xususan, asar tili badiiylik mezonlaridan biri ekanligiga alohida urg'u berilgani juda o'rinli va asosli bo'lib, ishga o'ziga xos ilmiylik bag'ishlagan. Muhimi, magistrant bu faslda badiiylik tamoyili xususidagi bugungi yangicha qarashlarni chuqur anglagan va ishiga tadbiq eta bilgan. Shuningdek, bobdagi E.A'zamning so'z tanlash va obraz yaratishda xalk tili imkoniyatlaridan foydalanishdagi mahorati, so'zning mavzu va personaj xarakteriga ko'ra o'z va ko'chma ma'nolaridagi shakllarini qo'llash uslubi yetarli yoritilgan. Hikmatli so'zlar, aforizm, maqol, matal va yumoristik tushunchalar asar badiiy tili silsilasida katta salmoqqa ega. Shu bois dissertatsiyaning ikkinchi bobi badiiyatning

ushbu unsurlari talqiniga bag'ishlangan. Muallif bu o'rinda E.A'zam qissalariga, ayniqsa, "Pakananing oshiq ko'ngli" asariga ko'proq to'xtalar ekan, undagi aforistik va yumoristik ifodalarning badiiy niyatni aks ettirishdagi ijtimoiy-estetik vazifalarini aniq tahlil eta olgan, xalq yaratgan va individual aforizmlar namunalariga to'g'ri yondoshgan. Adibning kulgu, kinoya, kesatq ohanglarni aks ettirishdagi mahorati yetarli ochilgan.

Badiiy asar tilining ta'sirchan va bo'yoqdor bo'lishining omillaridan biri nutqdir. Ishda badiiy matndagi nutqning muallif, hikoyachi va personajga tegishli shakllari haqidagi fikrlar ham misollar tahlili asosida asoslangan. Xususan, epik bayonda dialogik, dramatik bayonda monologik nutqning ustuvorligi qayd etilgan. Bu masala uchinchi bobning mazmunini tashkil etadi.

Dissertatsiyaning e'tiborga sazovor jihatlaridan biri har bir bobning muayyan xulosalar bilan yakunlanishidir. Bular magistrantning mavzu mohiyatini to'g'ri anglagani, mustaqil fikrlay olishini ko'rsatadi va quvvatlashga arziydi.


Tabiiyki, yosh tadqiqotchining bu ilk ilmiy izlanishida ayrim qusurlar, qiyomiga yetmagan fikrlar yo'q emas:

1)Nazarimizda monologik nutqqa oid fasl nisbatan qisqa bo'lib qolgan, tashqi ovozli nutqqa misollar keltirish ish qimmatini yanada oshiradi.

2)Muallif hikoyachi tilidagi farqqa alohida urg'u berib, ta'kidlansa, asosiy fikr bo'rtib turardi.

3)Dissertatsiyada berilgan havola (snoska) va adabiyotlar ro'yhatini Nizom tartibiga ko'ra to'g'ri yozishni ko'zdan kechirish kerak.

Bu juz'iy nuqsonlar dissertatsiyaning umumiy mohiyatini biroz darajada pasaytirmaydi. Shu bois ushbu holatda ham magistrlik dissertatsiyasi talablariga to'la javob beradi. Ishni muhim mavzuda mustaqil yozilgan tadqiqot sifatida baholab, rasmiy himoyaga tavsiya etaman.



Hamdam Abdullayev,
filologiya fanlari doktori,
professor, Qoraqolpog'iston
Respublikasida xizmat ko'rsatgan
fan arbobi

G‘aipova Hulkar Qo‘zibayevnaning “Erkin A‘zam asarlarining badiiy til xususiyatlari” mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasiga tashqi

TAQRIZ

Hozirgi adabiy jarayonning faol vakillaridan biri mohir yozuvchi Erkin A‘zamdir. Adib asarlari obrazlilik, xalqona iboralarga boyligi, jonli tilning ma‘no tovlanishlarini jozibali tarzda yoritilganligi bilan ajralib turadi. Shu ma‘noda, G‘aipova Hulkar Qo‘zibayevnaning “Erkin A‘zam asarlarining badiiy til xususiyatlari” mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi alohida dolzarblik kasb etadi.

Tadqiqot ishi magistrlik dissertatsiyalariga qo‘yilgan talablar darajasida yozilgan bo‘lib, barcha tarkibiy qismlarda mavzu izchil yoritilgan. Ishning Kirish qismida mavzuning o‘rganilganlik darajasi, ishning maqsad va vazifalari to‘g‘ri ko‘rsatib o‘tilgan. Tadqiqotning asosiy mazmuni yetti faslni o‘z ichiga olgan uch bobda bayon qilingan.

Ishning birinchi bobida badiiy asar tiliga qo‘yiladigan talablar, badiiylilik mezonlari, Erkin A‘zam asarlari tilining jozibadorligi, ko‘p ma‘nolilik xususiyatlariga urg‘u berilib, masalaning nazariy jihatlariga e‘tibor qaratiladi. Shuningdek, E.A‘zamning so‘z tanlash va badiiy obraz yaratishda xalq jonli tili imkoniyatlaridan o‘rinli foydalanishdagi mahorati tahlil markaziga tortiladi.

Ma‘lumki, maqol va matallar, hikmatli so‘zlar, aforizmlar badiiy asar tili jozibadorligini oshiruvchi vositalardan sanaladi. Shu bois ishning ikkinchi bobi “Asar tilida didaktik va hajviy tafakkur ifodasi” deb nomlanib, adib qissa va hikoyalaridagi aforistik va yumoristik ma‘no talqinlarini ko‘rsatishga bag‘ishlangan. Bunda adibning “Suv yoqalab”, “Pakananing oshiq ko‘ngli”, “Javob” kabi asarlaridagi kulgu, kesatiq, kinoya ohanglarini aks ettirishdagi mahorati Said Ahmad asarlari bilan qiyosan o‘rganilganligi ilmiy ish qimmatini yanada oshirishga xizmat qilgan.


Dissertatsion ishning uchinchi bobi “Badiiy matnda nutq turlari va ularning ifodalanish xususiyatlari” deb nomlangan. Bu bob ham ikki fasldan tashkil topgan bo‘lib, monologik va dialogik nutq qirralarini tadqiq qilishga bag‘ishlangan. Adibning “Zabarjad”, “Jannat o‘zi qaydadir”, “Suv yoqalab” kabi qissalaridan

olingan dialog va monologlar tahlilga tortilib, ularning inson ruhiyatini ochishdagi ahamiyati alohida ta'kidlangan, ilmiy xulosalar chiqarilgan.

Ishda dissertantning mavzu mohiyatini anglab yetgani, unga to'g'ri yondashib, fikrlarga ijodiy munosabatda bo'la olgani ham ko'rinib turibdi. Tadqiqotchining bu ijodiy izlanishlari yaxshi taassurot qoldirgan holda ba'zi qusurlarni ham namoyon etadi. Jumladan, ba'zi o'rinlarda asarlardan olingan parchalarga keng o'rin berilgani holda, tahlil nisbatan qisqaroqday tuyuladi. Uchinchi bob boshqa qismlarga qaraganda nisbatan qisqaroq yozilgan. Bu juz'iy qusurlar ishning mohiyatini pasaytirmaydi, uni talablar darajasida yozilgan deyishga, yuqori baholashga to'la asos bor.

Filologiya fanlari nomzodi,

dotsent:



N. Madrahimova